$$c_{mz} = \frac{\int_1^2 (a_z + b_z T)\frac{dT}{T}}{\ln\frac{T_2}{T_1}} = a_z + b_z \frac{T_2 - T_1}{\ln\frac{T_2}{T_1}} = a_z + b_z T_{mz}. \quad (4.48)$$

Bu shuni anglatadiki, agar birinchi o‘rtacha issiqlik sig‘imi (T_{ma}) o‘rtacha arifmetik haroratda haqiqiy issiqlik sig‘imiga teng bo‘lsa,

ikkinchi o‘rtacha issiqlik sig‘imi esa – (T_{mz}) o‘rtacha logarifmik haroratda haqiqiy issiqlik sig‘imiga teng bo‘lsa, u holda birinchi o‘rtacha issiqlik sig‘imi son jihatidan ikkinchi o‘rtacha issiqlik sig‘imiga qaraganda biroz katta bo‘ladi. Odatdagi muhandislik hisoblashlarini bajarishda bu issiqlik sig‘imlarini son jihatidan o‘zaro teng deb hisoblash mumkin.

Masalalar

25. Kengayish jarayonida 1 kg kislorodga 262 kJ issiqlik keltirilayapti. Agar uning harorati jarayon natijasida 95 ^{0}C pasaysa, gazning bajargan ishi nimaga teng. Issiqlik sig‘imining haroratga bogliqligini hisobga olmang.

Javob: ℓ=200 kJ/kg .

Echish:

1. Kislorod uchun (ikki atomli gaz)

μc_v=20,93 kJ/kmolK

$c_v = \frac{\mu c_v}{\mu_{O_2}} = \frac{20,93}{32}$ =0,654 kJ/kgK

$\Delta u = c_v \cdot \Delta t = 0,654 \cdot 95 = 62$ kJ/kg

q-Δu=262-62=200 kJ/kg.

26. Elektr stantsiyasining qozonxonasida 20 soat ishlashda 28900 kJ/kg kaloriyali 62 tonna ko'mir yoqildi. Agar ko'mir yonishidan olingan issiqlikning 18% elektr energiyasiga aylangan bo'lsa, stantsiyaning o'rtacha quvvatini aniqlang,.

27. 4200 kVt quvvatli bug' elektr stantsiyasining samaradorligi 20%. Agar uning kaloriyali qiymati 25000 kJ bo'lsa, soatlik yoqilg'i sarfini aniqlang.

28. 1 kg havoning t_1 = 300 ^{0}C boshlang'ich holatidan t_2 = 50^{0}C da oxirgi holatiga o'tishidagi ichki energiyasining o'zgarishini toping. Issiqlik sig'imining haroratga bog'liqligi chiziqli deb qabul qilinadi.

29. Gaz kengayishining adiabatik jarayonidagi o'ziga xos texnik ishlarni aniqlang. Kengayganda gaz harorati 300 dan 100 ^{0}C gacha pasayadi, gaz tezligi 30 dan 10 m/s gacha kamayadi. Tashqi potentsial energiya holati o'zgarmaydi. Gazning o'rtacha issiqlik quvvati 1,3 kJ / kgK.

30. 5000 m^3 /soat havoga harorati 20 dan 120 ^0C gacha ko'tarilishi uchun qancha issiqlik etkazib berish kerak. tashqi kinetik va potentsial energiyalari holati doimiy deb qabul qilinadi.

Nazorat savollari

1. Termodinamikaning birinchi asosini ta’rifini keltiring.
2. Ishchi jismning balansi bo‘yicha termodinamikaning birinchi asosining tenglamalarini yozib bering.
3. Entalpiya to‘g‘risida tushuncha bering.
4. Entropiya to‘g‘risida tushuncha bering.
5. Termodinamik tizim bajargan ishni ko‘rib chiqing?
6. Kengayish ishini tushuntiring.

5. Termodinamik tizimlarning holatining o‘zgarish jarayonlari

5.1. Termodinamik jarayonlarning tasnifi

Oddiy jismlarning holatining o‘zgarish jarayonlarini tadqiq qilishda holatning o‘zgarish jarayonlarini ishning «bosim – solishtirma hajm» universal koordinatalarida tasvirlash asosiy qiziqish uyg‘otadi.

Termodinamik jarayonning tenglamasi yoki jarayonni p-*v* koordinatalarda tasvirlash ko‘rinishida grafik usul bilan, yoki $\varphi(p,v)=0$ analitik ko‘rinishda berilishi mumkin.

Jarayonning tenglamasi shuningdek bu jarayonda qandaydir bir holat funksiyasining qiymati o‘zgarmasligi to‘g‘risidagi boshlang‘ich shart bilan ($z = const; z = p, v, t, u, h, s$) yoki termodinamik jarayonning qandaydir bir hodisasining nolga tengligi to‘g‘risidagi shart bilan ($\delta q = 0$) ham berilishi mumkin, biroq bu holda boshlang‘ich shart jarayonning tenglamasining asosiy ko‘rinishiga keltiriladi.

Termodinamik jarayonlarni o‘rganishda, qoidaga ko‘ra, quyidagilar aniqlanadi:

1) ishchi jismning holat parametrlarining o‘zgarishi, bu jarayonning tenglamasini chiqarish yoki uni *P-v*, *P-T*, *T-s* va hokazo diagrammalarda grafik tarzda tasvirlash bilan bog‘lanadi;

2) jarayonning boshlang‘ich va oxirgi nuqtalarida tizimning holat parametrlari;

3) jarayonda ish va issiqlik almashinishining sonli qiymatlari;

4) ishchi jismning ichki energiyasi, entalpiyasi va entropiyasi qiymatlarining o‘zgarishi.

Eng muhim termodinamik jarayonlarning tavsiflari 5.1- jadvalda keltirilgan.

5.2. Eng oddiy termodinamik jarayonlar

Eng oddiy termodinamik jarayonlar deb odatda izobarik, izoxorik va izopotensial jarayonlarga aytiladi.

Izobarik jarayon ($p = const; dp = 0$) – unda tizimda bosim o‘zgarmasdan qoladigan jarayondir.

Izobarik jarayon (yoki izobara) grafik tarzda 5.2-rasmda keltirilgan.

Izobarik jarayonlarda solishtirma hajmning ortishi (1-2) yoki

kamayishi (1-3) sodir bo‘ladi, bu haroratning mos ravishda o‘zgarishi – issiqlik olib kelinishi yoki olib ketilishi bilan bog‘lanadi.

Issiqlikning olib kelinishi yoki olib ketilishi izobarik jarayonlari porshenli ichki yonuvdvigatellari, gaz-turbinali dvigatellar, bug‘-kuch dvigatellari, sovutish qurilmalari va boshqalarda sodir bo‘ladi.



a) b)

5.1-rasm. Izobarik jarayonda ishchi jismning boshlang‘ich (a) va oxirgi holati



a) b)

5.2-rasm. Izobarik jarayonni *p-v* (a) va *T-s* (b) diagrammalarda ko‘rinishi

Ideal gaz uchun 1-2 izobarik jarayonda haroratning o‘zgarishi solishtirma hajmning o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi: $\frac{T_2}{T_1} = \frac{v_2}{v_1}$.

Izobarik jarayonda ($p_1 = p_2 = p$) solishtirma termodinamik va potensial ishlar:

$$l_{1,2} = \int_1^2 p\,dv = p(v_2 - v_1) \qquad (5.1)$$

$$w_{1,2} = -\int_1^2 v\,dp = 0. \qquad (5.2)$$

Izobarik jarayonda ishchi jismga olib kelinadigan (undan olib ketiladigan) issiqlik miqdori termodinamikaning birinchi asosining ifodasidan aniqlanadi

$$q_{1,2} = \Delta u + l_{1,2} = \Delta h = h_2 - h_1. \qquad (5.3)$$

Izoxorik jarayon (v=const; dv=0) – tizimning hajmi yoki ishchi jismning solishtirma hajmi o‘zgarmasdan qoladigan jarayondir (5.3-rasm).

Izoxorik jarayonlarda bosimning ortishi (1-4) yoki kamayishi (1-5) sodir bo‘ladi, bu haroratning mos ravishda o‘zgarishi – issiqlik olib kelinishi yoki olib ketilishi bilan bog‘lanadi.

Issiqlikning olib kelinishi yoki olib ketilishi izoxorik jarayonlari porshenli ichki yonuv dvigatellari, gaz-turbinali dvigatellar, bug‘-kuch qurilmalari va boshqalarda sodir bo‘ladi.



a)



b)

5.3-rasm. Izoxorik jarayonni *p-v* (a) va *T-s* (b) diagrammalarda ko‘rinishi

Ideal gaz uchun izoxorik jarayonda 1-4 haroratning o‘zgarishi bosimning o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi: $\frac{T_2}{T_1}=\frac{p_2}{p_1}$.

Izoxorik jarayonda (v_1 = v_4 = v) solishtirma termodinamik va potensial ishlar:

$$l_{1,4}=\int_1^4 p\,dv=0, \tag{5.4}$$

$$w_{1,4}=-\int_1^4 v\,dp=v(p_1-p_4). \tag{5.5}$$

Izoxorik jarayonda ishchi jismga olib kelinadigan (undan olib ketiladigan) issiqlik miqdori termodinamikaning birinchi asosining ifodasidan aniqlanadi

$$q_{1,2}=\Delta h+w_{1,2}=\Delta u=u_2-u_1. \tag{5.6}$$

5.1- jadval

Oddiy jismning holatining o‘zgarishining termodinamik jarayonlari.

Jarayonning nomi va tenglamasi	Politrop ko‘rsatkichi	Grafik tasvirlanish	Ish	Issiqlik
1	2	3	4	5
Politrop $pv^n = const$	$-\infty \le n \le +\infty$, $n = -\frac{vdp}{pdv} = \frac{\delta w}{\delta \ell} =$ $= \frac{w_{1,2}}{\ell_{1,2}} = \frac{\log \frac{P_1}{P_2}}{\log \frac{v_2}{v_1}}$		$\ell_{1,2} = \frac{P_1 v_1}{n-1}\left(1-\tau_{1,2}\right)$, $w_{1,2} = n\frac{P_1 v_1}{n-1}\left(1-\tau_{1,2}\right)$, $\tau_{1,2} = \frac{P_2 v_2}{P_1 v_1} = \left(\frac{P_2}{P_1}\right)^{\frac{n-1}{n}} =$ $= \left(\frac{v_1}{v_2}\right)^{n-1} = \frac{T_2}{T_1}$	$q_{1,2} = \Delta u_{1,2} + \ell_{1,2} =$ $= \Delta h_{1,2} + w_{1,2}$, $q_{1,2} = \frac{k-n}{k-n_u}\ell_{1,2}$
Izobarik $p = const$, $dp = 0$	$n = 0$		$\ell_{1,2} = p(v_2 - v_1)$, $w_{1,2} = 0$, $\tau_{1,2} = \left(\frac{v_1}{v_2}\right)^{n-1} = \frac{T_2}{T_1}$	$q_{1,2} = \Delta u_{1,2} + \ell_{1,2} =$ $= \Delta h_{1,2}$

5.1- jadvalning davomi

1	2	3	4	5
Izoxorik $v = const,$ $dv = 0$	$n = \pm\infty$		$\ell_{1,2} = 0,$ $w_{1,2} = v(p_1 - p_2),$ $\tau_{1,2} = \left(\frac{P_2}{P_1}\right)^{\frac{n-1}{n}} = \frac{T_2}{T_1}$	$q_{1,2} = \Delta u_{1,2} =$ $= \Delta h_{1,2} + w_{1,2}$
Izotermik $Pv = const,$	$n = 1$		$\ell_{1,2} = w_{1,2} =$ $= pv\,ln\frac{v_2}{v_1} = pv\,ln\frac{P_1}{P_2},$ $\tau_{1,2} = 1$	$q_{1,2} = \Delta u_{1,2} + \ell_{1,2} =$ $= \Delta h_{1,2} + w_{1,2},$
Adiabatik $\delta q = 0,$ $pv^k = const$	$n = k = n_s =$ $= -\left(\frac{vdp}{pdv}\right)_s = \left(\frac{\partial h}{\partial u}\right)_s$		$\ell_{1,2} = \frac{p_1 v_1}{\kappa - 1}\left(1 - \tau_{1,2}\right),$ $w_{1,2} = k\frac{p_1 v_1}{\kappa - 1}\left(1 - \tau_{1,2}\right),$ $\tau_{1,2} = \frac{P_2 v_2}{P_1 v_1} = \left(\frac{P_2}{P_1}\right)^{\frac{\kappa-1}{\kappa}} =$ $= \left(\frac{v_1}{v_2}\right)^{\kappa-1} = \frac{T_2}{T_1}$	$q_{1,2} = 0$

Izotermik jarayon – tizim holatining o‘zgarishida *(P=rv=const; d(rv)=0)* funksiya o‘zgarmas qiymatni saqlab qoladigan termodinamik jarayon.



a) b)

5.4-rasm. Izotermik jarayonda ishchi jismning boshlang‘ich (a) va oxirgi holati

Ideal gaz uchun, *pv=RT=const* bo‘lganligi sababli, u *izotermik jarayon* ham bo‘lib hisoblanadi.



a) b)

5.5-rasm. Izotermik jarayonning *p-v* (a) va *T-s* (b) diagrammalarda ko‘rinishi

Izopotensial jarayonda ($p_1v_1=p_6 \cdot v_6=pv$) solishtirma termodinamik va potensial ishlar:

$$l_{1,6} = \int_1^6 p\,dv = \int_1^6 pv\frac{dv}{v} = pvl_n\frac{v_6}{v_1}, \qquad (5.7)$$

$$w_{1,6} = -\int_1^6 v\,dp = -\int_1^6 vp\frac{dp}{p} = pv\int_6^1 \frac{dp}{p} = pv\ln\frac{p_1}{p_6}. \qquad (5.8)$$

($pv=const$) potensial funksiyaning doimiyligi, $\frac{p_1}{p_6} = \frac{v_6}{v_1}$ shartga amal qilinishi

sababli (5.7) va (5.8) ifodalarda logarifmlarning tengligiga olib kelishini ko‘rish qiyin emas. SHu sababli, izopotensial jarayonda termodinamik va potensial ishlarning sonli qiymatlari o‘zaro teng bo‘ladi.

Izopotensial jarayonda ishchi jismga olib kelinadigan (undan olib ketiladigan) issiqlik miqdori ishchi jismning balansi bo‘yicha termodinamikaning birinchi asosining ifodasidan aniqlanadi

$$q_{1,2} = \Delta u + l_{1,2} = \Delta h + w_{1,2} \qquad (5.9)$$

Eng oddiy termodinamik jarayonlar o‘zida politrop jarayonlarning xususiy holatlarini taqdim qiladi.

5.3. Politrop jarayonlar

“Politrop” atamasi o‘zida ikkita yunoncha so‘z: «poli» - ko‘p va «tropos» – yo‘l, yo‘nalish so‘zlarining birikuvini taqdim qiladi. SHu sababli politrop jarayonda tizimning holat parametrlarining turlicha o‘zgarishlari ko‘zda tutiladi.

Doimiy ko‘rsatkichli politrop jarayon deb oddiy jismning holatining o‘zgarishining quyidagi tenglamaga bo‘ysunadigan qaytar termodinamik jarayoniga aytiladi:

$$pv^n = const = C,\ p^{1/n}v = const = C_1, \qquad (5.10)$$

yoki

$$p_1v_1^n = p_2v_2^n, \qquad (5.10a)$$

bu yerda p – politrop ko‘rsatkichi, ko‘rib chiqilayotgan jarayonda doimiy kattalik bo‘lib hisoblanadi, biroq har qanday musbat va manfiy qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin: ($-\infty \le n \le +\infty$).

p politrop ko‘rsatkichining fizikaviy ma’nosi (5.10) ifodani differensiallashdan keyin ma’lum bo‘ladi:

$$v^n dp + nv^{n-1} p dv = 0, \qquad (5.11)$$

$$npdv = -vdp. \tag{5.11a}$$

bundan bevosita quyidagi kelib chiqadi:

$$n = -\frac{vdp}{pdv} = \frac{\delta w}{\delta \ell} = \frac{w_{1,2}}{\ell_{1,2}}, \tag{5.12}$$

bu doimiy politrop ko‘rsatkichi son jihatidan potensial ish va termodinamik ishning elementar yoki oxirgi qiymatlarining nisbatiga teng bo‘lishini anglatadi, bu qiymatlar «bosim – solishtirma hajm» koordinatalarida mos keluvchi maydonlarning kattaliklari bilan o‘lchanadi (5.6,a-rasm).

Logarifmik koordinatalarda (logarifmning asosi har qanday bo‘lishi mumkin) doimiy ko‘rsatkichli politrop o‘zida to‘g‘ri chiziqni taqdim qiladi, bunda politrop ko‘rsatkichi bu to‘g‘ri chiziqning egilish burchagining tangensiga teng bo‘ladi (5.6,b rasm):

$$log\,p + n\,log\,v = const = log\,C, \tag{5.13}$$

$$log\,p = log\,C - n\,log\,v. \tag{5.13a}$$

Oxirgi ifoda ($V = A - p \cdot X$) to‘g‘ri chiziq tenglamasiga teng, biroq faqatgina *log v- logp* logarifmik koordinatalar to‘rida teng bo‘ladi.

Shu asosda shunday deb tasdiqlash mumkinki, doimiy ko‘rsatkichli politrop logarifmik koordinatalar to‘rida (5.2,b-rasm) to‘g‘ri chiziq bilan tasvirlanadi.

SHundan kelib chiqqan holda, politropning doimiy ko‘rsatkichi jarayonning chizig‘ining egilish burchagining tangensi sifatida aniqlanadi (5.6,b-rasm).

$$n = \frac{log\,p_1 - log\,p_2}{log\,v_2 - log\,v_1} = \frac{log(p_1/p_2)}{log(v_2/v_1)} \tag{5.14}$$

(5.14) tenglama jarayonning ko‘rsatkichining sonli qiymatini va jarayonning turini aniqlash imkonini beradi. (5.12) tenglamadan bevosita tarzda shu kelib chiqadiki, izobarik jarayon uchun $n = 0$ bo‘ladi; izoxorik jarayon uchun $n = \pm\infty$ bo‘ladi; izopotensial jarayon uchun $n = 1$ bo‘ladi (5.3-rasm).

Shuni qayd qilish lozimki, hamma termodinamik jarayonlar ham *logv – logp* koordinatalarda to‘g‘ri chiziq bilan tasvirlanavermaydi, ya’ni doimiy ko‘rsatkichli politrop tenglamasiga bo‘ysunmaydi. Biroq

har qanday termodinamik jarayonni o‘zgaruvchan ko‘rsatkichli politrop tenglamasi bilan tasvirlash mumkin.



a) b)

5.6- rasm. Doimiy ko‘rsatkichli politropni P-v diagramma va logarifmik koordinatalarda ko‘rinishi

5.7-rasmda keltirilgan *o‘zgaruvchan ko‘rsatkichli politrop* jarayonning uchta ko‘rsatkichini – (*p*) jarayonning haqiqiy ko‘rsatkichi, $(\bar{n})$ birinchi o‘rtacha ko‘rsatkich va (*m*) ikkinchi o‘rtacha ko‘rsatkichni ko‘rib chiqishga kiritish imkonini beradi. Jarayonning haqiqiy ko‘rsatkichi (*n)* elementar potensial ishning (□*w*) elementar termodinamik ishga (□*ℓ*) nisbati sifatida aniqlanadi, bu logarifmik koordinatalar to‘rida urinma chiziqning egilish burchagining tangensiga mos keladi.



5.7-rasm. Oddiy jismning holatining o‘zgarishining politrop jarayonlari



5.8-rasm. O‘zgaruvchan ko‘rsatkichli politrop.

$$n = \frac{\delta w}{\delta \ell} = -\frac{vdP}{Pdv} = \frac{d\log P}{d\log v} = tg\alpha . \qquad (5.15)$$

Qandaydir bir funksiya yoki (*z* = *p, v, T, u, h, s,*) holat parametrining oʻzgarmas qiymati bilan tavsiflanadigan konkret jarayonlar uchun politropning haqiqiy koʻrsatkichi quyidagi nisbat bilan aniqlanadi

$$n_z = -\frac{v}{P}\left(\frac{\partial P}{\partial v}\right)_z ; \qquad (5.15a)$$

Politropning oʻrtacha koʻrsatkichlaridan ($\bar{n}$, m) termodinamik jarayonning parametrlarining oxirgi koʻrsatkichlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Politropning birinchi oʻrtacha koʻrsatkichi jarayondagi potensial va termodinamik ishlarning oxirgi (integral) qiymatlarining nisbati sifatida aniqlanadi

$$\bar{n} = \frac{w_{1,2}}{\ell_{1,2}} . \qquad (5.16)$$

Politropning ikkinchi oʻrtacha koʻrsatkichi son jihatidan logarifmik koordinatalar toʻrida 1-2 kesuvchi chiziqning egilish burchagining tangensiga teng (5.8- rasm).

$$m = \frac{\log p_1 - \log p_2}{\log v_2 - \log v_1} = \frac{\log(p_1 / p_2)}{\log(v_2 / v_1)} . \qquad (5.17)$$

Oxirgi ifodadan bevosita tarzda oʻzgaruvchan koʻrsatkichli politrop tenglamasi kelib chiqadi

$$\frac{p_2}{p_1}\left(\frac{v_2}{v_1}\right)^m = \left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{1}{m}} \frac{v_2}{v_1} = 1 \quad , \qquad (5.18)$$

$$p_1 v_1^m = p_2 v_2^m . \qquad (5.18a)$$

Oʻzgaruvchan koʻrsatkichli politrop tenglamasi bilan har qanday termodinamik jarayonni tasvirlash mumkin deya tasdiqlash shu sababli ham adolatli boʻladiki, jarayonning oʻzining oʻzgaruvchan parametr-laridan tashqari, jarayonning oʻzining koʻrsatkichi ham oʻzgaruvchan boʻlib hisoblanadi (1 boshlangʻich nuqtaning koordinatalarining qiymatlari doimiy, jarayonning 2 nuqtasining koordinatalari oʻzgaruvchan boʻladi).

SHuni qayd qilish lozimki, muhandislik hisoblashlarini bajarishda jarayonning barcha keltirilgan koʻrsatkichlarining qiymatlari son jihatidan oʻzaro teng deb qabul qilinadi: ($n = m = \bar{n}$).

5.4. Oddiy jismlarning politrop jarayonlarida ish

Politrop jarayonlarda termodinamik va potensial ishlarning oxirgi (integral) kattaliklarining ifodalarini ularning elementar qiymatlarini taqqoslash bilan olish mumkin:

$$\delta l = pdv, \ldots \delta w = -vdp, \tag{5.19}$$

$$\delta l - \delta w = pdv + vdp = d(pv). \tag{5.20}$$

(5.15) politrop ko‘rsatkichini aniqlashni hisobga olish bilan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\delta l - \delta w = (1-n)\delta l = d(pv), \tag{5.21}$$

$$\delta l = \frac{1}{1-n} d(pv). \tag{5.22}$$

Jarayon doimiy ko‘rsatkichli politrop tenglamasiga ($n=const$) bo‘ysunishini hisobga olgan holda oxirgi ifodani integrallash bilan termodinamik ish uchun integral tenglamani aniqlash uchun quyidagi tenglamani olamiz:

$$l_{1,2} = \int_1^2 \frac{1}{1-n} d(pv) = \frac{1}{1-n}\int_1^2 d(pv) = \frac{1}{1-n}(p_2v_2 - p_1v_1). \tag{5.23}$$

Kengayish yoki siqilish jarayonining tavsifi tushunchasini kiritamiz, u quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$\tau_{1,2} = \frac{p_2v_2}{p_1v_1}. \tag{5.24}$$

(5.24) nisbatni hisobga olish bilan termodinamik va potensial ishni aniqlash tenglamalari quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi:

$$l_{1,2} = \frac{p_1v_1}{n-1}(1-\tau_{1,2}), \tag{5.25}$$

$$w_{1,2} = nl_{1,2} = \frac{n}{n-1} p_1v_1(1-\tau_{1,2}). \tag{5.26}$$

$\tau_{1,2}$ kengayish yoki siqilishning tavsifini aniqlash uchun turli tenglamalar (5.18) tenglamani hisobga olish bilan chiqariladi:

$$\frac{p_2}{p_1}\left(\frac{v_2}{v_1}\right)^n = \frac{p_2v_2}{p_1v_1}\left(\frac{v_2}{v_1}\right)^{n-1} = \tau_{1,2}\left(\frac{v_2}{v_1}\right)^{n-1} = 1, \tag{5.27}$$

yoki

$$\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{1}{n}}\frac{v_2}{v_1}=\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{1}{n}-1}\frac{p_2v_2}{p_1v_1}=\left(\frac{p_1}{p_2}\right)^{\frac{n-1}{n}}\tau_{1,2}=1. \qquad (5.27a)$$

Shundan kelib chiqqan holda, kengayishning (siqilishning) tavsifini aniqlash uchun hisobiy ifodani yozish mumkin:

$$\tau_{1,2}=\frac{p_2v_2}{p_1v_1}=\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{n-1}{n}}=\left(\frac{v_1}{v_2}\right)^{n-1}. \qquad (5.28)$$

5.5. Oddiy jismlardagi termodinamik jarayonlarda issiqlik almashinishi

Oddiy jismlarning holatining o‘zgarishining har qanday termodinamik jarayonida issiqlik almashinishini jarayonning termodinamik yoki potensial ishining kattaligiga bog‘liq ravishda ifodalash mumkin. Bunda termodinamik jarayonga umumiy holatda o‘zgaruvchan ko‘rsatkichli politrop sifatida qaraladi.

Oddiy jismlar uchun issiqlik almashinishining hisobiy ifodasi termodinamikaning birinchi asosining ifodasini ko‘rib chiqish asosida olinadi

$$\delta q=du+\delta l. \qquad (5.29)$$

Oddiy jismlar uchun solishtirma ichki energiyani har qanday ikkita mustaqil holat parametrlarining funksiyasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin. $u=i\ (p,\ v)$ deb qabul qilamiz. SHunda ichki energiyaning differensiali quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$du=\left(\frac{\partial u}{dv}\right)_P dv+\left(\frac{\partial u}{dp}\right)_v dp. \qquad (5.30)$$

Oxirgi ifodani quyidagi ko‘rinishda taqdim qilish mumkin:

$$du=\frac{1}{p}\left(\frac{\partial u}{dv}\right)_P pdv+\frac{1}{v}\left(\frac{\partial u}{dP}\right)_v vdp. \qquad (5.31)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$a_v=\frac{1}{p}\left(\frac{\partial u}{dv}\right)_P, \qquad a_p=\frac{1}{v}\left(\frac{\partial u}{dp}\right)_v \qquad (5.32)$$

Bunda (5.30) ifoda quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$du=a_v\delta l-a_p\delta w=a_v\delta l-a_pn\delta l=\left(a_v-na_p\right)\delta l. \qquad (5.33)$$

(5.29), (5.31) va (5.33) nisbatlarni taqqoslash bilan quyidagini olamiz

$$\delta q = (a_v - na_p + 1)\delta l. \qquad (5.34)$$

(a_v va a_p) kattaliklarni aniqlash uchun ikkita termodinamik jarayonni ko‘rib chiqamiz:

1. Izoenergetik jarayon*:* *u=const, du=0*. Bu jarayon uchun politrop ko‘rsatkichi $n = n_u$ qiymatni qabul qiladi.



5.9-расм. Идеал газнинг ҳолатининг ўзгариш жараёнлари:

$q_{1,2} > 0$ |||| $q_{1,2} < 0$

$\Delta u_{1,2} > 0$ |||| $\Delta u_{1,2} < 0$

Izoenergetik jarayonda $\delta\ell \neq 0$ ekanligi sababli (5.33) tenglamadan quyidagi kelib chiqadi

$$a_v - n_u a_p = 0, \qquad (5.35)$$

$$a_v = n_u a_p. \qquad (5.35a)$$

2. Adiabatik jarayon: $\delta\, q = 0$. Bu jarayonda politrop ko‘rsatkichi $n=k$ qiymatni qabul qiladi, u adiabata ko‘rsatkichi deb ataladi.



a) b)

5.10-rasm. Adiabatik jarayonda ishchi jismning boshlang‘ich (a) va oxirgi holati

Adiabatik jarayonda elementar termodinamik ish ham nolga teng bo‘lmaydi, shu sababli (5.34) ifodadan quyidagiga ega bo‘lamiz

$$a_v - ka_p + 1 = 0. \tag{5.36}$$

Oxirgi ikkita (5.35) va (5.36) nisbatlarni taqqoslaymiz

$$a_p = \frac{1}{k - n_u} \quad \text{va} \quad a_v = \frac{n_u}{k - n_u}. \tag{5.37}$$

a_V va a_P ning topilgan qiymatlarini hisobga olish bilan ichki energiya va issiqlik almashinishining elementar qiymatlari uchun ifodalarni topamiz:

$$du = \frac{n_u - n}{k - n_u}\delta\ell, \tag{5.38}$$

$$\delta q = \frac{k - n}{k - n_u}\delta\ell. \tag{5.39}$$

Integral ko‘rinishda oxirgi ikkita tenglama quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi:

$$\Delta u = \frac{n_u - n}{k - n_u}\ell_{1,2}, \tag{5.40}$$

$$q_{1,2} = \frac{k - n}{k - n_u}\ell_{1,2}. \tag{5.41}$$

Keltirilgan nisbatlar *p-v* koordinatalarda issiqlikning olib kelinish va olib ketilish sohalarini qurish imkonini beradi (5.9-rasm).

5.6. Ideal gazning holatining o‘zgarish jarayonlari

Ideal gazlarning holatining o‘zgarish jarayonlarini o‘rganishda (5.30) – (5.40) umumiy nisbatlarga $p\ v\ =\ R\ T$ Klapeyron holat tenglamasi va $u=u(T)$ Joul tenglamasi qo‘shiladi. Mazkur qonunlar va entalpiyani aniqlashga muvofiq ideal gaz uchun quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$T = const \text{ bo‘lganda } pv = const \qquad (5.42)$$

$$h = u + pv = u + RT = h(T); \qquad (5.43)$$

$$du = c_v dT; \qquad (5.44)$$

$$dh = c_p dT. \qquad (5.45)$$

(5.42)÷(5.45) tenglamalardan shu kelib chiqadiki, ideal gaz uchun izopotensial ($pv=const$), izotermik ($T=const$), izoenergetik ($u=const$) va izoentalыpik ($h = const$) jarayonlar teng bo‘ladi va shundan kelib chiqqan holda, bu jarayonlarning

$$n_{pv} = n_T = n_u = n_h = 1, \qquad (5.46)$$

ko‘rsatkichlari ham teng bo‘ladi.

Ideal gaz uchun Klapeyron qonunini hisobga olish bilan kengayish yoki siqilish jarayonlarining tavsifi

$$\tau_{1,2} = \frac{p_2 v_2}{p_1 v_1} = \frac{T_2}{T_1}. \qquad (5.47)$$

Jarayonda ideal gaz uchun ichki energiya va entalpiyaning Joul qonuniga muvofiq o‘zgarishi:

$$\Delta u = c_{vm}(T_2 - T_1), \qquad (5.48)$$

$$\Delta h = c_{pm}(T_2 - T_1). \qquad (5.48a)$$

Ideal gaz uchun adiabatik jarayonning ko‘rsatkichi o‘zgarmas bosim va doimiy hajmda mos keluvchi issiqlik sig‘imlarining nisbati sifatida aniqlanadi

$$k = n_s = \left(\frac{\delta w}{\delta \ell}\right)_{\delta q=0} = \left(\frac{\partial h}{\partial u}\right)_{\delta q=0} = \frac{c_p}{c_v} = \frac{\bar{c}_p}{\bar{c}_v} \qquad (5.49)$$

Mayer qonuni asosida ($\bar{c}_p - \bar{c}_v = \bar{R}$) ideal gaz uchun adiabata ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblanadi

$$k = \frac{\bar{c}_p}{\bar{c}_v} = \frac{\bar{c}_v + \bar{R}}{\bar{c}_v} = 1 + \frac{\bar{R}}{\bar{c}_v} > 1 . \qquad (5.50)$$

Ideal gaz misolida termodinamik jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiramiz (5.5-rasm).

Ideal gaz uchun $n_u = 1$ bo‘ladi va bundan quyidagini yozish mumkin

$$\delta q = \frac{k - n}{r - 1}\delta l . \qquad (5.51)$$

Adiabata ($\delta q = 0$) (5.9-rasm) issiqlik almashinishining belgisining almashish chizig‘i bo‘lib hisoblanadi.

Gaz kengayganda termodinamik ish $\delta l > 0$ bo‘ladi va shunda adibatadan o‘ngroqda joylashgan ($n < k$) har qanday politrop issiqlikning olib kelinish sohasida joylashadi ($\delta q > 0$).

Agar kengayishning politropi adiabatadan chapda joylashsa ($n > k$), u holda bu jarayon issiqlikning olib ketilishi bilan tavsiflanadi ($\delta q < 0$).

SHunday qilib, adiabatadan yuqorida kechadigan barcha termodinamik jarayonlar issiqlik olib kelinishi yoki olib ketilishi bilan amalga oshadi.

Masalalar

29. Boshlang‘ich parametrlari 0,3 MPa, 15^0S va 0,8 m^3 bo‘lgan havoning bosimini doimiy hajmda to 0,1 MPa gacha kamaytirish uchun qanaqa haroratgacha sovitish kerak? Buning uchun qancha issiqlikni olib ketish kerak?

Havoning issiqlik sig‘imini doimiy deb hisoblang.

Javob: t_2 = - 177^0C; Q = - 329 kJ

Echish:

1. Holatning tenglamasidan havoning massasini topamiz:

$$M = \frac{P_1 V_1}{RT_1} = \frac{0{,}3 \cdot 10^6 \cdot 0{,}8}{287 \cdot 288} = 2{,}9 \text{ kg.}$$

2. Oxirgi harorat

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad T_2 = \frac{P_2 T_2}{P_1} = \frac{0{,}1 - 288}{0{,}3} = 96K; \quad t_2 = -177^0C$$

3. Olib ketilishi kerak bo‘lgan issiqlik

$Q = MC_{vm}(t_2 - t_1)$ bu yerda

$$S_{vm} = \frac{\mu C_v}{\mu} = \frac{20{,}93}{28{,}95} = 0{,}722$$

$Q_v = 2{,}9 \cdot 0{,}722 \cdot 10^3(-177+15) = -329\ kJ$

30. YOpiq idishda harorati $t_1 = 10^0C$ va siyraklanishi P_1=20 mm sim.ust. bo‘lgan gaz joylashgan. Barometr 75 kPa ni ko‘rsatyapti. Gaz sovitilgandan keyin siyraklanish 150 mm sim.ust. ga teng bo‘lib qoldi. Gazning oxirgi haroratini toping.

Javob: $t_2 = -40,4^0C$.

31. Diametri 0,4 m silindrda, bosimi 0,29 MPa va harorati 15^0C bo‘lgan 80 l havo joylashgan. Havoning issiqlik sig‘imini doimiy deb hisoblangan holda, agar havoga 83,7 kJ issiqlik keltirilayotgan bo‘lsa, porshen joyiga siljimasdan qolishi uchun unga ta’sir qilayotgan kuchini qanchaga oshishini aniqlang.

Javob: P_2= 0,66 MPa; G=$85,5 \cdot 10^3 H$

32. Qozon qurilmasining tutun gazlari havo qizitgich orqali o‘tib ketyapti. Gazlarning boshlang‘ich harorati $t_{G1}=300^0S$, oxirgisi $t_{G2}=160^0C$, gazning sarfi 1000 kg/soat ga teng. Havoning boshlang‘ich harorati $t_{x1}=15^0C$ va sarfi 910 kg/soat.

Agar havo qizitgichning yo‘qotishi 4 % bo‘lsa, qizigan havoning haroratini toping. Qozondan chiqib ketayotgan tutun gazlarining va havoning o‘rtacha issiqlik sig‘imlarini (c_{rm}) tegishli ravishda 1,0467 va 1,0048 kJ/kgK larga teng deb qabul qiling.

Javob: $t_{x2}=168,9^0S$.

Nazorat savollari

1. Termodinamik jarayonlarida gaz holatini o‘zgarishi haqida nimalarni bilasiz?
2. «Termodinamik jarayonlarida gaz holatini o‘zgarish jarayonlarini tahlil qilish" tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
3. Termodinamik jarayonlarida gaz holatining o‘zgarishini P-V, T-s diagrammalardagi ko‘rinishlarini tushuntiring.
4. Jarayonlarda ish va issiqlik ifodalari qanday yoziladi?

6. Aylanma jarayonlar (sikllar)

6.1. Issiqlik mashinalari

Termodinamikada *issiqlik mashinalari* deb issiqlik dvigatellari va sovutish mashinalariga aytiladi.

Issiqlik mashinalarining *aylanma jarayonlari* yoki *sikllari* deb tizimning (ishchi jismlarning) boshlang‘ich holatga qaytishi bilan tavsiflanadigan yopiq jarayonlarga aytiladi. Davriy ravishda takrorlanadigan aylanma jarayonlar issiqlik mashinalarida amalga oshadi.

To‘g‘ri (issiqlik dvigatellarining sikllari) va teskari (sovutish mashinalarining sikllari) aylanma jarayonlar farqlanadi (6.1-rasm).



a) b)

6.1-rasm. Issiqlik mashinalarining to‘g‘ri (*a*) va teskari (*b*) sikllari.

Aylanma jarayon natijasida tizim (ishchi jism) boshlang‘ich holatga qaytishi sababli, ya’ni barcha holat parametrlari boshlang‘ich holatga qaytishi sababli, tizimning har qanday holat funksiyasining integral o‘zgarishi nolga teng bo‘ladi

$$\oint dz = 0, \qquad (6.1)$$

bu yerda $z = P; \ V(v); \ T; \ U(i); \ H(h)$ va hokazolar.

Ularning natijasida foydali ish olinadigan aylanma jarayonlar issiqlik dvigatellarida amalga oshadi. Bunday sikllar to‘g‘ri sikllar deb

ataladi va p- V holat diagrammasida soat strelkasi bo‘yicha yo‘naladi (6.1,a-rasm).

Ularning natijasida ishchi jismlarning atrof muhitning haroratidan past haroratgacha sovushi sodir bo‘ladigan aylanma jarayonlar sovutish mashinalarida amalga oshadi. Bunday sikllar teskari sikllar deb ataladi va soat strelkasiga teskari yo‘naladi (6.1,b-rasm).

Sikl uchun tashqi balans bo‘yicha termodinamikaning birinchi asosining ifodasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\oint \delta Q^* = \oint dU + \oint \delta L^* . \qquad (6.2)$$

SHu munosabat bilan $\oint dU = 0$ sikl uchun quyidagini olamiz:

$$\oint \delta Q^* = \oint \delta L^* \qquad (6.2a)$$

bu - siklning ishi tashqi muhit bilan issiqlik almashinish hisobiga amalga oshishini anglatadi. Real dvigatellarning aylanma jarayoni alohida oxirgi elementlar – ishchi jismning qizishi, kengayishi, siqilishi va undan issiqlikning olib ketilishidan tashkil topadi. Har qanday siklda jarayonlar issiqlik olib kelinishi bilan ham, olib ketilishi bilan ham sodir bo‘ladi. Agar siklning grafigiga *1-2* va *3-4* urinma adiabatalar qo‘shilsa (6.1-rasm), u holda, 5.9-rasmga muvofiq, adiabatadan o‘ngroqda kechadigan jarayonlarda issiqlik ishchi jismga olib kelinadi. 6.1-rasmda issiqlikning olib kelinishi to‘g‘ri *C-A-D* va teskari *D-B-C* sikllarda sodir bo‘ladi. Adiabatadan chaproqda kechadigan jarayonlarga issiqlikning olib ketilishi hamrohlik qiladi. Bu mos ravishda 6.1,a va 6.1,b-rasmlarda *D-B-C* va *C-A-D* jarayonlarga to‘g‘ri keladi.

Siklda issiqlik olib kelinishi va olib ketilishi jarayonlari, ishchi jismning kengayishi va siqilishi amalga oshishini hisobga olish bilan issiqlikning yakuniy o‘zgarishi ($\oint \delta Q^*$) va ishning yakuniy o‘zgarishi ($\oint \delta L^*$) quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\oint \delta Q^* = |Q_1^*| - |Q_2^*| \qquad (6.3)$$

$$\oint \delta L^* = |L_ц^*| = |L_{расш}^*| = |L_{сж}^*| \qquad (6.4)$$

Oxirgi nisbatlardan quyidagi kelib chiqadi:

$$|Q_1^*| - |Q_2^*| = |L_ц^*| , \qquad (6.5)$$

bundan ularda issiqlikning ishga aylanish jarayoni amalga oshadigan issiqlik dvigatellarining sikllari uchun ($L_ц^* > 0$) ishchi jismga

olib kelingan issiqlik miqdori olib ketilgan issiqlik miqdoridan katta bo‘lishi kelib chiqadi: $|Q_1^*| > |Q_2^*|$. Sovutish mashinalarining sikllarida siklning ishi manfiy bo‘ladi ($L_ц^* < 0$) va ishchi jism olganiga qaraganda ko‘proq issiqlikni beradi: $Q_1^*| < |Q_2^*|$.

Real dvigatellarning ishchi jarayonining diagrammasi (6.2, a-rasm) va sovutish mashinalarining ishchi jarayonining diagrammasi (6.2,b-rasm) qaytar sikllardan farq qiladi, bu avvalambor ishchi jism va tashqi issiqlik manbalarining haroratlarida farqlar bo‘lishi bilan bog‘lanadi: issiqlik dvigatelining ishchi jarayonining diagrammasi tashqi manbalarning haroratlarining chegaralarining ichida joylashadi, sovutish mashinasining diagrammasi esa – tashqi manbalarning haroratlarining chegaralaridan tashqarida joylashadi.



a) b)

6.2-rasm. Issiqlik dvigateli (a) va sovutish mashinasining (b) termodinamik chizmalari: qaytar sikl, real sikl.

Qaytar issiqlik mashinalarining (issiqlik dvigatellari va sovutish mashinalari) ishchi jarayonlarining diagrammalari mutlaqo bir xil bo‘ladi, biroq qarama-qarshi yo‘naladi: bunday holda tashqi manbalar va ishchi jismning haroratlari mos tushadi, ichki issiqlik almashinishi esa bo‘lmaydi.

Aylanma jarayonlar barcha issiqlik va sovutish mashinalarining asosi bo‘lib hisoblanadi.

Har qanday real issiqlik dvigatelining samaradorligi foydali ish koeffitsiyenti (FIK) bilan belgilanadi. FIK son jihatidan olingan ishning tashqaridan olib kelingan issiqlik miqdoriga nisbatiga teng bo‘ladi:

$$\eta = \frac{L_{ц}^{*}}{Q_{1}^{*}} . \tag{6.6}$$

(6.5) nisbatni hisobga olish bilan (6.6) foydali ish koeffitsiyentining ifodasi quyidagi ko‘rinishga keltiriladi:

$$\eta = \frac{\left|Q_{1}^{*}\right| - \left|Q_{2}^{*}\right|}{\left|Q_{1}^{*}\right|} = 1 - \frac{\left|Q_{2}^{*}\right|}{\left|Q_{1}^{*}\right|} . \tag{6.6a}$$

Issiqlik dvigatelining qaytar sikli uchun termik FIK quyidagicha aniqlanadi

$$\eta_{qaytar} = \frac{L_{ц.обр}}{Q_{1обр}} . \tag{6.7}$$

Issiqlik dvigatelining termodinamik siklining termik foydali ish koeffitsiyenti:

$$\eta_{t} = \frac{L_{ц}}{Q_{1}} = \frac{\left|Q_{1}\right| - \left|Q_{2}\right|}{\left|Q_{1}\right|} = 1 - \frac{\left|Q_{2}\right|}{\left|Q_{1}\right|} . \tag{6.8}$$

Termik FIK u yoki bu siklning mukammallik darajasini tavsiflaydi: (η_t) kattalik qanchalik katta bo‘lsa, xuddi o‘sha bir xil olib kelingan issiqlik miqdorida shunchalik ko‘p ish bajariladi.

Sovutish mashinalarining sikllarining samaradorligi (χ) sovutish koeffitsiyenti bilan baholanadi. Sovutish koeffitsiyenti son jihatidan sovuq manbadan olib ketilgan issiqlik miqdorining sarflangan ishga nisbatiga teng bo‘ladi.

Real sovutish mashinasi uchun sovutish koeffitsiyenti quyidagi nisbat bilan baholanadi

$$\chi = \frac{\left|Q_{2}^{*}\right|}{\left|L_{ц}^{*}\right|} . \tag{6.9}$$

Sovutish mashinasining qaytar sikli uchun – quyidagi nisbat bilan baholanadi

$$\chi_{qay} = \frac{\left|Q_{2обр}\right|}{\left|L_{ц.обр}\right|} . \tag{6.10}$$

Sovutish mashinasining real sikli uchun – quyidagi nisbat bilan baholanadi

$$\chi_t = \frac{|Q_2|}{|L_ц|}. \qquad (6.11)$$

Ideal issiqlik dvigateli va sovutish mashinasi siklning ishining, olib kelingan va olib ketilgan issiqlikning mutlaq qiymatlarining tengligiga amal qilish bilan mexanik tarzda tutashtirilganda siklning qaytarligining matematik shartini olish mumkin

$$\chi_{обр} = \frac{|Q_{2обр}|}{|L_{ц.обр}|} = \frac{|Q_{1обр}| - |L_{ц.обр}|}{|L_{ц.обр}|} = \frac{|Q_{1обр}|}{|L_{ц.обр}|} - 1 = \frac{1}{\eta_{обр}} - 1 \qquad (6.12)$$

yoki

$$\eta_{обр} = (\chi_{обр} + 1) = 1. \qquad (6.12a)$$

Issiqlik mashinalari nazariyasining asosini Karno qaytar sikli tashkil qiladi.

6.2. Karno sikli

Fransuz muhandisi Sadi Karno 1824 yilda issiqlik mashinasining ikkita adiabata va ikkita izotermadan tashkil topgan, ikkita T_1 va T_2 doimiy haroratli tashqi manbalar o‘rtasida ideal gaz bilan amalga oshadigan qaytar siklini taklif qilgan.

Issiqlik dvigateli uchun Karno sikli 6.3-rasmda tasvirlangan.

Issiq manbadan issiqlikni olib kelish *A-V* izotermada T_1 haroratda amalga oshiriladi, bunda ishchi jism – ideal gaz kengayadi va foydali ish olinadi (6.3,a-rasm). Keyinchalik *V-S* adiabata bo‘yicha T_2 haroratgacha kengayishda ham foydali ish olinadi. Keyingi jarayonlar – sovuq manbaga issiqlikni olib ketish bilan T_2 izoterma bo‘yicha *C-D* siqish va (T_1) boshlang‘ich haroratgacha *D-A* adiabatik siqishni amalga oshirish uchun ham ma’lum bir ish sarflanadi.

Siklda ideal gazdan foydalanilishi sababli – uning uchun ilgari entropiyaning mavjud bo‘lishi tamoyili aniqlangan edi – bu siklni “*T-S*” koordinatalarda ham tasvirlash mumkin (6.3,b-rasm).

Karno siklida Q_1 olib kelinadigan va Q_2 olib ketiladigan issiqlik miqdori:

$$\delta Q = TdS. \qquad (6.13)$$



a) b)

6.3-rasm. Issiqlik dvigateli uchun Karno siklining P-v (a) va T-s (b) diagrammalarda ko‘rinishi

Grafik jihatdan Karno sikli "*T-S*" koordinatalarda o‘zida to‘g‘ri to‘rtburchakni taqdim qiladi, chunki bu yerda izotermalar va adiabatalar to‘g‘ri chiziqlar bilan tasvirlanadi.

Qaytar siklda olib kelingan va olib ketilgan issiqlikning integral miqdori quyidagi nisbatlar bilan aniqlanadi:

$$|Q_1| = \int_A^B T_1 \cdot dS \; = \; T_1 \int_A^B dS \; = T_1(S_b - S_a), \tag{6.14}$$

$$|Q_1| = \int_D^C T_2 \cdot dS \; = \; T_2 \int_D^C dS \; = \; T_2(S_C - S_D). \tag{6.15}$$

Sikl yopilishi uchun siklda entropiyaning yakuniy o‘zgarishi (holatning funksiyasi sifatida) nolga teng bo‘lishi zarur

$$\oint dS = 0\,. \tag{6.16}$$

SHundan kelib chiqqan holda

$$S_B - S_A = S_C - S_D = S_2 - S_1 = \Delta S\,. \tag{6.17}$$

Olib kelingan va olib ketilgan issiqlik miqdori quyidagi nisbatlar bilan aniqlanadi:

$$|Q_1| = T_1 \Delta S\,, \tag{6.18}$$

$$|Q_2| = T_2 \Delta S\,, \tag{6.19}$$

Siklning ishi

$$\left|L_ц\right| = \left|Q_1\right| - \left|Q_2\right| = (T_1 - T_2)\Delta S\,. \qquad (6.20)$$

(6.8) ifodani siklning FIK ni aniqlashga muvofiq va olib kelingan issiqlik va olingan ishning musbat belgilarini hisobga olish bilan Karno siklining foydali ish koeffitsiyentining ifodasini quyidagi ko‘rinishda taqdim qilish mumkin

$$\eta_t^K = \frac{L_ц}{Q_1} = \frac{(T_1 - T_2)\Delta S}{T_1 \Delta S} = 1 - \frac{T_2}{T_1}\,. \qquad (6.21)$$

Shundan kelib chiqqan holda, sovutish mashinasi uchun Karno teskari siklining sovutish koeffitsiyenti quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$\chi_t^K = \frac{T_2}{T_1 - T_2}\,. \qquad (1.22)$$

Olingan (6.21) va (6.22) nisbatlar shundan guvohlik beradiki, Karno qaytar siklining FIK va sovutish koeffitsiyenti faqatgina T_1 issiq va T_2 sovuq issiqlik manbalarining mutlaq haroratlarining nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. (6.21) nisbatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, issiq va sovuq manbalarning haroratlarining farqi ortishi bilan Karno siklining foydali ish koeffitsiyenti ortadi. Umuman olganda FIK ikkita holatda - $T_1 \to \propto$ va $T_2 \to 0$ da birga qarab intiladi. Har ikkala variantni ham amalga oshirib bo‘lmaydi, shu sababli dvigatellarda mumkin qadar katta haroratlar farqiga ega bo‘lish zarur bo‘ladi.

Karno sikli issiqlik texnikasi uchun katta ahamiyatga ega. U T_1 va T_2 haroratlar o‘rtasida ishlaydigan issiqlik dvigatelining termodinamik FIK ning eng yuqori mumkin bo‘lgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Bunda u go‘yo real mavjud dvigatellarning FIK ni taqqoslash mumkin bo‘lgan etalon bo‘lib hisoblanadi va amaliyotda real dvigatellarning foydali ish koeffitsiyentini shu qiymatga yaqinlashtirishga harakat qilinadi.

Masalalar

32. Yopiq idishda vakuum bosim p = 6667 Pa va t_1 = 70 ^{0}C haroratli gaz mavjud. Barometr ko'rsatkichlari - 101325 Pa.

Vakuum bosimni p_2 = 13332 Pa ga aylanishi uchun gazni qanday haroratgacha sovutish kerak?

33. Sig'imi $V = 0,6\ m^3$ bo'lgan yopiq idishda $p_1 = 0,5$ MPa bosim va $t_1 = 20$ °C haroratda havo bor. Idishning sovishi natijasida undagi havo 105 kJ issiqlik yo'qotadi.

Havoning doimiy issiqlik sig'imini o‘zgarmas deb hisoblab, idishda qanday bosim va qanday harorat o'rnatilishini aniqlang.

34. 2 m^3 havoni doimiy yuqori bosim $p = 0,2$ MPa va $t_1 = 100\ ^0C$ dan $t_2 = 500\ ^0C$ da qizdirish uchun qancha issiqlik sarflanishi kerak. Havo qanday ishni bajaradi? Atmosfera bosimi $p_{bar} = 101325$ Pa.

35. Tsilindrda $P = 0,5$ MPa bosim va $t_1 = 400\ ^0C$ haroratda havo bor. Issiqlik doimiy bosim ostida havodan chiqariladi, jarayon oxirida harorat $t_2 = 0\ ^0C$ ga teng bo‘ladi. Havo joylashgan tsilindrning hajmi 400 litrni tashkil qiladi.

Issiqlik miqdori, ichki energiyaning o'zgarishi va bajarilgan siqilish ishini aniqlang. Issiqlik quvvati 1,3289 kJ/ (m^3K) ga teng.

36. 1 kg havo $t_1 = 30\ ^0C$ haroratda va boshlang'ich bosimi $P_1 = 0,1$ MPa da izotermik ravishda oxirgi bosim $P_2 = 1$ MPa ga siqiladi.

Oxirgi hajmni, sarf qilingan ishni va gazdan chiqarilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

37.1 kg havo $t_1 = 30$ °C va $P_1 = 0,1$ MPa bosimda adiabatik tarzda $P_2 = 1$ MPa oxirgi bosimigacha siqiladi.

Oxirgi hajmni, oxirgi haroratni va sarflangan ishni aniqlang.

38. Gaz dvigatelida gaz va havo aralashmasi adiabatik tarzda siqiladi, shuning uchun siqilish oxirigacha uning harorati gazning o'z-o'zidan yonish haroratidan 200 °C past bo'ladi. Siqilish boshida $P_1 = 0,9$ MPa va $t_1 = 70\ ^0C$ ga teng. Adiabatik ko'rsatkich $k = 1,36$, $R = 314$ J / (kgK), o'z-o'zidan yonish harorati 650 °C.

Siqilish ishining miqdori va siqilish darajasini $\varepsilon = \frac{v_1}{v_2}$ aniqlang.

38. 1 kg havo $P_1 = 0,5$ MPa va $t_1 = 111\ ^0C$ da politropik tarzda $P_2 = 0,1$ MPa bosimgacha kengayadi.

Agar politropa ko‘rsatkichi m=1,2 bo'lsa, havoning oxirgi holatini, ichki energiyaning o'zgarishini, berilgan issiqlik miqdori va qabul qilingan ishni aniqlang.

39. 1,5 kg havo polipropik tarzda $P_1 = 0,09$ MPa va $t_1 = 18\ ^0C$ dan $P_2 = 1$ MPa gacha siqiladi; harorat $t_2 = 125\ ^0C$ gacha ko'tariladi.

Politropik ko‘rsatkichini, oxirgi hajmni, sarflangan ishni va chiqarilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Nazorat savollari

1. Aylanma jarayon to‘g‘risida tushuncha bering.
2. To‘g‘ri va teskari jarayonlar to‘g‘risida tushuncha bering.
3. Karno siklini qaysi jarayonlardan tashkil etgan?
4. Karno siklining foydali ish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

7. Termodinamikaning ikkinchi asosi

Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, termodinamikaning birinchi asosi o‘zida energiyaning saqlanish va aylanish qonunining matematik ifodalanishini taqdim qiladi. Termodinamikaning birinchi asosi har qanday jarayonning energetik balansini tuzish imkonini beradi, biroq berilgan jarayonning yo‘naltirilganligi bo‘yicha hech qanday ko‘rsatmalarni bermaydi. Jarayonlarning amalga oshishi va kechish yo‘nalishi shartlari termodinamikaning ikkinchi asosi asosida aniqlanadi.

Termodinamikaning birinchi va ikkinchi asosi birgalikda issiqlik mashinalari nazariyasi va umuman texnik termodinamikani qurishda fundament bo‘lib hisoblanadi.

Odatda klassik termodinamikaning ikkinchi asosi jismlar va murakkab tizimlarning entropiya deb ataluvchi qandaydir bir holat funksiyasining mavjud bo‘lishi va o‘sib borishining birlashgan tamoyili sifatida talqin qilinadi (entropiya atamasi R. Klauzius tomonidan taklif qilingan: en – ichkariga, ichiga va trope yoki tropos – qaratilish, yo‘l, umuman olganda - ichkariga qaratilish, energiyani qadrsizlantirish chorasi).

Muvozanatli tizimlarda entropiyaning mavjud bo‘lishi tamoyili uning termodinamik xususiyatlarini (bosim, zichlik va hokazolar) tavsiflaydi, izolyasiyalangan tizimlarning entropiyasining ortib borish tamoyili esa tizimda real jarayonlarning kechishining ko‘proq ehtimolli yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Entropiyaning differensiali to‘liq differensial bo‘lib hisoblanadi (*dS),* u qaytar jarayonlarda tashqaridan olib kelingan issiqlikning $\delta Q^{\bullet}_{обр.}$ elementar miqdorining *T* mutlaq haroratga nisbati sifatida aniqlanadi (qaytar jarayonlarda ichki issiqlik almashinishi bo‘lmaydi, $\delta Q^{\bullet\bullet} = O$).

$$dS = \frac{\delta Q^{\bullet}_{обр.}}{T} \tag{7.1}$$

Entropiyaning ortib borish tamoyili – bu izolyasiyalangan tizimlarda entropiyaning o‘zgarmasdan ortib borishi to‘g‘risida termodinamikaning ikkinchi asosining tasdig‘idir

$$dS_{изол.} > O \tag{7.2}$$

Shuni qayd qilish lozimki, entropiyaning mavjud bo‘lishi va ortib borishi o‘zaro hech qanday umumiylikka ega emas. Entropiyaning ortib borishi tamoyili faqatgina real jarayonlarning kechishining ko‘proq ehtimolli yo‘nalishini tavsiflaydi va shundan kelib chiqqan

holda, entropiyaning mavjud bo‘lishi tamoyiliga qaraganda shubhasiz kamroq umumiylikka ega. SHu asosda prof. N.I. Belokon 1954 yilda bu tamoyillarni alohida-alohida ko‘rib chiqishni va ular uchun matematik ifodalarni turli postulatlar asosida olishni adolatli tarzda taklif qilgan.

Entropiya va mutlaq haroratning har qanday jismlarning holatining termodinamik funksiyalari sifatida mavjud bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosa termodinamikaning ikkinchi asosining (professor N.I. Belokonning aytishicha – termostatikaning ikkinchi asosining) asosiy mazmunini tashkil qiladi.

$\delta Q = \delta Q^{\bullet} + \delta Q^{\bullet\bullet} = TdS$ tenglik ko‘rinishidagi matematik ifodani har qanday jarayonlarga – qaytar va qaytmas jarayonlarga nisbatan qo‘llash mumkin. Bu qonunni chiqarishda postulat sifatida *«harorat jismlar o‘rtasidagi o‘z-o‘zidan issiqlik almashinishining yo‘nalishini belgilaydigan birdan-bir holat funksiyasidir»* deya tasdiqlashdan foydalaniladi.

Entropiyaning mavjud bo‘lish tamoyilining matematik ifodasini jismlar o‘rtasida keltirilgan issiqlik almashinishini tavsiflaydigan elementar issiqlik miqdorining ($\delta Q = \delta Q^{\bullet} + \delta Q^{\bullet\bullet}$) tizimning T mutlaq haroratiga nisbati ko‘rinishida yozamiz

$$dS = \frac{\delta Q}{T} = \frac{\delta Q^{*} + \delta Q^{**}}{T}. \qquad (7.3)$$

1 kg modda uchun

$$ds = \frac{\delta q}{T} = \frac{\delta q^{*} + \delta q^{**}}{T}. \qquad (7.3a)$$

Shuningdek shuni ham qayd qilish lozimki, (7.3) va (7.3a) tenglamalarga kiradigan T mutlaq harorat kattaligi termodinamikaning ikkinchi asosining analitik ifodalanishida katta rol o‘ynaydi. Haqiqatan ham, termodinamikaning ikkinchi asosidan chiqarilgan har qanday termodinamik tenglama T harorat bilan tizimning boshqa parametrlari o‘rtasidagi u yoki bu bog‘lanishni ifodalaydi.

Mutlaq harorat T va entropiya S tushunchalarini bog‘laydigan (7.3) va (7.3a) tenglamalarning borligi T-S entropiya diagrammalarini qurish uchun asosni beradi, ulardan issiqlik almashinishi bilan bog‘lanadigan barcha jarayonlarni tahlil qilishda samarali foydalaniladi.

Entropiya diagrammalari deb ularda koordinata o‘qlaridan biriga S entropiyaning qiymati, boshqasiga – boshqa har qanday holat parametri, masalan, T mutlaq harorat yoki h solishtirma entalpiya

qo‘yiladigan har qanday diagrammalarni hisoblash qabul qilingan. Mos ravishda bu diagrammalar *T- S*; *h – S* diagrammalar deb ataladi.

T–S diagrammaning ahamiyati, masalan, avvalambor jismga beriladigan yoki undan olib ketiladigan issiqlik miqdorini grafik tarzda tasvirlash imkoniyatidan iborat. Termodinamik issiqlik almashinishini tavsiflaydigan issiqlik miqdori *T- S* koordinatalarda jarayonning 1-2 chiziqlari (1 va 2 nuqtalar orqali o‘tkazilgan ordinatalar) bilan *S* o‘q o‘rtasidagi maydon bilan o‘lchanadi (7.1-rasm).

Issiqlik almashinishining belgisi jismning entropiyasining o‘zgarish yo‘nalishi bilan belgilanadi. Agar jarayon entropiyaning ortib borishi tomonga ($dS > O$), ya’ni *T- S* koordinatalarda chapdan o‘ngga qarab borsa, u holda u jismga issiqlikning olib kelinishi ($\delta Q > O$) bilan tavsiflanadi (7.1,a-rasm). Agar jarayon o‘ngdan chapga, ya’ni entropiyaning kamayish tomoniga ($dS < O$) qarab borsa, u holda u jismdan issiqlikning olib ketilishi bilan tavsiflanadi ($\delta Q < O$) (7.1,b-rasm).

$$Q_{1,2} = \int_1^2 T \cdot dS = T_m \int_1^2 dS = T_m (S_2 - S_1) . \tag{7.4}$$



a) b)

7.1-rasm. Termodinamik jarayonlarda issiqlik olib kelinishi (a) va issiqlikning olib ketilishi (b)

Oxirgi ifoda son jihatidan *T-S* koordinatalardagi jarayonning 1-2 egri chizig‘i ostidagi maydonga teng (7.1-rasm).

T–S koordinatalarda issiqlik almashinishining umumiy ifodalari termodinamik ishning $\delta L = pdV$ umumiy ifodalariga o‘xshash, farq faqatgina shundan iboratki, issiqlik bilan ta’sir ko‘rsatishda kuch rolini

T mutlaq harorat, deformatsion koordinata rolini esa – S entropiya o‘ynaydi. SHu asosda T-S koordinatalar har qanday jismlar va jismlar tizimlari uchun issiqlik almashinishining universal koordinatalari bo‘lib hisoblanadi.

T-S diagrammalarda izotermik va adiabatik jarayonlar to‘g‘ri chiziqlar ko‘rinishida tasvirlanadi. Izotermik jarayon S abssissalar o‘qiga parallel tarzda, muvozanatli adiabatik jarayon esa – ordinatalar o‘qiga parallel tarzda boradi, chunki izoentropik jarayon deb ataluvchi bu jarayonda $S = const$ bo‘ladi.

Issiqlik mashinalarining ixtiyoriy sikllarining yopilishi (7.2,a-rasm) va sovutish mashinalarining ixtiyoriy sikllarining yopilishi (7.2,b-rasm) T-S koordinatalarda issiqlikning berilish jarayonida ishchi jismning entropiyasining ΔS_1 ortishi son jihatidan issiqlikning olib ketilish jarayonida entropiyaning ΔS_2 kamayishiga teng degan shart bilan belgilanadi:

$$|\Delta S_1| = |\Delta S_2|. \qquad (7.5)$$

*1A*2 jarayonda issiqlik ishchi jismga olib kelinadi. Olib kelinadigan issiqlik miqdori diagrammada gorizontal shtrixlangan maydonga mos keladi. Vertikal shtrixlangan maydon *2V1* jarayonda ishchi jismdan olib ketilgan issiqlik miqdoriga mos keladi.

Issiqlikning olib kelinish va olib ketilish jarayonlarida ishchi jismning o‘rtacha haroratlarini mos ravishda T_{m1} va T_{m2} bilan belgilaymiz. SHunda (7.4) ifodaga muvofiq issiqlik miqdorini aniqlash uchun ifodalarni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:



a) b)

7.2-rasm. T-S koordinatalarda to‘g‘ri (a) va teskari (b) sikllar.

$$|Q_1| = \int_1^2 T \cdot dS = T_{m1}(S_2 - S_1) = T_{m1}|\Delta S_{1,2}|, \qquad (7.6)$$

$$\left|Q_2\right| = \int_1^2 T \cdot dS = T_{m2}\left(S_2 - S_1\right) = T_{m2}\left|\Delta S_{1,2}\right|. \qquad (7.8)$$

Oxirgi nisbatlarni hisobga olish bilan issiqlik mashinasining har qanday termodinamik siklining foydali ish koeffitsiyenti va sovutish koeffitsiyenti mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_t = 1 - \frac{\left|Q_2\right|}{\left|Q_1\right|} = 1 - \frac{T_{m2} \cdot \left|\Delta S_{1,2}\right|}{T_{m1} \cdot \left|\Delta S_{1,2}\right|} = 1 - \frac{T_{m2}}{T_{m1}}, \qquad (7.9)$$

$$\chi_t = \frac{\left|Q_2\right|}{\left|Q_1\right| - \left|Q_2\right|} = \frac{T_{m2} \cdot \left|\Delta S_{1,2}\right|}{(T_{m1} - T_{m2}) \cdot \left|\Delta S_{1,2}\right|} = \frac{T_{m2}}{T_{m1} - T_{m2}}. \qquad (7.10)$$

Olingan ifodalar shundan guvohlik beradiki, issiqlik mashinalarining foydali ish koeffitsiyenti va sovutish koeffitsiyenti issiqlikni olib kelish va olib ketish jarayonlarida faqatgina ishchi jismning o‘rtacha mutlaq haroratlari bilan belgilanadi.

(7.9) va (7.10) tenglamalardan shuningdek issiqlik mashinalarining har qanday termodinamik sikli uchun quyidagi shart bajarilishi kelib chiqadi

$$\eta_t\left(\chi_t + 1\right) = 1. \qquad (7.11)$$

Agar issiqlikning olib kelinish va olib ketilish jarayonlarida harorat o‘zgarmasdan qolsa, ishchi jismning kengayish va siqilish jarayonlari esa adibatik bo‘lsa, u holda har qanday sikl Karno sikliga aylanadi.

Har qanday termodinamik siklning termik FIK (7.9) va ishchi jismning xuddi o‘sha T_1 va T_2 eng chekka haroratlari o‘rtasida kechadigan Karno siklining FIK ni (6.21) taqqoslashdan quyidagi kelib chiqadi

$$\eta_t^K > \eta_t. \qquad (7.12)$$

Sovutish koeffitsiyentlarini taqqoslashda ham quyidagi analitik xulosaga kelish mumkin:

$$\chi_t^K > \chi_t. \qquad (7.13)$$

Real jarayonlarda entropiyaning o‘zgarishining yo‘nalishini aniqlashning asosiga, ya’ni entropiyaning ortib borishi tamoyilining asosiga real jarayonlarning qaytmasligini aks ettiruvchi turli postulatlar qo‘yiladi. Entropiyaning ortib borishi tamoyilining boshlang‘ich postulati sifatida tabiatni bilishning umuminsoniy tajribasini umumlashtiruvchi *«Issiqlik ko‘proq issiq jismlardan kamroq issiq jismlarga o‘z-o‘zidan o‘tadi»* deb tasdiqlashni qabul qilish mumkin.

Masalan, o‘zaro bevosita issiqlik almashinishi kontaktiga kirishgan 1 va 2 jismlar o‘rtasida to‘g‘ri issiqlik almashinishining bo‘lishi, jismlar o‘rtasida haroratlar farqining bo‘lishi ($T_1 > T_2$), 1 jismdan 2 jismga qandaydir bir issiqlik miqdori (ΔQ) o‘tishini belgilaydi.

Har bir jismning (1,2) va umuman tizimning entropiyasining o‘zgarishi ($|\Delta Q|$ issiqlik almashinishining mutlaq kattaligi):

1 jism, $$\Delta S_1 = -\frac{|\Delta Q|}{T_1}; \quad \text{(a)}$$

2 jism, $$\Delta S_2 = +\frac{|\Delta Q|}{T_2}. \quad \text{(b)}$$

Umuman tizim uchun entropiyaning o‘zgarishi entropiyalar o‘zgarishining algebraik yig‘indisi bilan belgilanadi:

$$\Delta S = \Delta S_1 + \Delta S_2 = \left(\frac{1}{T_2} - \frac{1}{T_1}\right)|\Delta Q| > O. \quad \text{(v)}$$

SHunday qilib, jismlar o‘rtasida kompensatsiyalanmagan to‘g‘ri issiqlik almashinishi natijasida, (v) nisbatdan kelib chiqishicha, jismlar tizimining entropiyasi ortib borishi, jismlar o‘rtasida ko‘rib chiqilayotgan o‘z-o‘zidan issiqlik almashinishi esa faqatgina haroratlar farqi bilan belgilanishi natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, entropiyaning ortishi umumiy xarakterga ega bo‘ladi.

Qaytar jarayonlarda ichki issiqlik almashinishi bo‘lmaydi ($\delta Q^{\bullet\bullet} = O$) va shundan kelib chiqqan holda

$$dS_{обр.} = \frac{\delta Q_{обр.}}{T} = \frac{\delta Q^{\bullet}}{T}. \quad (7.14)$$

Qaytmas jarayonlar uchun, bunda $\delta Q^{\bullet\bullet} > O$ bo‘ladi, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$dS_{необр.} = \frac{\delta Q^{\bullet} + \delta Q^{\bullet\bullet}}{T} > \frac{\delta Q^{\bullet}}{T}. \quad (7.15)$$

Shundan kelib chiqqan holda, umumiy holatda quyidagiga ega bo‘lamiz

$$S_2 - S_1 > \int_1^2 \frac{\delta Q^{\bullet}}{T}. \quad (7.16)$$

Olingan natija termodinamikaning ikkinchi asosining entropiyaning ortib borishi tamoyili sifatidagi ifodasi bo‘lib hisoblanadi.

Izolyasiyalangan tizim uchun

$$\delta Q^{\bullet} = O \quad \text{i} \quad \int_1^2 \frac{\delta Q^{\bullet}}{T} = O, \quad (7.17)$$

bo‘lganda

$$(S_2 - S_1)_{izol.} > O \;;\quad S_2 > S_1 \qquad (7.18)$$

ga ega bo‘lamiz.

Izolyasiyalangan tizimlarda real jarayonlarning kechishida entropiyaning ortib borishi hodisasi go‘yo energiyaning “degradatsiyalanishini” tavsiflaydi.

Termodinamikaning ikkinchi asosidan (entropiyaning ortib borishi tamoyilidan) bir nechta muhim amaliy oqibatlar kelib chiqadi:

1. Issiqlikni to‘liq ishga aylantirishni amalga oshirib bo‘lmaydi, ya’ni birga teng bo‘lgan foydali ish koeffitsiyentiga ega bo‘lgan ikkinchi turdagi abadiy dvigatelni yaratishning iloji yo‘q.

2. Tashqi manbalarning T_1 va T_2 haroratlarida sikllarni amalga oshiradigan har qanday qaytmaydigan issiqlik dvigatelining foydali ish koeffitsiyenti va qaytmaydigan sovutish mashinasining sovutish koeffitsiyenti xuddi o‘sha harorat manbalari o‘rtasida issiqlikning aylanishi jarayonlarini amalga oshiradigan qaytar issiqlik mashinasining foydali ish koeffitsiyenti va sovutish koeffitsiyentidan har doim kichik bo‘ladi ($\eta < \eta_{qaytar}$ va $\chi < \chi_{qaytar}$).

Real issiqlik mashinalarining foydali ish koeffitsiyenti va sovutish koeffitsiyentining qaytar issiqlik mashinasining η_{qaytar} va χ_{qaytar} ga qaraganda kamayishi bir qism ishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlikka aylanishi (ishning qaytmaydigan yo‘qolishlari) va tashqi issiqlik manbalari bilan ishchi jism o‘rtasida oxirgi haroratlar farqi bo‘lishi bilan shartlanadi.

3. Termodinamik haroratlar shkalasining mutlaq noliga erishib bo‘lmaydi.

Bu qoida qaytar issiqlik mashinalarining foydali ish koeffitsiyentining ifodasini ikkinchi turdagi abadiy dvigatelning mavjud bo‘lmasligi tamoyilining matematik ifodasi bilan taqqoslashdan bevosita tarzda kelib chiqadi:

$$\eta_{обр.} = 1 - \frac{T_2}{T_1} < 1 \;, \qquad (7.19)$$

bundan bevosita tarzda $T_2 > 0$ (erkin tanlash huquqi bo‘yicha $T_1 > 1$) bo‘lishi kelib chiqadi.

Shundan kelib chiqqan holda, termodinamik haroratlar shkalasining mutlaq noliga erishishning iloji yo‘q. Haroratlarning mutlaq noliga erishib bo‘lmasligiga bir qator hollarda termodinamikaning uchinchi qonuni sifatida qaraladi.

Masalalar

40. Bosimi P=8 bar va t=250^{0}C bo‘lgan 1 kg kislorodning entropiyasini aniqlang. Issiqlik sig‘imi o‘zgarmas deb hisoblang.

Javob: S=0,0605 kJ/kg·K.

41. 6,4 kg azot gazining P=5 bar va t=300^{0}C bo‘lgandagi entropiyasini aniqlang. Issiqlik sig‘imini o‘zgarmas deb hisoblang.

Javob: S=1,94 kJ/kg·K.

42. 1 kg kislorod t_1=127 ^{0}C bo‘lganda hajmini 5 marotaba orttiradi, shunda harorati t_2=27^{0}C gacha kamayadi.

Issiqlik sig‘imini o‘zgarmas deb hisoblab, entropiyaning o‘zgarishini aniqlang.

Javob: ΔS=0,2324 kJ/kg·K

43. Haroratlari t_1=627 ^{0}C va t_2=27 ^{0}C bo‘lgan 1 kg havo Karno siklini bajaradi, bunda eng katta bosim 60 bar, eng kichigi esa 1 bar ga teng.

Har bir nuqtadagi parametrlarni – ish, termik FIK, keltirilgan va olib ketilgan issiqlikni aniqlang.

Echish:

1-nuqta: P_1 = 60 bar; T_1=900 K; v_1 - ?

Holat tenglamasidan:

$$v_1 = \frac{RT_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 900}{60 \cdot 10^5} = 0,043 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

2-nuqta: T_1=900 K; R_2 - ?

2-3 adiabatik jarayon uchun:

$$\frac{P_2}{P_3} = \left(\frac{T_2}{T_3}\right)^{\frac{\kappa}{\kappa-1}} = 3^{\frac{1,4}{0,4}} = 46,8$$

P_2 = 1 · 46,8 = 46,8 bar

1-2 izotermik jarayon uchun

$P_1 v_1 = P_2 v_2$

$$v_2 = \frac{P_1 v_1}{P_2} = \frac{60 \cdot 0,043}{46,8} = 0,055 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

3-nuqta:

P_3 = 1 bar; T_3=300 K; v_3 - ?

$$v_3 = \frac{RT_3}{P_3} = \frac{287 \cdot 300}{1 \cdot 10^5} = 0,861 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

4-nuqta: T_4 = 300 K

4-1 adiabatik jarayon uchun:

$$\frac{P_1}{P_4} = (\frac{T_1}{T_4})^{\frac{\kappa}{\kappa-1}} = 46{,}8$$

$$P_4 = \frac{P_1}{46{,}8} = 1{,}284 \text{ bar}$$

3-4 izotermik jarayon uchun

$P_3\, v_3 = P_4\, v_4$

$$v_3 = \frac{P_3 v_3}{P_4} = \frac{1 \cdot 0{,}861}{1{,}284} = 0{,}671 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Siklning FIK:

$$\eta_t = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = \frac{900 - 300}{900} = 0{,}667$$

Keltirilgan issiqlik miqdori:

$$q_1 = RT_1 \ell n \frac{v_2}{v_1} = 2{,}303 \cdot 0{,}287 \cdot 900\, \ell n \frac{0{,}055}{0{,}043} = 63{,}6 \text{ kJ/kg}$$

Olib ketilgan issiqlik miqdori:

$$q_2 = RT_3 \ell n \frac{v_3}{v_4} = 2{,}303 \cdot 0{,}287 \cdot 300\, \ell n \frac{0{,}861}{0{,}671} = 21{,}5 \text{ kJ/kg}.$$

Siklning ishi:

$l_0 = q_1 - q_2 = 63{,}6 - 21{,}5 = 42{,}1$ kJ/kg.

44. 1 kg azot va 1 kg vodorod harorati $t_1=15\ ^0$Cda 0,1 MPa dan 1 MPa bosimgacha izotermik siqiladi.

Qaysi gaz uchun entropiya katta bo‘ladi va necha marotaba (boshqa gazning entropiyasining o‘zgarishiga nisbatan)?

Javob: $\Delta S_{H_2} / \Delta S_{N_2} = 13{,}9$

45. Harorati 100 ^{0}C va bug‘lanish issiqligi r=2257 kJ/kg ga teng bo‘lgandagi 1 kg suvning bug‘lanishidagi entropiyasini aniqlang.

Javob: $\Delta S = 6{,}05$ kJ/kg·K

Nazorat savollari

1. Termodinamikaning ikkinchi qonunini ta’riflarini tushuntiring.
2. *T–S* diagrammaning ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Har qanday termodinamik siklning termik FIKi bilan Karno siklining FIKini taqqoslang.
4. Har qanday termodinamik siklning sovutish koeffitsiyenti bilan Karno siklining sovutish koeffitsiyentni takkoslang.
5. Qaytar va qaytmas jarayonlarda ichki issiqlik almashinishi nimaga teng?

8. Suyuqliklar, bug‘ va gazlarning aralashmalari

8.1. Umumiy munosabatlar

Aralashma deb o‘zaro kimyoviy ta’sirlashishlarga kirishmaydigan *p* ta tarkibiy qismdan tashkil topadigan termodinamik tizimga aytiladi. SHuningdek aralashmadagi alohida tarkibiy qismlarning strukturasi aralashma hosil bo‘lishi va aralashmaning turg‘unlashishi jarayonlarida o‘zgarmaydi deb taxmin qilinadi.

Aralashmaning eng muhim tavsiflaridan biri uning tarkibi bo‘lib hisoblanadi. u tarkibiy qismlarning massa yoki molyar konsentrat-siyalari (ulushlari) bilan beriladi.

Materiyaning saqlanishi qonuniga ko‘ra quyidagiga egamiz: aralashmaning massasi (G) uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning massalarining (G_i) yig‘indisiga teng (additivlik qoidasi)

$$G = \sum_{i=1}^{n} G_i \tag{8.1}$$

Aralashmaning mollar soni aralashmadagi barcha tarkibiy qismlarning mollar soniga teng

$$\overline{G} = \sum_{i=1}^{n} \overline{G}_i \,. \tag{8.2}$$

m_i massa konsentratsiyasi yoki massa ulushi deb G_i tarkibiy qismning massasining G butun aralashmaning massasiga nisbatiga aytiladi.

$$m = \frac{G_i}{G} = \frac{G_i}{\sum_{i=1}^{n} G_i} \,. \tag{8.3}$$

r_i molyar konsentratsiya yoki molyar ulush deb $\overline{G}_i$ tarkibiy qismning mollar sonining $\overline{G}$ aralashmaning mollarining umumiy soniga aytiladi:

$$r_i = \frac{\overline{G}_i}{\overline{G}} = \frac{\overline{G}_i}{\sum_{i=1}^{n} \overline{G}_i} \,, \tag{8.4}$$

ravshanki

$$\sum_{i=1}^{n} m_i = 1 \,, \qquad \sum_{i=1}^{n} r_i = 1 \tag{8.5}$$

μ_m o‘rtacha (shunday deb hisoblanadigan) molyar massa, xuddi uning uchun $\mu = \frac{G}{\overline{G}}$ bo‘lgan sof moddaning molyar massasi kabi, aralashma massasining undagi mollar soniga nisbatiga teng:

$$\mu_m = \frac{G_i}{\overline{G}_i} = \frac{\sum_{i=1}^{n} G_i}{\overline{G}} = \sum_{i=1}^{n} \frac{\mu_i \cdot \overline{G}_i}{\overline{G}} = \sum_{i=1}^{n} r_i \cdot \mu_i \,, \qquad (8.6)$$

$$\mu_m = \frac{G_i}{\overline{G}_i} = \frac{G}{\sum_{i=1}^{n} \overline{G}_i} = \frac{G}{\sum_{i=1}^{n} \frac{G_i}{\mu_i}} = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \frac{G_i}{G_i \cdot \mu_i}} = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \frac{m_i}{\mu_i}} . \qquad (8.7)$$

Massa va molyar konsentratsiyalar o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi nisbatdan aniqlanadi:

$$m_i = \frac{G_i}{G} = \frac{\mu_i \cdot \overline{G}_i}{\mu_m \cdot \overline{G}} = r_i \frac{\mu_i}{\mu_m} , \qquad (8.8)$$

yoki

$$\frac{m_i}{r_i} = \frac{\mu_i}{\mu_m} . \qquad (8.9)$$

Aralashmaning R_m gaz domiysi

$$R_m = \frac{\overline{R}}{\mu} = \sum_{i=1}^{n} m_i \cdot R_i = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \frac{r_i}{R_i}} , \qquad (8.10)$$

nisbatlar bilan hisoblanadi.

Bu yerda $\overline{R}$ = *8314* J/(kmol K) – universal gaz doimiysi, R_i – aralashmaning tarkibiy qismining tavsifiy gaz doimiysi.

Suyuq, gazsimon va qattiq aralashmalar uchun ko‘pincha tarkibiy qismlarning hajmiy konsentratsiyasi tushunchasidan ham foydalaniladi. υ_i hajmiy konsentratsiya deb berilgan tarkibiy qismning V_i hajmining butun aralashmaning V hajmiga nisbatiga aytiladi:

$$v_i = \frac{V_i}{V} . \qquad (8.11)$$

8.2. Ideal gazlarning aralashmalari

Ideal gazlarning aralashmalari ham ideal gazlar bo‘lib hisoblanadi va ideal gazlarning holat tenglamasiga (Klapeyron tenglamasi) bo‘ysunadi:

$$p_m V = G R_m T_m = \overline{G}\overline{R} T_m , \qquad (8.12)$$

Bu yerda p_m, T_m - aralashmaning bosimi va harorati.

(8.12) tenglamadan kelib chiqishicha, aralashmaning noma’lum parametrlarini aniqlash uchun aralashtirishdan keyin quyidagi qiymatlarni bilish (yoki bilvosita tarzda aniqlash) zarur bo‘ladi: aralashmaning o‘rtacha bosimi yoki o‘rtacha harorati (chizma *V*= *const*)), yoki aralashmaning o‘rtacha harorati va hajmi (chizma p =*co*nst).

Aralashmaning o‘rtacha harorati va o‘rtacha bosimi umumiy tizim sifatidagi aralashmaning oxirgi diffuzion muvozanat holatini tavsiflaydi. Aralashmaning tarkibiy qismlarining holati aralashish jarayonida tarkibiy qismlarning bosimlarining dastlabki tenglashish momentidan boshlab diffuzion muvozanat holati momentigacha uzluksiz o‘zgaradi, diffuzion muvozanat holatida har bir tarkibiy qismning bosimi $p_{\nu i}$ turg‘un parsial bosim darajasigacha pasayadi.

Ideal gazlarning aralashmalarining diffuzion muvozanat qonuni (Dalton qonuni) gazlar aralashmasining qaror topgan holatini tavsiflaydi va shunday deydi: *«Gazlar aralashmasining har bir tarkibiy qismi aralashmaning butun hajmiga* (V) *tarqaladi va bu hajmda xuddi aralashmaning boshqa tarkibiy qismlar ishtirok etmagan haroratidagi kabi* $p_{\nu i}$ *parsial bosimni hosil qiladi».*

Har bir tarkibiy qism va gazlar aralashmasi uchun gazning har qanday miqdori uchun ideal gazning holat tenglamasini yozamiz

$$p_{\nu i}V = \overline{G}_i \cdot \overline{R}T\,, \tag{8.13}$$

$$p_m V = \overline{G}\overline{R}T_m\,. \tag{8.14}$$

(8.13) ni (8.14) ga bo‘lish bilan quyidagini olamiz

$$\frac{P_{\nu i}}{P_m} = \frac{\overline{G}_i}{\overline{G}} = r_i\,. \tag{8.15}$$

Bundan shu kelib chiqadiki, ideal gazlar aralashmasida tarkibiy qismning $p_{\nu i}$ parsial bosimi p_m aralashmaning to‘liq bosimi va r_i tarkibiy qismning molyar konsentratsiyasi orqali aniqlanadi

$$p_{\nu i} = r_i\, p_m \tag{8.16}$$

Oxirgi nisbat shuni ko‘rsatadiki, Dalton qonuniga ko‘ra, gazlar aralashmasidagi barcha tarkibiy qismlarning parsial bosimlarining yig‘indisi aralashmaning to‘liq bosimiga teng bo‘ladi

$$\sum_{i=1}^{n} p_{\nu i} = \sum_{i=1}^{n} r_i p_m = p_m \sum_{i=1}^{n} r_i = p_m \qquad (8.17)$$

Ideal gazning ichki energiyasi va entalpiyasi haroratning funksiyasi bo‘lib hisoblanishi sababli, ideal gazlar aralashmasining T_m o‘rtacha haroratini aniqlash soddalashadi:

$$V = const \qquad U_2 - U_1 = \sum_{i=1}^{n} \bar{G}_i \, \bar{c}_{vm,i} (T_m - T_i) = 0, \qquad (8.18)$$

$$p = const \qquad H_2 - H_1 = \sum_{i=1}^{n} \bar{G}_i \, \bar{c}_{pm,i} (T_m - T_i) = 0, \qquad (8.19)$$

bundan ideal gazlar aralashmasining o‘rtacha hvroratining umumiy hisobiy ifodasi:

$$T_m = \frac{1}{\bar{c}_{zm}} \sum_{i=1}^{n} r_i \bar{c}_{zi} T_i = \frac{1}{c_{zm}} \sum_{i=1}^{n} m_i c_{zm,i} Ti \; ; \;\; z = v, p, \qquad (8.20)$$

bu yerda $c_{zm}, \bar{c}_{zm}$- aralashmaning solishtirma massa va molyar issiqlik sig‘imlari:

$$c_{zm} = \sum_{i=1}^{n} m_i \cdot c_{z,i} \, , \qquad (8.21)$$

$$\bar{c}_{zm} = \sum_{i=1}^{n} r_i \cdot \bar{c}_{z,i} \, , \qquad (8.22)$$

bu yerda $c_{z,i}$, $\bar{c}_{z,i}$ – aralashmaning i-tarkibiy qismining solishtirma massa va molyar issiqlik sig‘imlari.

Gazlarni tahlil qilishda odatda bir xil bosim va haroratda aralashmaning har bir tarkibiy qismining hajmi aniqlanadi. Bunday holda υ_i hajmiy konsentratsiya aralashmaning ma’lum bir bosim va haroratida tarkibiy qismning $V_{i,pr}$ keltirilgan hajmining xuddi o‘sha sharoitlarda butun aralashmaning V hajmiga nisbati bilan aniqlanadi

$$\upsilon_i = \frac{V_{i,np}}{V} \, . \qquad (8.23)$$

Ideal gaz uchun holat tenglamasidan:

$$V_{i,pr} = \frac{\bar{G}_i \cdot \bar{R} \cdot T_ь}{p_m} , \quad V = \frac{\bar{G} \cdot \bar{R} \cdot T_m}{p_m} . \qquad (8.24)$$

$V_{i,pr}$ va V ni (8.23) nisbatga o‘rniga qo‘yishdan keyin quyidagini olamiz:

$$v_i = \frac{\bar{G}_i}{\bar{G}} = r_i \, , \qquad (8.24)$$

bundan ideal gazlarning aralashmalari uchun tarkibiy qismlarning hajmiy va molyar konsentratsiyalari son jihatidan teng bo‘lishi kelib chiqadi.

8.3. Real gazlarning aralashmalari

Real gazlarning aralashmalari Klapeyron va Dalton qonunlariga bo‘ysunmaydi. Real gazlarnng xususiyatlarini hisoblash uchun odatda $p{\cdot}V=z{\cdot}G{\cdot}R{\cdot}T$ siqiluvchanlik koeffitsiyentiga ega bo‘lgan holat tenglamasidan foydalaniladi.

Real gazlarning aralashmalari uchun z siqiluvchanlik koeffit-siyentlari bo‘yicha umumiy ma’lumotlar mos keluvchi holatlar qonuni yordamida olinadi. Biroq, sof gazlardan farqli o‘laroq, mos keluvchi holatlar aralashmalarning amaldagi kritik parametrlari bo‘yicha emas, balki p_{pkr} keltirilgan kritik bosimlar va T_{pkr} keltirilgan kritik haroratlar bo‘yicha aniqlanadi.

Bu parametrlar aralashmaning yolg‘on kritik bosimi va harorati deb ataladi:

$$p_{пкк} = \sum_{i=1}^{n} r_i \cdot p_{кр,i}\,, \qquad T_{pkr} = \sum_{i=1}^{n} r_i \cdot T_{кр,i}\,, \tag{8.25}$$

bu yerda $p_{kr,i}$ va $T_{kr,i}$ – gazlar aralashmasining alohida tarkibiy qismlarining kritik bosimi va harorati.

YOlg‘on kritik parametrlardan π keltirilgan bosimlar va τ keltirilgan haroratlarni hisoblash uchun foydalaniladi

$$\pi = \frac{P}{P_{пкр}}\,, \qquad \tau = \frac{T}{T_{пкр}}\,. \tag{8.26}$$

Ba’zi bir sof gazlarning kritik parametrlarining qiymatlari 8.1-jadvalda keltirilgan.

8.1- jadval.

Gazlarning kritik tavsiflari

Gaz	μ, kg/kmol	T_{kr}, K	R_{kr}, MPa	ρ_{kr}, kg/m^3	z_{kr}	ω
Metan, SN_4	16,04	190,55	4,600	162	0,288	0,0104
Etan, S_2N_6	30,07	305,43	4,876	212	0,285	0,0986
Propan, S_3N_8	44,09	369,82	4,246	225	0,281	0,1524
Izobutan, $i\text{-}S_4N_{10}$	58,12	408,13	3,645	221	0,283	0,1848
N-butan, $n\text{-}S_4N_{10}$	58,12	425,16	3,794	228	0,274	0,201
Izopentan, $i\text{-}S_5N_{12}$	72,15	460,4	3,381	234	0,268	0,222
N-pentan, $n\text{-}S_5N_{12}$	72,15	469,65	3,366	232	0,262	0,2539
Azot, N_2	28,01	126,26	3,400	304	0,292	0,040
Uglerod II oksidi, SO_2	44,01	304,2	7,370	468	0,274	0,231
Oltingugurtvodorod, N_2S	34,08	373,6	9,000	346	0,283	0,100

π va τ ning topilgan qiymatlarini (8.26) tenglama) hisobga olish bilan 8.1-rasmdagi diagramma bo‘yicha umuman aralashmaning siqiluvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi.

Masalalar

46. Havoning hajmiy tarkibi X_{N2}=79 % azot va X_{O2}=21 % kisloroddan tashkil topgan.

Azot va kislorodning massaviy ulushi, aralashmaning gaz doimiysi va molyakulyar massasi topilsin.

47. 10 kg kislorod i 15 kg azot aralashmasining bosimi P=0,3 MPa va harorati t=27 ^{0}C. Aralashmaning har bir komponentining molyar ulushi va hajmi, aralashmaning molekulyar massasi, gaz doimiysi, umumiy hajmi, parsial bosimi topilsin.

48. 0,3 m^3 hajmli havo 0,5 kg SO gaz bilan aralashadi. Aralashguncha havo va gazning parametrlari P=0,6 MPa va t=45 ^{0}C ga teng.

SO gazning aralashgandan keyingi parsial bosimini toping.

49. Tutun gazlari ω_{SO2}=16,1%, ω_{O2}=7,5%, ω_{N2}=76,4% massaviy tarkibga ega. Gazlarning t=800^{0}Cdagi 1 kg aralashmaga nisbatan entalpiyasini aniqlang.

50. Idishda 10 kg azot, 13 kg argon va 27 kg SO_2 gaz aralashmasi joylashgan. Aralashmaning molyar ulushi, molyar massasi va gaz doimiysini aniqlang.

51. YOnuvchi gazning hajmiy tarkibi: X_{N2}=3 %, X_{SO2}=3 %, X_{N2}=45 %, X_{SO}=10 %, X_{SN4}=35 %, X_{S2N4}=4 % dan iborat.

Har bir komponentning massaviy ulushi, aralashmaning molyar massasi va gaz doimiysini aniqlang.

Nazorat savollari

1. Gaz aralashmasi deb nimaga aytiladi?
2. Gaz aralashmalari necha xil ulushda beriladi?
3. Ideal gazlarning aralashmalarining diffuzion muvozanat qonuni nimani tavsiflaydi?
4. Real gazlarnng xususiyatlarini hisoblash uchun qaysi holat tenglamasidan foydalaniladi?

9. Bug‘lar va bug‘ hosil bo‘lishi

9.1. Bug‘ hosil bo‘lish jarayoni. Asosiy ta’riflar

Issiqlik-kuch qurilmalarining ish holatlarini tahlil qilishda amalda har doim har xil suyuqliklar va ularning bug‘lari bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Bug‘ hosil bo‘lish jarayoni va ularning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash hamma suyuqliklar uchun bir xil va uni tabiatda ko‘proq keng tarqalgan element sifatida suv misolida ko‘rib chiqish mumkin.

$p - v$ diagrammada 1 kg suvga issiqlik olib kelish jarayonini ko‘rib chiqamiz (9.1-rasm).

Suvga tashqi muhit tomonidan o‘zgarmas bosim qo‘yilgan. a_0 nuqtada suv 0^oC haroratda va r_1 bosimda bo‘ladi. Issiqlikni izlbarik tarzda olib kelish natijasida suv isiydi va a' nuqtada t_{s1} *to‘yinish haroratiga* teng bo‘lgan haroratda qaynay boshlaydi.



9.1-rasm. p-v koordinatalarda suv bug‘i holatlarining diagrammalari.

Bug‘ hosil bo‘lish jarayoni *a' a"* uchastkada r_1 o‘zgarmas bosim va t_{s1} o‘zgarmas haroratda kechadi. *a"* nuqtada suv to‘liq bug‘lanib ketadi. Bu holatda bug‘ *quruq to‘yingan bug‘* deb ataladi. *a'-a"* uchastkada suv ikkita fazada bo‘ladi va qaynayotgan suv va quruq bug‘ aralashmasidan tashkil topadi. Bu ikki fazali muvozanatli tizim *to‘yingan (nam) bug‘* deb ataladi. Keyinchalik issiqlikning izobarik tarzda olib kelinishida quruq bug‘ *o‘ta qizigan bug‘ga* aylanadi (*a* nuqta). O‘ta qizigan bug‘ berilgan bosimda qaynash haroratiga qaraganda yuqori haroratga ega bo‘ladi. *a* holatda o‘ta qizigan bug‘ning parametrlari p_1, $t_a > t_{s1}$, v_a bo‘ladi.

Suvga issiqlikni izobarik tarzda olib kelish bo‘yicha xuddi shunday tajribani boshqa p_2, p_3 va hokazo bosimlarda ham o‘tkazish mumkin. Mos keluvchi jarayonlar b_0 *b'b"b* va s_0 *s's"s* chiziqlar bilan tasvirlanadi. Suv va bug‘ning turlicha bosimlardagi bir xil holatlarining nuqtalarini chiziqlar bilan tutashtiramiz.

$a_0b_0s_0$ chiziq 0°C haroratda suvning solishtirma hajmining bosimga bog‘lanishini tavsiflaydi, ya’ni $v_0 = v_0(p)_{t=0}$. Suv kam siqiluvchan suyuqlik bo‘lganligi sababli bu chiziq deyarli vertikal bo‘ladi.

a'b's' chiziq qaynayotgan suvning solishtirma hajmining qaynash haroratiga bog‘lanishini tavsiflaydi, chunki $t_s = f(p)$. Bu chiziq *pastki chegara egri chizig‘i* deb ataladi.

Quruq to‘yingan bug‘ni tavsiflaydigan *a"b"s"* chiziq quruq bug‘ning solishtirma hajmining bosimga bog‘lanishini ifodalaydi va *yuqorigi chegara egri chizig‘i* deb ataladi. CHegara egri chiziqlari K kritik nuqtada kesishadi.

Qaynayotgan suvning parametrlari bitta shtrix bilan, quruq to‘yingan bug‘ning parametrlari esa – ikkita shtrix bilan belgilanadi. Qaynayotgan suv va quruq bug‘ni tavsiflash uchun bor-yo‘g‘i bitta parametr - *p* bosim yoki t_s to‘yinish haroratini bilish etarli bo‘ladi. Bu parametrning qiymati bo‘yicha suv bug‘ining termodinamik jadvallaridan qaynayotgan suvning barcha *v', u', i', s'* xususiyatlarining parametrlarining qiymatlarini va quruq bug‘ning barcha *v", u", i", s"* xususiyatlarining parametrlarining qiymatlarini topish mumkin.

CHegara egri chiziqlari o‘rtasidagi sohada nam to‘yingan bug‘ joylashadi. To‘yingan bug‘ning har bir haroratiga ma’lum bir bosim mos keladi, ya’ni bu parametrlar o‘rtasida bir qiymatli bog‘lanish mavjud bo‘ladi: $r = r(t_s)$.

Nam to‘yingan bug‘ni tavsiflash uchun r yoki t_s dan tashqari, ikkinchi mustaqil o‘zgaruvchi sifatida nam bug‘da quruq bug‘ning massa konsentratsiyasi qo‘llaniladi. Uni hisoblash uchun G'' quruq bug‘ning massasi va G' qaynayotgan suvning massasini bilish kerak bo‘ladi

$$x = \frac{G''}{G' + G''} = \frac{G''}{G}. \tag{9.1}$$

x kattalik *quruqlik darajasi* yoki bug‘ miqdori deb ataladi.

Pastki chegara egri chizig‘ida $x = 0$, yuqorigi chegara egri chizig‘ida $x = 1$. bo‘ladi. $(x - 1)$ kattalik *namlik miqdori* deb ataladi.

$$1 - x = \frac{G'}{G' + G''} = \frac{G'}{G}. \tag{9.2}$$

Uni quruq bug‘ga aylantirish uchun o‘zgarmas bosimda 1 kg qaynayotgan suyuqlikka olib kelinishi zarur bo‘lgan issiqlik miqdori *bug‘ hosil bo‘lishining yashirin issiqligi* deb ataladi va r bilan belgilanadi. Uning qiymatini termodinamikaning birinchi asosining tenglamasidan aniqlash mumkin:

$$\delta q = \delta q^{*} + \delta q^{**} = du + pdv = dh - vdp \tag{9.3}$$

Bug‘ hosil bo‘lish jarayoni o‘zgarmas bosimda kechishi sababli, olib kelingan issiqlik miqdorini quyidagi nisbat bilan ifodalash mumkin:

$$r = \int_{x=0}^{x=1} \delta q_p = \int_{x=0}^{x=1} dh, \qquad r = h'' - h' . \tag{9.4}$$

Bosim yoki qaynash harorati ortishi bilan r ning qiymati kamayadi va kritik nuqtada nolga teng bo‘lib qoladi.

9.2. To‘yingan va o‘ta qizigan bug‘ning xususiyatlari

Nam bug‘ binar aralashma bo‘lib hisoblanadi; uning xususiyatlari uning tarkibiga bog‘liq bo‘ladi, bu tarkib x bug‘ miqdorining kattaligi bilan tavsiflanadi.

Ma’lumki, V hajm, U ichki energiya, H entalpiya va S entropiya ekstensiv xususiyatlar bo‘lib hisoblanadi, ya’ni moddaning miqdoriga

bog‘liq bo‘ladi. Har qanday ekstensiv xususiyatni Z orqali, mos keluvchi xususiyatning solishtirma qiymatini esa z orqali belgilaymiz. SHunda $Z = zG$ bo‘ladi.

Aralashmaning ekstensiv xususiyatini hisoblash uchun additivlik qoidasini qo‘llaymiz

$$Z = Z' + Z'', \tag{9.5}$$

bu yerda Z' va Z'' — qaynayotgan suv va quruq bug‘ning ekstensiv xususiyatlari.

Ekstensiv xususiyatlarni mos keluvchi solishtirma kattaliklar bilan ifodalaymiz va ularni (9.5) tenglamaga o‘rniga qo‘yamiz

$$Gz = G'z' + G''z''. \tag{9.6}$$

(9.6) tenglamaning a’zolarini G ga bo‘lamiz va (9.2), (9.3) tenglamalarni hisobga olish bilan quyidagini olamiz

$$z = G(1 - x)z' + xz'' = z' + (z'' - z')x, \tag{9.7}$$

(9.7) nisbat yordamida nam bug‘ning holatining asosiy parametr-larini aniqlash uchun tenglamalarni (mos ravishda solishtirma hajm, ichki energiya, entalpiya va entropiyani aniqlash uchun tenglamalarni) yozish mumkin:

$$v = v' + (v'' - v'')x; \tag{9.8}$$

$$u = u' + (u'' - u')x; \tag{9.9}$$

$$h = h' + (h'' - h')x = h' + rx; \tag{9.10}$$

$$s = s' + (s'' - s')x = s' + \frac{r}{T_s}x. \tag{9.11}$$

O‘ta qizigan bug‘ning entalpiyasi, entropiyasi va ichki energiyasi bu parametrlarning izobarik o‘ta qizdirish jarayonida o‘sish tenglamalaridan aniqlanadi. Mazkur jarayon uchun (holatlar ideal gazning holatlariga yaqin bo‘lganligi uchun) quyidagi nisbatlar adolatli bo‘ladi:

$$dh = c_p dT; \qquad ds = c_p \frac{dT}{T} \tag{9.12}$$

T_s to‘yinish haroratidan T o‘ta qizigan bug‘ning haroratigacha integrallashdan keyin quyidagini olamiz:

o‘ta qizigan bug‘ning entropiyasi uchun

$$s = s'' + c_{mp} ln\frac{T}{T_s} \tag{9.13}$$

o‘ta qizigan bug‘ning entalpiyasi uchun

$$h = h'' + c_{pm}(T - T_s),\qquad(9.14)$$

ichki energiya uchun

$$u = h - p(v - v''),\qquad(9.15)$$

Bu yerda h'' – quruq to‘yingan bug‘ning solishtirma entalpiyasi; s_{pm} – o‘ta qizigan bug‘ning T-T_s haroratlar oralig‘iida o‘rtacha issiqlik sig‘imi; u – solishtirma ichki energiya; v, v'' - mos ravishda o‘ta qizigan bug‘ va quruq to‘yingan bug‘ning solishtirma hajmlari.

O‘ta qizigan bug‘ning sohasi, 9.2-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turganidek, kritik izobara bilan yuqorigi chegara egri chizig‘ining o‘rtasida joylashadi.

O‘ta qizigan suv bug‘ining v, h, s, u, s_p va s_v xususiyatlari odatda termodinamik jadvallarda suv bug‘ining bosim va haroratdan funksiyalari ko‘rinishida keltiriladi.

Suv bug‘i uchun analitik bog‘lanishlarning murakkabligi sababli, jadval ma’lumotlari bilan bir qatorda turli termodinamik jarayonlarni *T-s* va *h-s* entropiya diagrammalari yordamida hisoblashning grafik uslublaridan ham foydalaniladi. Bu diagrammalarga (9.2-rasm) odatda pastki chegara egri chiziqlari ($x=0$), vertikal chegara egri chiziqlari ($x=1$), izobaralar ($p=const$), izoxoralar ($v=const$), izotermalar ($T=const$) va doimiy bug‘ miqdori chiziqlari ($x=const$) kiritiladi. Nam bug‘ sohasida izobaralar va izotermalar bir-biriga mos tushadi. O‘ta qizigan bug‘ sohasiga o‘tilganda izobaralar va izotermalar ajraladi va ularning har biri o‘zida alohida egri chiziqni taqdim qiladi.

Nam bug‘ sohasida izobaralar va izotermalar *T-s* diagrammada gorizontal to‘g‘ri chiziqlar, *h–s* diagrammada esa - egilgan to‘g‘ri chiziqlar ko‘rinishida tasvirlanadi.

Bu diagrammalardan *h–s* diagramma eng katta amaliy qiziqish uyg‘otadi, bu avvalambor adiabatik jarayonda solishtirma ish mazkur diagramma bo‘yicha jarayonning boshlang‘ich va oxirgi nuqtalari o‘rtasidagi kesmaning kattaligi (h_1–h_2) sifatida aniqlanishi bilan bog‘lanadi.



9.2-rasm. Suv bug‘ining *h-s* holat diagrammasi.

T-s va *h-s* entropiya diagrammalarida qaytar adiabatik jarayonlar (izoentropik jarayonlar), yuqorida aytib o‘tilganidek, vertikal kesmalar bilan tasvirlanadi.

T-s diagrammadan asosan turli sikllarni termodinamik tahlil qilish uchun foydalaniladi. U mos keluvchi maydonlar bo‘yicha ko‘rib chiqilayotgan siklda ishchi jismga olib kelingan va undan olib ketilgan issiqlik miqdorini va siklning ishini aniqlash imkonini beradi. Biroq sikllarni hisoblash uchun *T-s* diagramma noqulay bo‘lib hisoblanadi, chunki asosiy parametrlardan biri – bug‘ning entalpiyasi – jarayonning berilgan nuqtasida shu nuqta orqali o‘tadigan izobaraning ostidagi maydon bilan aniqlanadi. SHu sababli suv bug‘ining jarayonlarini hisoblashda ko‘proq *h–s* diagrammadan foydalaniladi.

Masalalar

52. h-s diagrammadan foydalanib, p=15 MPa, t=570 ^{0}C bo‘lgan o‘ta qizigan bug‘ning entalpiyasi *h*, solishtirma hajmi *v* va entropiyasi *S* ni toping.

53. h-s diagrammadan foydalanib, p= 1,5 MPa, bo‘lgan quruq to‘yingan bug‘ning entalpiyasi h'', solishtirma hajmi v'', entropiyasi S'' va haroratini toping.

54.Dastlabki bosimi P_1 = 10 MPa va quruqlik darajasi x_1 = 0,95 bo'lgan bug' o'ta qizdirgichga kiradi, bu yerda uning harorati Δt = 260^0C ga ko'tariladi, o'ta qizdirgichdan keyin bug' turbinada adiabatik ravishda P_2 = 4 kPa bosimgacha kengayadi. (h-s diagrammasi bo'yicha) o'ta qizdirgichda berilgan issiqlik miqdorini (1 kg bug'ga), Renkin siklining ishini va kengayish oxirida bug'ning quruqligi x_2 darajasini aniqlang. Shuningdek, tsiklning termik foydali ish koeffitsiyenti va solishtirma bug' sarfini aniqlang. Agar o'ta qizdirgichdan keyin bug' P_1'' = 2 MPa bosimiga tushirilsa, tsiklning ishini va oxirgi quruqlik darajasini aniqlang. Bug' turbinasi bloki va Renkin tsiklining diagrammasini *p* - *V* va *T* - *s* diagrammalarida chizing.



Dastlabki holat - nuqta 0 - izobar p_1 = 10 MPa va doimiy quruqlik darajasi x_1 = 0,95 kesishmasida bo‘ladi. Bu nuqtada entalpiya h_0 = 2660 kJ / kg, harorat t_0 = 310^0C. O'ta qizdirgichdan keyin bug'ning holati - 1 nuqta - izobar chizig'i p_1 = 3 MPa va izoterma $t = t_0 + \Delta t$ = 310 + 260 = 570^0C kesishmasida bo‘ladi. Bu nuqtada entalpiya h_1 = 3550 kJ / kg ni tashkil qiladi. Bug'ning oxirgi holati - 2 nuqta - izobar p_2 = 4 kPa va doimiy entropiya chizig'ining kesishmasida bo‘ladi. Bu nuqtada entalpiya h_2 = 2060 kJ / kg, quruqlik darajasi x_2 = 0,78 ga teng. To'yingan suv bug'lari uchun jadvallarga ko'ra, biz p_2 = 4 kPa, h'_2 = 121,42 kJ / kg [1] da aniqlaymiz.

Bug‘ qizdirgichdagi bug'ga beriladigan issiqlik miqdori:

$q = h_1 - h_0$ = 3550 - 2660 = 890 kJ/kg.

Renkin tsikli ishi:

$l_0 = h_1 - h_2$ = 3550 - 2060 = 1490 kJ/ kg.

Solishtirma bug' sarfi:

$d_0 = 3600 / (h_1 - h_2) = 3600 / (3550 - 2060) = 2,43$kg / (kVt·soat).

Tsiklning termik foydali ish koeffitsiyenti

$\eta_t = (h_1 - h_2) / (h_1 - h'_2) = (3550 - 2660) / (3550 - 121,42) = 0,435$.

Bug‘ qizdirgichdan keyin bug' $p_1'' = 2$ MPa bosimiga tushiriladi. Bug'ning oraliq holati - nuqta 2a - doimiy entalpiya chizig'i $h_1 = 3550$ kJ/kg va izobar $p_1'' = 2$ MPa kesishmasida bo‘ladi. Bug'ning oxirgi holati - 2 nuqta - izobar $p_2 = 4$ kPa va doimiy entropiya chizig'ining kesishmasida bo‘ladi. Bu nuqtada entalpiya $h_2 = 2270$ kJ/kg, quruqlik darajasi $x_2 = 0,884$. To'yingan suv bug'lari uchun jadvallarga ko'ra, biz $p_2 = 4$ kPa $h'_2 = 121,42$ kJ / kg [1] da aniqlaymiz.

Bug‘ qizdirgichdagi bug'ga beriladigan issiqlik miqdori:

$q = h_1 - h_0 = 3550 - 2660 = 890$ kJ / kg.

Renkin tsikli ishi:

$l_0 = h_{2a} - h_2 = 3550 - 2270 = 1280$kJ / kg.

Solishtirma bug' sarfi:

$d_0 = 3600 / (h_1 - h_2) = 3600 / (3550 - 2270) = 2,81$kg / (kVt ·soat).

Tsiklning termik foydali ish koeffitsiyenti

$\eta_t = (h_{2a} - h_2) / (h_1 - h'_2) = (3550 - 2270) / (3550 - 121,42) = 0,373$.

55. YOpiq idishda parametrlari $x_1=0,98$, $t_1=252^0$C, $t_2=400^0$C bo‘lgan 1 kg nam to‘yingan bug‘ni o‘ta qizigan bug‘ga aylantirish uchun qancha issiqlik keltirish kerak?

56. Bug‘ning quyidagi holati berilgan. p=3 MPa va $t=360^0$C h-s diagrammasidan foydalanib, entropiya, harorat va bug‘ning qizdirilish darajasini aniqlang.

57. Bosimi p=0,85 MPa va quriganlik darajasi x=0,95 bo‘lgan suv bug‘ining h_x, S_x va v_x parametrlarini h-s diagrammadan foydalanib aniqlang. Olingan natijalarni esa ifoda va jadval yordamida olingan natijalar bilan solishtiring.

58. Bosimi p=15 MPa va quriganlik darajasi x=0,96 bo‘lgan 1kg nam bug‘ni $t=460^0$C gacha qizdirish uchun kerak bo‘ladigan issiqlik miqdorini aniqlang.

59. Bosimi p=1,4 MPa va solishtirma hajmi $v=0,22$ m^3/kg ga teng bo‘lgan suv bug‘ining holatini aniqlang.

60. Agar p=2 MPa va x=0,9 bo‘lsa, nam bug‘ining solishtirma hajmini toping.

Nazorat savollari

1. Bug‘ hosil bo‘lish jarayonida kanday buglar hosil bo‘ladi?
2. T o‘yingan va to‘yinmagan bug deb nimaga aytiladi?
3. Quruqlik darajasi nimani ifodalaydi?
4. Suv bug‘ining *h-s* holat diagrammasida qaysi parametrlar chiziqlari joylashgan?
5. Suv bug‘ining *h-s* holat diagrammasida bug‘larning joylashishini tushuntirib bering?

10. Kompressorlarda siqish

Kompressor mashinalari tushunchasi gazlar va bug‘larni siqish uchun mo‘ljallangan mashinalarning barcha mumkin bo‘lgan tiplarini qamrab oladi. Harakat tamoyili bo‘yicha kompressorlarni uchta asosiy guruhga – hajmiy, kurakli va oqimli kompressorlarga bo‘lish mumkin. Hajmiy kompressorlarga porshenli, rotatsion va vintli kompressorlar kiradi. Kurakli kompressorlarga markazdan qochma va o‘qli kompressorlar kiradi. Oqimli kompressorlar o‘ta kichik FIK tufayli sanoatda keng tarqalishga ega bo‘lmagan.



a) b)

10.1-rasm. Bir pog‘onali porshenli kompressorning umumiy ko‘rinishi (a) va kompressor porshenining ilgarilanma-qaytar harakati (b)

Kompressor mashinalarining ishini tavsiflaydigan asosiy parametrlar deb siqish bosimlarining nisbati va ularni berishni hisoblash mumkin, siqish bosimlarining nisbati kompressorning orqasidagi bosimning kompressorning oldidagi bosimga nisbati sifatida aniqlanadi. Berish deganda gaz yoki bug‘ning kompressor beradigan sekundlik yoki soatlik miqdori tushuniladi, u metr kublarda yoki gaz yoki bug‘ kompressorga kirishda ega bo‘lgan parametrlarda o‘lchanadi.

Bir pog‘onali porshenli kompressor (10.2-rasm) 1 silindr, ilgarilanma-qaytar harakat qiladigan 2 porshen va ikkita 3 klapan – so‘ruvchi va haydaydigan klapandan tashkil topadi.

Kompressor quyidagi tarzda ishlaydi: 2 porshen chapdan o‘ngga qarab harakatlanganda silindrdagi gazning bosimi so‘ruvchi naychadagi bosimga qaraganda kichik bo‘lib qoladi. So‘ruvchi klapan ochiladi

va porshen chekka holatga qarab harakatlanganda silindrning bo‘shlig‘i n_1 nazariy chiziq bo‘yicha gaz bilan to‘ladi. Porshen orqaga – o‘ngdan chapga qarab harakatlanganda so‘ruvchi klapan yopiladi va porshen silindrdagi gazni 1-2 nazariy egri chiziq bo‘yicha silindrdagi gazni quvurlar tizimining haydash liniyasidagi gazning bosimiga teng bo‘l-gan r_2 bosimgacha siqadi. Haydovchi klapan ochiladi va porshen gazni r_2 o‘zgarmas bosim bilan quvurlar tarmog‘ining haydash liniyasiga haydaydi (2–3 chiziq).



a)

b)

10.2-rasm. Bir pog‘onali porshenli kompressorning indikator diagrammasi (a) va prinsipial chizmasi (b)

Porshen chapdan o‘ngga yangi yurishni boshlaganda so‘ruvchi klapan yana ochiladi, silindrdagi bosim nazariy jihatdan bir onda r_2 dan r_1 gacha tushadi (3–n chiziq) va jarayon takrorlanadi.

123p maydon ideal kompressor tomonidan valning bir marta aylanishida gazni siqishga sarflanadigan ishni tavsiflaydi.

Real kompressorlarda kechadigan jarayonlar etarlicha murakkab, chunki bunda zararli kenglikning ta’sirini hisobga olish zarur bo‘ladi, bu kenglik shu bilan shartlanadiki, porshen eng chekka chapki holatda silindrning qopqog‘igacha zich taqalib kela olmaydi va porshen bilan qopqoq o‘rtasida har doim qandaydir bir bo‘sh hajm qoladi. Real kompressorlarda gazning klapanlar orqali oqishida bosimning

yo‘qolishi, porshenning silindrning devorlariga ishqalanishi, gazning zichlashtirilmagan joylar orqali sizishi va hokazolarni hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi birgalikda porshenli kompressorning indikator diagrammasining ko‘rinishini kuchli darajada o‘zgartiradi. Xususan, porshen chapdan o‘ngga qarab yurganda zararli kenglikda siqilgan gazning bo‘lishi tufayli silindrdagi gazning bosimi 3–*n* chiziq bo‘yicha oniy tarzda emas, balki 3-4 chiziq bo‘yicha o‘zgaradi. So‘ruvchi klapan r_1 bosimda emas, *d* nuqtaga mos keladigan bosimda ochiladi.

Xuddi shuning o‘zi haydovchi klapanning ishlashiga ham tegishli bo‘ladi, u r_2 bosimga qaraganda biroz kattaroq bosimda ochiladi.

Kompressorning ishini indikator diagrammasi bo‘yicha tahlil qilish bilan kompressor aylanma jarayon (yoki sikl) bo‘yicha ishlaydi deb bo‘lmaydi (ba’zan shunday deyiladi), chunki kompressorda 1-2 chiziq bo‘yicha (yoki real kompressorda a–b chiziq bo‘yicha) faqatgina siqish jarayoni amalga oshiriladi. So‘rish (4–1 chiziq) va haydash (2–3 chiziq) paytida gazning holati nazariy jihatdan o‘zgarmaydi.

Kompressorda gazni termodinamik siqish jarayonini tahlil qilishda odatda gazni siqishga sarflanadigan ishni, siqish jarayonining oxirgi haroratini aniqlash asosiy qiziqish uyg‘otadi.

Siqish jarayonining solishtirma ishini termodinamikaning birinchi asosining oqim uchun yozilgan tenglamasidan topish mumkin. Bunda kompressorda siqish jarayoni quyidagi sharoitlarda kechadi deb taxmin qilinadi: Atrof muhit bilan issiqlik almashinishi juda kichik va shundan kelib chiqqan holda $q^*_{1,2} = 0$; so‘ruvchi va haydovchi naychalarda gazning harakatlanish tezliklari teng $s_1 = s_2$; oqimning og‘irlik markazi balandligining o‘zgarishini hisobga olmaslik mumkin $z_1 = z_2$; qaytmaydigan yo‘qolishlar yo‘q ($w_{1,2}^{**} = 0$). Bunday sharoitlarda tenglama soddalashadi va 1 kg gaz yoki bug‘ni kompressorda siqishga sarflanadigan solishtirma ish quyidagi munosabatdan aniqlanadi.

$$w_{1,2} = h_1 - h_2. \qquad (10.1)$$

Ideal gaz uchun tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi

$$w_{1,2} = h_1 - h_2 = c_p(T_1 - T_2), \qquad (10.2)$$

bu yerda c_1 – o‘zgarmas bosimda gazning issiqlik sig‘imi, J/(kg·°S); T_1, T_2 – siqish jarayonining T_1 boshlang‘ich va T_2 oxirgi haroratlari, K; $w_{1,2}$ – siqishning solishtirma potensial (yoki texnik) ishi, J/kg.

$w_{1,2}$ kattalik - manfiy, chunki siqishda ish sarflashga to‘g‘ri keladi, biroq hisoblashlarda, qulay bo‘lishi uchun u musbat deb – mutlaq qiymat bo‘yicha qabul qilinadi.

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, solishtirma siqish ishi mutlaq kattalik bo‘yicha siqiladigan gaz yoki bug‘ning entalpiyasining ortishiga teng

$$|w_{1,2}| = h_2 - h_1 = c_p(T_2 - T_1). \qquad (10.3)$$

Agar kompressor orqali o‘tadigan gaz sarfini *G* (kg/s) deb belgilasak, u holda kompressorda gazni siqishga sarflanadigan quvvatni aniqlash mumkin

$$N = G(h_2 - h_1). \qquad (10.4)$$

Ideal gaz uchun $N = Gc_p(T_2 - T_1).$ (10.5)

Olingan tenglamalar porshenli kompressorlar uchun ham, kurakli kompressorlar uchun ham adolatli, shu sababli gazni porshenli yoki kurakli kompressorlarda siqish jarayoni termodinamik nuqtai-nazardan bir xil. Tenglamalar barcha real gazlar uchun, shuningdek suyuqliklarni haydashda nasoslarda sarflanadigan ish va quvvatni aniqlash uchun ham adolatli.

Qaytar adiabatik jarayon uchun quyidagiga egamiz

$$w_{1,2} = c_p(T_2 - T_1) = c_p T_1\left(\frac{T_2}{T_1} - 1\right) = c_p T_1\left[\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{k-1}{k}} - 1\right] =$$

$$= \frac{k}{k-1} p_1 \upsilon_1\left[\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{k-1}{k}} - 1\right] = \frac{k}{k-1} RT_1\left[\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{k-1}{k}} - 1\right]. \qquad (10.6)$$

Real jarayonda gazni siqishdagi ish η_{ic} kompressorning ichki nisbiy FIK tushunchasini kiritgandan keyin aniqlanadi, u siqishda qaytmaydigan yo‘qolishlarni tavsiflaydi

$$w_i = \frac{1}{\eta_{ic}} w_{1,2} = \frac{1}{\eta_{ic}} \cdot \frac{k}{k-1} \cdot RT_1\left[\left(\frac{p_2}{p_1}\right)^{\frac{k-1}{k}} - 1\right]. \qquad (10.7)$$

10.3-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, real kompressorda qaytmaydigan yo‘qolishlar tufayli siqish jarayonining chizig‘i qaytar jarayonning chizig‘idan o‘ngroqda joylashadi. Bu shu bilan bog‘lanadiki, qaytmaydigan yo‘qolishlar ichki issiqlik almashinishining issiqligiga aylanadi $\delta w^{**} = \delta q^{**} \neq 0$ va bunda entropiya ortadi.

1–2 va 1–2' jarayonlarda $w_{1,2'}$ va $w_{1,2\;2}$ potensial ishlarning nisbati ichki qaytmaydigan yo‘qolishlarni tavsiflaydi va kompressorning nisbiy ichki FIK ni belgilaydi

$$\eta_{ic} = \frac{w_{1,2}}{w_{1,2'}} < 1. \quad (10.8)$$

10.4-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, adiabatik siqish jarayonidan (1–2 chiziq) izotermik siqish jarayoniga (1–2' chiziq) o‘tish siqish ishining kamayishiga olib keladi va aksincha bo‘ladi. Izotermik jarayon uchun qaytar siqilishning solishtirma ishini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin (mutlaq kattalik bo‘yicha):

$$|l_{1,2}| = |w_{1,2}| = 2{,}3 p_1 \upsilon_1 \, lg \frac{p_1}{p_2} = 2{,}3 R T_1 \, lg \frac{p_1}{p_2}. \quad (10.9)$$



10.3-rasm. Kompressorda siqish jarayonining



10.4-rasm. Jarayonning turlicha *h-s* diagrammadagi grafigi ko‘rsatkichlarida kompressorda siqish jarayonining grafigi

Kompressorlarda izotermik jarayonni amalga oshirishda jarayon davomida harorat o‘zgarmasdan qolishi uchun doimo issiqlikni olib ketish talab qilinadi, amaliy jihatdan anchagina qiyin. Izotermik siqish jarayoni go‘yo etalon jarayon bo‘lib hisoblanadi, amaliyotda gazni kompressorlarda siqish real jarayonini unga yaqinlashtirishga harakat qilinadi.

10.1. Ko‘p pog‘onali kompressorning termodinamik jarayoni

Bir pog'onali kompressorli qurilmalarning kamchiliklaridan biri cheklangan ish bosimi hisoblanadi. Ushbu turdagi porshenli kompressorning ishlashi bosimni atigi 10 atmosferagacha hosil qilishi mumkin. Buning sababi, yuqori bosimda silindrdagi harorat keskin ko'tariladi va qismlarni moylash uchun ishlatiladigan yog 'yonib ketishi mumkin.



10.5-rasm. Ikki pog‘onali porshenli kompressorning umumiy ko‘rinishi (a) va kompressor porshenlariining ilgarilanma-qaytar harakati (b)

Shu sababli yuqori bosimli gazni olish uchun ko‘p pog‘onali kompressorlardan foydalaniladi, ular o‘zida ketma-ket tutashtirilgan bir nechta bir pog‘onali kompressorlarni taqdim qiladi.

Alohida bosqichlar orasiga issiqlik almashinish qurilmalari o‘rnatiladi, ular oldingi bosqichda siqilgan gazning sovushini ta’minlaydi (10.5-rasm).

Gaz r_1 bosim bilan kiritish klapani orqali 1 past bosimli kompressorga kirib keladi, bu yerda 1-2 chiziq bo‘yicha politrop tarzda siqiladi (10.6,a-rasm), bunda bir qism issiqlik kompressorning devorlari orqali chiqib ketadi. Siqilgan havo 2 sovutgichga kelib tushadi, bu yerda zmeevik orqali o‘tishda oqar suv bilan T_1 boshlang‘ich haroratgacha sovuydi (2–2' chiziq) va 3 yuqori bosimli kompressorga kirib keladi. Bu yerda issiqlikning bir qismini olib ketish bilan yana siqiladi (2'–3 jarayon) va chiqish liniyasiga chiqariladi.



10.5-rasm. Ikki pog‘onali kompressorning chizmasi: 1-siqishning birinchi pog‘onasi (past bosimli kompressor); 2- oraliq sovutgich; 3-siqishning ikkinchi pog‘onasi (yuqori bosimli kompressor)

Gazni sovutgichda oraliq sovutish ishda kattagina foyda keltiradi, bu ish *r– v* koordinatalarda 22'33' maydon bilan o‘lchanadi (10.6,b-rasm). Gazning sovutgichda bergan issiqligi *T–s* koordinatalarda 22'sb maydon bilan o‘lchanadi.

Eng kichik siqish ishini olish uchun ko‘p pog‘onali kompressorlarni loyihalashda, birinchidan, kompressorning barcha bosqichlariga kirishda gazning harorati teng bo‘lishini ta’minlashga, ikkinchidan, kompressorning barcha bosqichlarida siqish ishining teng bo‘lishini ta’minlashga harakat qilinadi. Agar kompressorning har bir bosqichida bosimning ortish darajasi bir xil bo‘lsa, keyingi shartni bajarsa bo‘ladi.

Bosimning ortish darajasi deganda gazning bosqichdan chiqishdagi bosimining uning bosqichga kirishdagi bosimiga nisbati tushuniladi, ya’ni:

$$x_1 = p_2/p_1 = x_2 = p_3/p_2. \qquad (10.10)$$

va

$$w_I = w_{II}. \qquad (10.11)$$



10.6-rasm. Gazni ikki pog‘onali kompressorda siqishning *p-v* (a) va *T-s* (b) koordinatalardagi diagrammasi.

Agar kompressorda ikkita emas, *t* ta bosqich bo‘lsa, u holda ideal kompressorda bosimlarning bosqichlar o‘rtasida taqsimlanishi quyidagi shartga javob berishi lozim

$$x_1 = x_2 = \ldots = x_m = \sqrt[m]{x}. \qquad (10.12)$$

Shunday qilib, kompressorda gazning $r_{boshlang‘ich}$ boshlang‘ich va r_{oxirgi} oxirgi bosimlarini bilish bilan siqish bosimlarining $x=r_{oxirgi}/r_{boshlang‘ich}$ umumiy nisbatini aniqlash va bosqichlar bo‘yicha siqish bosimini hisoblash mumkin. So‘ngra tenglama bo‘yicha har bir bosqichda siqish ishini hisoblash va bosqichlar bo‘yicha siqish ishini yig‘indilash bilan umuman kompressorning umumiy siqish ishini aniqlash mumkin.

Kompressorda siqish bosqichlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, jarayon izotermik jarayonga shunchalik yaqinlashadi va kompressor shunchalik murakkab va shunchalik qimmat bo‘ladi. Sovutgichlar trakti bo‘ylab gazning qarshiligi unchalik katta bo‘lmaydi va shu sababli issiqlikni olib ketish jarayonlari izobaralar bo‘yicha amalga oshadi deb hisoblanadi.

Masalalar

61. Porshenli kompressor daqiqada V = 2,4 m^3 havo beradi (hajmi normallashtiriladi). Ressiverdagi havo bosimini p_1 = 0,2 MPa dan p_2 = 0,8 MPa gacha ko'tarish uchun ushbu kompressor qancha vaqt oladi. Ressiverning hajmi V_r = 5 m^3, havo harorat t = 20^0C.

Havoning gaz doimiysi R=287 J/kg·K va normal sharoitda zichligi ρ=1,205 kg/m^3. Ideal gaz holat tenglamasidan bosimini belgilangan qiymatga oshirish uchun havo massasi qancha ortishi kerakligini hisoblaymiz.

$p_1 \cdot V_R = M_1 \cdot R \cdot T_1 \qquad p_2 \cdot V_R = M_2 \cdot R \cdot T_2$

Haroratni teng deb olamiz:

$T_1 = T_2 = t + 273 = 20 + 273 = 293$

$(M_1 - M_2) = (p_2 - p_1) \cdot V_R / (R \cdot T_1) = (0{,}8 - 0{,}2) \cdot 10^6 \cdot 5 / (287 \cdot 293) = 35{,}676$ kg

Kompressorning massaviy quvvatini hisoblaymiz:

$G = V \cdot \rho = 2{,}4 \cdot 1{,}205 = 2{,}892$ kg/min.

Kompressorni berilgan massaviy quvvatida havoning massasi (M_1-M_2) necha minutda ortishini aniqlaymiz:

$\tau = (M_1 - M_2)/G = 35{,}676/2{,}892 = 12{,}34$ min.

62.Tsilindrda p = 5,1 atm bosim va harorat ostida havo mavjud t_1 = 135 ℃. V_1 = 0,88 m^3 hajmni egallaydi. Agar doimiy bosimda uning harorati t_2 = 0℃ ga tushirilsa, havo hajmi V_2, m^3 nimaga teng bo'lishini aniqlang. Tarqalgan issiqlik miqdorini va mukammal ish aniqlang. Berilgan havo o'rtacha issiqlik sig'imi cp harorat bo‘yicha adabiyot jadvaliga muvofiq olinadi.

63.Havo gaz turbinasi kompressorida siqiladi. Boshlang'ich havo harorati t_1 = 30 ℃, siqilishdan keyingi oxirgi harorat t_2 = 150 ℃. molekulyar - kinetik nazariyatsh bo‘yicha, issiqlik sig'imi qiymatlarini hisobga olgan holda siqish jarayonida havoning entalpiyasi va ichki energiyasining o'zgarishini aniqlang.

64. Dastlabki parametrlari p_1 = 0,1 MPa va T_1 = 300 K bo'lgan havo, ichki yonuv dvigatelining turbokompressorida adiabatik tarzda p_2 = 0,28 MPa bosimiga siqiladi. Keyin havo muzlatgichga kiradi, bu yerda doimiy ravishda bosim, uning harorati 37 ℃ ga tushadi. Kompressorlfub siqish ishi va 1 kg havodan olib ketilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

65.Harakatlanuvchi porshenli silindr t = 80 °C va vakuum bosim 427 gPa ga teng kislorodni o'z ichiga oladi. Kislorod doimiy ravishda

Popt=1,2 MPa ortiqcha bosimgacha bo'lgan siqiladi. Barometrik bosim P_{bar} = 993 gPa. Kislorod miqdori necha marta kamayadi.

Nazorat savollari

1. Kompressorning vazifasi nimadan iborat?
2. Kompressor kanday elementlardan iborat?
3. Kompressorlarni kanday guruhlarga bulinadi?
4. Kompressorning indikator diagrammasini tushuntirib bering.
5. Bir va ko‘p pog‘onali kompressorning termodinamik jarayonini tushuntirib bering.
6. Kompressorning FIK ni nimaga teng?

11. Yoqilg‘i va uning xossalari

Yoqilg‘i deb yonganda muayyan miqdorda issiqlik ajratadigan uglerod va uglevodorodli moddalar, energiya manbaiga aytiladi. Qattiq, suyuq va gaz holatida bo‘ladi, tabiiy hamda sun’iy xillarga bo‘linadi. Tabiiy qattiq yoqilg‘i – yog‘och, torf, slanets, toshko‘mir, antratsit va boshqalar, sun’iy yoqilg‘i - pista ko‘mir, koks, aglomerat va b. Tabiiy suyuq yoqilg‘i – neft, sun’iysi – benzin, kerosin, mazut va b., tabiiy gazeimon yoqilg‘i – tabiiy gaz, sun’iysi – domna gazi, generator gazi va b. Atom energiyasi va yarimo‘tkazgichlardan foydalanish texnikasi hamda nazariyasining rivojlanishi bilan yangi xil yoqilg‘i – yadro yoqilg‘i paydo bo‘ldi. Iqtisodiy nuqtai nazardan eng arzon yoqilg‘i –neft va tabiiy gaz. Dvigatellarda ishlatiladigan yoqilg‘i (mas, benzin, kerosin, yadro yoqilg‘isi, reaktiv yoqilg‘i va b.) yonilg‘i deb ataladi. Har qanday yoqilg‘i va yonilg‘i issiqlik ajratuvchanlik xossasi bilan ifodalanadi.

12.1-rasm. 1-ko‘mir, 2-torf, 3-neft

11.1. Yoqilg‘i tarkibi

Yoqilg‘ining tarkibiy tuzilishi uning dastlabki eng muhim tavsifi bo‘lib, turli yoqilg‘i ishlatiladigan qurilmalarda kechadigan jarayon-larni yoki uni texnologik qayta ishlashni tahlil qilishda foydala-niladigan bir qator ko‘rsatkichlarining shaklanishini belgilaydi.

Qattiq va suyuq yoqilg‘ilar katta miqdordagi murakkab birikma-lardan tashkil topgan bo‘lib, ularning molekulyar tuzilishi va minerologik tarkibi xali kerakli darajada o‘rganilmagan.

Bu yoqilg‘ilarning tarkibida namlik va mineral jinslar bo‘lib, yoqilg‘i yonganida ular kul hosil qiladi. qattiq va suyuq yoqilg‘ilarning kimyoviy tahlili uning massasidagi uglerod S, vodorod N, kislorod O, azot N, oltingugurt S kabi elementlarning va shuningdek kul A va namlik W larning qancha foizda ekanligini aniqlash imkonini beradi. Iste'molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirilgan birlamchi ko‘rinishdagi yoqilg‘i ishchi yoqilg‘i va uning massasi ishchi massasi deb ataladi. Yuqorida foizlarda keltirilgan elementlarning yoqilg‘i ishchi massasiga nisbatan ifodalanishi yoqilg‘i ishchi massasining elementar tarkibi deb ataladi.

$$C^I + H^I + O^I + N^I + S^I{}_{OR+K} + A^I + W^I = 100\% \qquad (12.1)$$

(12.1) ifodadagi indeks – I – elementar tarkib elementining ishchi massasiga tegishli ekanligini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan yoqilg‘i ishchi massasining elementar tarkibiga oltingugurt kiradi va u qattiq yoqilg‘ilarda uch xil ko‘rinishda uchraydi: organik S_{OR}, kolchedanli S_K va sulfatli S. Organik oltingugurt yoqilg‘ining yuqori molikulyar organik birikmalari tarkibiga kiradi. Kolchedanli oltingugurt metallarning sulfidi bo‘ladi (odatda temir kolchedan FeS). Yoqilg‘i yonganida tarkibidagi organik va kolchedanli oltingugurt issiqlik chiqarib oksidlanadi. Sulfatli oltingugurt yoqilg‘ilarda sulfatlar ko‘rinishida uchraydi, masalan, CaSO, MgSO va boshqalar. Bu birikmalar yonganda deyarli parchalanmaydi va kul ko‘rinishga o‘tadi. Suyuq yoqilg‘ilarda oltingugurt oltingugurtli organik birikmalar, elementar oltingugurt va oltingugurtli vodorod N_2S ko‘rinishda bo‘ladi.



12.2–rasm. Yoqilg‘ining hisobiy massasi va uning tarkibi

Yoqilg‘ining qanday sharoitda olinishi, transportirovka qilinishi va saqlanishiga qarab tarkibidagi qo‘shimchalar va namlik darajasi keng oraliqda o‘zgarishi mumkin. Shu sababli ham turli navli qattiq yoqilg‘ilarning issiqlik-texnikaviy tavsiflarini nisbiy baholashda analitik, quruq, kulsiz quruq (yonuvchi) kabi shartli tushunchalar qabul qilingan va shuningdek, suyuq yoqilg‘ining organik massasi ishchi va quruq massalarga shartli bo‘linadi (12.2 – rasm).

Laboratoriya sharoitida yoqilg‘ini tahlil qilish uchun yoqilg‘ining ma'lum kichik qismi laboratoriya xonasida tabiiy sharoitda to barcha massasi xona harorati va namligi darajasigacha etguncha quritiladi. Analitik quruq yoqilg‘i massasining elementar tarkibi quyidagi ko‘rinishda yoziladi

$$C^{A} + H^{A} + O^{A} + N^{A} + S^{A}_{or+\kappa} + A^{A} + W^{A} = 100\% \qquad (12.2)$$

Haroratning t≥105°C qiymatida yoqilg‘i sun'iy quritilib tarkibidagi namlik yo‘qotiladi va yoqilg‘ining quruq massasi olinadi

$$C^{K} + H^{K} + O^{K} + N^{K} + S^{K}_{or+\kappa} + A^{K} = 100\% \qquad (12.3)$$

Suvsiz va kulsiz yoqilg‘i elementar kimyoviy tarkibli quruq kulsiz (yonuvchi) massa bilan xarakterlanadi,

$$C^{Yo} + H^{Yo} + O^{Yo} + N^{Yo} + S^{Yo}_{or+\kappa} = 100\% \qquad (12.4)$$

Yoqilg‘ining yonuvchi massasi tushunchasi shartli bo‘lib, chunki uning tarkibiga yoqilg‘ining yonuvchi elementlari bilan azot va kislorod birikkan holatda bo‘ladi. Yoqilg‘ining yonuvchi massasi elementar tarkibidan kolchedan oltingugurtini chiqarib tashlash yoqil-g‘i massasining organik tarkibini hosil qilishga olib keladi

$$C^{O} + H^{O} + O^{O} + N^{O} + S^{O}_{Or} = 100\% \qquad (12.5)$$

Uncha murakkab bo‘lmagan hisob-kitoblar asosida yoqilg‘ining elementar tarkibini qayta hisoblab, bir massadan boshqa turdagi massaga o‘tkazish mumkin, chunki ularning bog‘lanishlar sodda proportsional ko‘rinishga ega. Masalan,

$$C^{K} = C^{I}\frac{100}{100 - W^{I}}, \quad \% \qquad H^{K} = H^{I}\frac{100}{100 - W^{И}}, \quad \% \qquad (12.6)$$

Berilgan A_1^I va W_1^I uchun aniq bir yoqilg‘ining ishchi massasi tarkibi ma'lum bo‘lsa, u holda iste'molchiga uzatilganidan so‘ng bu yoqilg‘ining kullik va namlik ko‘rsatkichlari o‘zgargan qiymatda bo‘ladi (A_2^I va W_2^I) va yoqilg‘i tarkibini qayta hisoblash quyidagi ifodalar bilan amalga oshiriladi

$$C^K = C^I \frac{100 - A_2^I - W_2^I}{100 - A_1^I - W_1^I}, \qquad H^K = H^I \frac{100 - A_2^I - W_2^I}{100 - A_1^I - W_1^I}$$

Hisob-kitoblarning to‘g‘riligi quyidagi tenglikning bajarilishi bilan tekshiriladi

$$C_2^I + H_2^{\ I} + O_2^{\ I} + N_2^{\ I} + S_{(Or+K)}^I + A_2^{\ I} + W_2^{\ I} = 100\% \qquad (12.7)$$

Ikki qattiq yoki suyuq yoqilg‘i aralashmasi yoki suyuq va qattiq yoqilg‘ilarning aralashmalari uchun berilgan massalarining ulushlari m_1 va $m_2 = 1 - m_1$ asosida aralashmalarning ishchi (yoki har qanday boshqa) massalari elementar tarkibi siljish ifodasi bo‘yicha aniqlanadi. Masalan,

$$C_{AR}^I = C_1^I m_1 + C_1^I (1 - m_1), \qquad H_{AR}^I = H_1^I m_1 + H_2^I (1 - m_1),$$

bu yerda $C_1^I, C_2^I, C_{AR}^I, H_1^I, H_2^I, H_{AR}^I$ – mos ravishda birinchi va ikkinchi yoqilg‘ilarning va yoqilg‘i aralashmasining tarkibida uglerod, vodorod va boshqa elementlarning foizlardagi salmog‘i, %.

Qattiq yoki suyuq yoqilg‘ining issiqlik energiyasi manbai sifatidagi ko‘rsatkichi uning elementar tarkibiga ko‘proq bog‘liq. Bu yoqilg‘ilarning asosiy yonuvchi elementi bu ugleroddir. Uglerodning to‘liq yonishida ajraladigan solishtirma issiqlik miqdori 34,4 MJ/kg ni tashkil etadi, yoqilg‘i aralashmasidagi ulushi birmuncha ko‘pligi hisobiga (yog‘ochda 50% gacha, antratsitda esa 95% gacha) yoqilg‘ining umumiy issiqlik chiqarishdagi uning ulushi ham shunga yarasha yuqoridir. Yoqilg‘ining yonuvchi komponentlari orasida vodorod ugleroddan keyin ikkinchi bo‘lib, uning yonishi natijasida hosil bo‘ladigan solishtirma issiqli miqdori 119 MJ/kg ni tashkil etadi. qattiq va suyuq yoqilg‘ilarning yonuvchi massalaridagi vodorodning foiz ulushi 2% dan (antratsit) 10,5% gacha (mazut) bo‘ladi. Kislorod bilan azot yoqilg‘ilarning yonuvchi massalari tarkibining eng noaktiv elementlaridir, chunki bu elementlarning bo‘lishi yoqilg‘i tarkibidagi asosiy yonuvchi elementlar bo‘lgan uglerod va vodorodning kamayishiga olib keladi. Yoqilg‘ining organik massasida kislorodning bo‘lishi bir qism uglnrod va vodorodning oksidlangan ekanligini bildiradi va bu esa yoqilg‘ining issiqlik hosil qilish xususiyatini pasaytiradi. Yoqilg‘ining geologik yoshi oshib borishi bilan yoqilg‘ida kislorod miqdori kamayib bordi. Yoqilg‘i yonishi davomida yonuvchi massasidagi azot gazsimon yonish mahsulotiga aylanadi. Ba'zida kislorod va azot yoqilg‘ining ichki yoki tashkiliy ballasti ham deb

yuritiladi. Qattiq va suyuq yoqilg‘ilarning tarkibiga kiruvchi yonuvchi oltingugurt (organik va kolchedan) yoqilg‘ining yonishi vaqtida oltingugurt gazi SO_2 ni hosil qilgan holda oksidlanadi. Bunda ajralib chiqayotgan solishtirma issiqlik miqdori 9,3 MJ/kg bo‘lib, vodorod yoki uglerodning yonishida hosil bo‘ladigan solishtirma issiqlik miqdoridan ancha kichikdir. Oltingugurtning juda oz qismi yonishi vaqtida oltingugurt angidrid SO_3 hosil qiladi, ammo u texnik hisob-kitoblarda hisobga olinmaydi. Yoqilg‘i tarkibida oltingugurtning bo‘lishi, yonuvchi massasidagi uglerod va vodorodning kamayishiga olib keladi va bu o‘z navbatida yoqilg‘i yonish issiqligining kamayishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari oltingugurt oksidi issiqlik ishlatiladigan qurilmalar metall elementlarining korroziyasini yuzaga keltiradi va bu elementlar orasidagi issiqlik uzatishga salbiy ta'sir qiladi. qattiq va suyuq yoqilg‘ilardagi oltingugurtning ulushi 0,5% dan 7% gacha oraliqda bo‘ladi (yonuvchi slanetslarda 15% gacha). Kul va namlik yoqilg‘i tarkibidagi nozarur komponent bo‘lib, uning tashqi ballasti hisoblanadi.

Yoqilg‘ining ishchi massasida kul va namlik miqdorining ko‘payib ketishi yoqilg‘i qismining kamayishiga olib keladi va bu esa yoqilg‘i massasining issiqlik chiqarish birligining kamayishiga sabab bo‘ladi. Nam yoqilg‘ini yoqish vaqtida issiqlikning ma'lum bir qismi namlikni qochirishga va suv bo‘g‘larini qizdirishga sarf bo‘ladi va bu ajralib chiqayotgan issiqlik qiymatining hamda mos ravishda yonish haroratini kamayishiga olib keladi. Gazsimon yoqilg‘i (tabiiy yoki sun'iy) yonuvchi va yonmaydigan individual gazlarning hamda suv bug‘larining fizik aralashmasidan iborat bo‘ladi.

12.1 – jadval

Yoqilg‘i tarkibini bir massadan ikkinchisiga hisoblab o‘tkazish ko‘phadlari

Yoqilg‘ining ilk massasi	Yoqilg‘ining aniqlanadigan massasi				
	Ishchi	Analitik	quruq	Kulsiz quruq (yonuvchi)	Organik
Ishchi	1	$\frac{100-W^{A}}{100-W^{И}}$	$\frac{100}{100-W^{И}}$	$\frac{100}{100-\left(A^{И}-W^{И}\right)}$	$\frac{100}{100-(S_{OP+K}^{И}+A^{И}+W^{И})}$
Analitik	$\frac{100-W^{И}}{100-W^{A}}$	1	$\frac{100}{100-W^{A}}$	$\frac{100}{100-\left(A^{A}-W^{A}\right)}$	$\frac{100}{100-(S_{OP+K}^{A}+A^{A}+W^{A})}$
quruq	$\frac{100-W^{И}}{100}$	$\frac{100-W^{A}}{100}$	1	$\frac{100}{100-A^{K}}$	$\frac{100}{100-(S_{OP+K}^{K}+A^{K})}$
Kulsiz quruq (yonuvchi)	$\frac{100-(A^{И}+W^{И})}{100}$	$\frac{100-(A^{A}+W^{A})}{100}$	$\frac{100-A^{K}}{100}$	1	$\frac{100}{100-(S_{OP+K}^{Ё})}$
Organik	$\frac{100(S^{И}_{OP+K}+A^{И}+W^{И})}{100}$	$\frac{100-(S^{A}_{OP+K}+A^{A}+W^{A})}{100}$	$\frac{100-(S^{K}_{OP+K}+A^{K})}{100}$	$\frac{100-S^{Ё}_{OP+K}}{100}$	1

Individual yonuvchi gazlarga uglerod oksidi SO, vodorod N_2, metan SN_4, oltingugurtli vodorod H_2S, turli cheklangan va cheklanmagan uglevodorodlar S_mN_n kiradi. Yonmaydigan gazlarga uglerodning ikki oksidi SO_2, oltingugurtli gaz SO_2, azot N_2, kislorodO_2 kiradi.

Gazsimon yoqilg‘ining tarkibiy tuzilishi tashkil etuvchi gazlarning foizli ulushi bilan aniqlanadi va umumiy holda quruq yoqilg‘i uchun quyidagicha ifodalanadi

$$SO + N_2 + SN_4 + \Sigma S_mN_n + H_2S + SO_2 + N_2 + O_2 = 100\% \quad (12.8)$$

Gazsimon yoqilg‘ining namligi dt, 1m^3 hajmdagi normal holatga keltirilgan, ya'ni harorati 273 °K (0°C) va bosimi 0,1013 MPa (760 mm.simob ustuni) quruq gazda mavjud bo‘lgan suv bug‘larining miqdori bilan aniqlanadi.

Gazsimon yoqilg‘i tarkibida boshqa qo‘shimchalarning bo‘lishi (ko‘mir va minerallarning kukuni, smolaning bug‘i va h.k.) va ularning ulushi, suv bug‘larning ulushi qanday ifodalansa xuddi shunday ifodalanadi. Ba'zi hollarda yoqilg‘idan foydalaniladigan qurilmalarda gazsimon yoqilg‘ilarning aralashmalari (koks va domna pechlari gazi, tabiiy va koks gazi va h.k.) yoqiladi.

Ikki gazsimon yoqilg‘i aralashmalari tarkibi, berilgan hajmiy foizli ulushlari nva n_2=1-n_1 bo‘yicha, qattiq yoqilg‘ilar aralashmaniki kabi siljitish ifodalari bilan aniqlanadi. Masalan,

$$SN_{4AR}=n_1CH_4'+(1-n_1)CH_4''$$

$$N_{2AR}=n_1CH_2'+(1-n_1)H_2'',$$

bu yerda - CH_4', CH_4'', SN_{4SM}, N_{2SM}, CH_2', H_2'' – mos ravishda birinchi va ikkinchi gazsimon yoqilg‘ilardagi hamda ularning aralashmalaridagi metan, vodorod konttsentratsiyalari, %.

11.2. Yoqilg‘ining kulligi va namligi

Kul yoqilg‘ining to‘liq yonishi natijasida hosil bo‘ladigan mineral qoldiq. Kulning hosil bo‘lishiga asosiy sabab, bu yoqilg‘i tarkibida mineral qo‘shimchalarning bo‘lishidir. Kullar tabiatiga ko‘ra birlamchi, ikkilamchi va uchchilamchi turlarga bo‘linadi. Birlamchi kullar yoqilg‘i hosil qiluvchi moddalar tarkibiga kiruvchi minerallardan hosil bo‘ladi; ikkilamchi kullar yoqilg‘i hosil bo‘lishi jarayonida yoqilg‘iga qo‘shilib qolgan mineral qo‘shimchalardan hosil bo‘ladi va uchchilamchi kullar esa yoqilg‘ini qazib olish jarayonida qo‘shilib qolgan mineral qo‘shimchalardan hosil bo‘ladi. Bunday qo‘shimchalarga

sulfatlar, karbonatlar, silikatlar, fosfatlar, xloridlar, piritlar va boshqa birikmalar kiradi. Kul tarkibiga Al_2O_3, , Na_2O, K_2O, SiO_2, FeO va shu kabi oksidlar ham kiradi.

Qattiq yoqilg‘ilarda mineral qo‘shimchalarning salmog‘i keng oraliqda o‘zgaradi: yog‘och yoqilg‘ilarda 1-2%, yonuvchi slanetslarda 70% gacha, ko‘mirda 10-40%, suyuq yoqilg‘ilarda esa 1% dan oshmaydi.

Laboratoriya sharoitida yoqilg‘ining kullik darajasini aniqlash uchun oldindan quritib olingan namuna yoqiladi va olingan qoldiq platinadan tayyorlangan tigelda o‘zgarmas massaga kelgunga qadar 500°S gacha (mazut uchun) yoki 850 °C gacha qizdiriladi (qattiq yoqilg‘i uchun). Yonmay qolgan qoldiqni tortish natijasida ilk yoqilg‘i tarkibidagi kul miqdori aniqlanadi.

Yoqilg‘ining yonishi jarayonida mineral qoldiqlar qattiq holatdan suyuq holatga o‘tishi va shlak deb ataluvchi mineral eritmalarni yuzaga keltirishi mumkin. Kullarning asosiy tavsiflaridan biri uning eruvchanligidir. Laboratoriya sharoitida kulning eruvchanligini aniqlash uchun kul elektr pech ichida chala tiklanuvchan gazli muhit (SO-60%, SO-40%) yuzaga keltiriladi va tadqiqot qilinishi kerak bo‘lgan kulning maydalangan standart o‘lchamdagi piramidachalari pech ichiga solinib qizdiriladi. Piramidachalar yoki ularning uchlari egilishi boshlanishini yuzaga keltiruvchi harorat t_1 kulning dnformatsiyalanishi boshlanishi harorati deb ataladi. Piramidachalar uchlarining asosiga qadar egilishini yuzaga keltiruvchi harorat t_2 kulning erishi boshlanishi harorati deb ataladi. Piramidachalarning erib taklik yuzasiga oqib tushishini belgilovchi haroratt kulning suyuq holatga o‘tishi boshlanishi harorati bo‘ladi. Qattiq yoqilg‘i kullari eruvchanligi tavsifi bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi: engil eruvchi kullar ($t_k \leq 1350$ °C), o‘rtacha eruvchi kullar (t_k =1350-1450°C) va qiyin eruvchi kullar (t_k=1350-1450°C).

Yoqilg‘i tarkibida kulning ko‘p miqdorda bo‘lishi, hosil bo‘ladigan shlaklarni chiqarib tashlash hamda gaz tozalagichlar uchun qo‘shimcha sarflarning ko‘payishi va shuningdek shlak va kullarda issiqlik isroflarining oshishi hisobiga yoqilg‘i ishlatiladigan qurilmalarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkich-larini kamayishiga olib keladi.

Qattiq yoqilg‘ilarning namligini tashqi va ichki namliklarga ajratish qabul qilingan. Tashqi namliklarga ochiq havzadagi va er ostidagi suvlar, atmosfera havosining namligi, yoqilg‘ini qazib olishda,

transportirovka qilishda va saqlash davomida uning yuzasini namlaydi, mayda kapillyarlari hamda tirqichlar orqali ichkarisiga kirib boradi va ayniqsa torf va qo‘ng‘ir ko‘mirlarning namlanishida katta rol o‘ynaydi. Yoqilg‘i yuzasi o‘lchamlarining kichrayib borishi namlik solishtirma qiymatining shiddatli oshishiga olib keladi va natijada yoqilg‘ida namlik qiymati oshadi. Tashqi namlikni yoqilg‘ini quritish bilan yo‘qotish mumkin.

Yoqilg‘ining ichki namligiga kolloidli va gidratli (kristallgidratli) namlik kiradi. Kolloidli namlik yoqilg‘ining massasi bo‘ylab bir tekis taqsimlangan bo‘ladi va uning miqdori yoqilg‘ining kimyoviy tabiati va tarkibiga bog‘liq. Yoqilg‘ining geologik yoshi oshib borishi bilan kolloidlik namlik sezilarli darajada kamayib boradi. Gidratli namlikning miqdori yoqilg‘ining mineral qismi kimyoviy birikmalari tarkibiga (asosan sulfat kaltsiy) kiradi. Gidratli namlik miqdori yoqilg‘i tarkibida nisbatan uncha ko‘p bo‘lmasa ham uni yo‘qotish uchun yoqilg‘ini yuqori haroratgacha qizdirish kerak bo‘ladi.

O‘ta namlikka ega bo‘lgan yoqilg‘ini ochiq havoda saqlash vaqtida namligining bir qismini yo‘qotiladi, quritilgan yoqilg‘ini ochiq havoda saqlash vaqtida esa bu yoqilg‘i qo‘shimcha namlikni havodan tortib ola boshlaydi va bu jarayon yoqilg‘i yuzasidagi to‘yingan suv bo‘g‘i bosimi yoqilg‘i yuzasiga berilayotgan atmosfera nam havosi bosimi bilan tenglanguncha davom etadi. Tabiiy sharoitlardagi yoqilg‘ining turg‘un namligi. uning quruq-havoli namligi deyiladi. Yoqilg‘i namligining oshishi yoqilg‘i yonish issiqligining kamayishiga, yonish mahsuloti hajmining oshishiga va natijada yonish haroratini kamayishiga olib keladi. Pirovardida yoqilg‘idan foydalanish qurilmasining foydali ish koeffitsiyenti pasayadi, yoqilg‘ining solishtirma sarfi oshadi (ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan). Yoqilg‘i namligining oshishi uning sochiluvchanligini yomonlashtiradi, qish vaqtida esa yoqilg‘ining muzlashiga olib keladi va bu esa uning trasportirovaka qilish va foydalanishni juda qiyinlashtiradi.

11.3. Yoqilg‘i yonishi issiqligi

Yoqilg‘i yonish issiqligi, yoqilg‘i massa birligining (gazsimon yoqilg‘ilar uchun hajmiy) to‘liq yonishida hosil bo‘ladigan issiqlik miqdori bo‘lib, u MJ/kg yoki MJ/m^3 larda o‘lchanadi. Yoqilg‘ilarning yonishida, qattiq va suyuq yoqilg‘ilar tarkibidagi yonuvchi kompo-

nentlarning oksidlanishi (uglerod, vodorod va oltingugurtlarning) yoki gazsimon yoqilg‘ilarning tarkibidagi yonuvchi gazlarning (uglerod oksidi, vodorod, metan va boshqa uglevodorod, oltingugurtli vodorodlarning) oksidlanishi ekzotermik reaktsiya bo‘lgani sababli issiqlik ajralib chiqadi

Yoqilg‘i yonish issiqligi ishchi, analitik, quruq, yonuvchi yoki organik massalarga ta'luqli bo‘lishi mumkin va u mos ravishda quyidagicha belgilanadi: Q^I, Q^A, Q^K, Q^{Yo} va Q^O. Texnik hisob-kitoblarda yonish issiqligi qiymati yoqilg‘ining ishchi massasiga nisbatan olingan qiymatlari foydalaniladi.

Qattiq va suyuq yoqilg‘ilarning yonuvchi elementlari juda xilma-xil va murakkab kimyoviy birikmalardan tashkil topgan bo‘lgani sababli ham uning barcha jihatlarini hisobga olishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham bu yoqilg‘ilarning yonish issiqliklarini aniq hisoblash mumkin emas. Bu yoqilg‘ilarning yonish issiqliklari kalorimetrik usulda tajriba asosida aniqlanadi, bu usulning asosini maxsus idish (kalorimetrik bomba) tashkil etib, bu idish kislorod bilan to‘ldirilgan bo‘ladi va yoqilg‘i shu muhitda yoqiladi hamda suv kalorimetri yordamida ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori o‘lchanadi. o‘lchashlar natijasida yoqilg‘ining yonishida hosil bo‘lgan issiqlik hisoblanadi va bu issiqlik kalorimetrik bomba bo‘yicha yonish issiqligi QB deb ataladi.

Yoqilg‘ining to‘liq yonishida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori yonuvchi mahsulot tarkibida namlikning qanday agregat holatida (yoqilg‘i yonishi natijasida ajralib chiqayotganligiga va vodorodning yonishi natijasida hosil bo‘lishiga) bo‘lishiga, ya'ni bug‘ ko‘rinishida yoki suyuqlik ko‘rinishida bo‘lishiga bog‘liq. Agar yonuvchi mahsulotlardagi barcha suv bug‘lari kondensatsiyalansa va suyuq holatga o‘tsa (gazlarning harorati suv bug‘i haroratining shudringlanish nuqtasidan past bo‘lganda), u holda yonish issiqligi oliy Q_{Ol} deyiladi. Agar suv bug‘larining kondensiyalanishi sodir bo‘lmasa, u holda yonish issiqligi past Q_P deyiladi. Yuqori va past yonish issiqliklarining farqi, yoqilg‘ining yonuvchi mahsulotlari tarkibidagi suv bug‘larining kondensatsiyalash issiqligini beradi.

Oliy va past yonish issiqlik qiymatlari orasidagi o‘zaro analitik bog‘lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$Q_{Ol} = Q_P + r_b \cdot G_{N2O}\,, \qquad (12.9)$$

bu yerda G–bir kilogramm yonuvchi mahsulot tarkibidagi namlikning massasi, kg; r_b–suv bug‘ining bug‘ o‘zgartirishdagi (kondensatsiyalanishi) solishtirma issiqligi 2,51 MJ/kg ga teng deb qabul qilingan.

1 kg qattiq yoki suyuq yoqilg‘ini yoqishda hosil bo‘ladigan G_{N2O} ning solishtirma qiymati, kg/kg

$$G_{N2O} = 0{,}01\,(9N^I + W^I), \qquad (12.10)$$

gazsimon yoqilg‘ini yoqqanda esa, kg/m^3,

$$G_{N2O}=0{,}00804\,(N_2 + 2SN_4 + \ n/2\ \Sigma S_mN_n + N_2S), \qquad (12.11)$$

bu yerda H^I va W^I –yoqilg‘i ishchi massasidagi vodorod va namlikning foizli ulushi, *% ;*

N_2, SN_4, S_mN_n, N_2S – gazsimon yoqilg‘i tarkibidagi mos gazlarning kontsentratsiyasi, %.

Yonish issiqligining kalorimetrik usul bilan tajriba asosida aniqlangan qiymati QB, suv bug‘larining kondensatsiyalash shartlari bo‘yicha, yonuvchi mahsulotlar tarkibidagi suv bug‘ilarining qiymatini hisobga olingan bo‘lsa ham uning qiymati QV qiymati bilan to‘g‘ri kelmaydi, chunki yoqilg‘ining kalorimetrik bomba ichida kislorodli muhitda yonishi vaqtida qo‘shimcha ekzometrik reaktsiyalar yuz berib, real sharoitda yoqilg‘ining yonishida sodir bo‘lmaydigan oltingugurt va azot kislotalari hosil bo‘ladi. Shuning uchun bir xil yoqilg‘ini yoqqanimizda QB ning qiymati QV dan katta bo‘ladi va ular o‘rtasidagi farq yuqorida keltirilgan kislotalarning hosil bo‘lishi bilan izohlanadi.

Q_V va Q_B qiymatlar orasidagi farq quyidagi ifoda bilan ifodalanadi

$$Q_V= Q_B - 9{,}42\cdot 10^{-2}\cdot S^I_{OR+K} - k\cdot Q_B, \qquad (12.12)$$

bu yerda $9{,}42\cdot 10^{-2} S^I_{OR+K}$ – oltingugurt kislotasi hosil bo‘lishida yuzaga keladigan issiqlik, MJ/kg; kQ_B – azot kislotasi hosil bo‘lishida yuzaga keladigan issiqlik, MJ/kg; k - koeffitsiyenti boyitilmagan (tohix) ko‘mirlar, antratsitlar va suyuq yoqilg‘ilar uchun 0,001 deb va qolgan barcha ko‘mirlar, yonuvchi slanetslar va torflar uchun esa 0,0015 deb qabul qilingan.

Yonuvchi slanetslar uchun Q^I_V ni hisoblashda, yoqilg‘i yonish issiqligining qo‘shimcha ma'lum bir qismi, ya'ni mineralli qismidan karbonatlar ajralib chiqishiga sarf bo‘ladigan issiqlik hisobga olinadi.

Yonuvchi slanetslar (va boshqa tarkibida 2% dan ko‘p karbonat bo‘lgan yoqilg‘ilarni) issiqligini hisoblash ifodasi, MJ/kg,

$Q^I_V = Q_B$ - $(9{,}42 \cdot 10^{-3} \cdot S^I_{I+K} + k \cdot Q_B) - 40{,}6 \cdot 10^{-3} (CO_2)_K$, (12.13)

bu yerda $40{,}6 \cdot 10^{-3}$ $(CO_2)_k$ – karbonatlarning ajralishida hosil bo‘ladigan issiqlik, MJ/kg;

$(SO_2)_K$ - yoqilg‘i tarkibida karbonatlar SO_2 ning foizli ulushi, % .

Real sharoitlarda yoqilg‘idan foydalaniladigan qurilmalarda, ko‘pgina hollarda yoqilg‘i yonganidan so‘ng hosil bo‘ladigan mahsulotlari, tarkibidagi suv bug‘larining shudringlanish harorati nuqtasidan bir muncha yuqori bo‘lgan haroratda, atmosferaga chiqib ketadi. Bu holda suv bug‘larining kondensatsiyalashdagi issiqligidan foydalanilmaydi va u issiqlik hisob-kitoblarga kiritilmaydi. Shu sababli ham texnik hisob-kitoblarda Q^I_N ning qiymatigina hisobga olinadi.

Yoqilg‘ining aniq bir turi uchun Q^I_P bilan past yonish issiqlik qiymatlarining quruq Q^K_P va Q_{Yon} yonuvchi massalari bilan o‘zaro bog‘liqligi quyidagi ifodalar bilan ifodalanadi, MJ/kg,

$$Q^I_P = Q^K_P \frac{100 - W^I}{100} - 0{,}01251 W^I,$$
$$Q^K_P = Q^{Yo}_P \frac{100 - A^I - W^I}{100} - 0{,}01251 W^I \qquad (12.14)$$

Yoqilg‘ining aniq bir turi uchun ishchi massasidagi kul va namlik-ning o‘zgarishi natijasida yonish issiqligi qiymatiining o‘zgargan yangi qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi, MJ/kg

$$Q^I_{P2} = (Q^I_{P1} + 0{,}01251 W^I_1) \frac{100 - A^I_2 - W^I_2}{100 - A^I_1 - W^I_1} - 0{,}01251 W^I_2, \qquad (12.15)$$

bu yerda Q^I – A^I, W^I qiymatlaridagi yoqilg‘i ishchi massasining yonish issiqligi, MJ/kg; A^I_2 va W^I_2 –yoqilg‘ining mos kullik va namliklarining yangi qiymatlari, %.

(12.15) ifoda quyidagi mulohazalar asosida hosil qilindi. Ballast tarkibi turlicha bo‘lgan bir turdagi yoqilg‘i uchun quyidagi ifoda o‘rinlidir:

$$Q^I_{P1} = Q^{Yo}_P \frac{100 - A^m_1 - W^I}{100} - 0{,}01251 W^m_1$$

$$Q^K_{P2} = Q^{Yo}_P \frac{100 - A^I_2 - W^m_2}{100} - 0{,}01251 W^m_2$$

yoki

$$Q^I_{P1} + 0{,}01251 W^m_1 = Q^{Yo}_P \frac{100 - A^m_1 - W^I}{100}$$

$$Q^K_{P2} + 0{,}01251 W^m_2 = Q^{Yo}_P \frac{100 - A^I_2 - W^m_2}{100}$$

Agar bu tenglamalarining chap va o‘ng tomonlari nisbatini olib hamda Q^{Yo}_{N} ning har ikki yoqilg‘i uchun o‘zgarmas qiymatda bo‘lishini hisobga oladigan bo‘lsak, u holda (12.13) ifoda osonlik bilan hosil bo‘ladi.

Qattiq yoki suyuq yoqilg‘i uchun uning yonish issiqligi bo‘yicha tajribaviy qiymatlari bo‘lmagan holda bu qiymatni taqribiy hisoblash uchun Mendeleevning empirik ifodasidan foydalanish mumkin, MJ/kg,

$$Q_P^I = 0{,}33C^I - 1{,}03H^I - 0{,}109(O^I - S_{OR+K}^I) - 0{,}01251W^I \qquad (12.16)$$

Quruq gazsimon yoqilg‘ining past yonish issiqligi, tarkibiga kiruvchi alohida yonuvchi gazlarning kontsentratsiyasini hisobga olgan holda har birining yonish issiqliklari yig‘indisi sifatida analitik hisoblanadi, MJ/m^3,

$$Q_P^K = 0{,}01\left(Q_{CH4}\cdot CH_4 + Q_{CO}\cdot CO + Q_{H2}\cdot H_2 + \sum Q_{C_mH_n}\cdot C_mH_n + Q_{H_2S}\cdot H_2S\right), \qquad (12.17)$$

bu yerda $Q_{CH_4}, Q_{H2}, Q_{CO}, Q_{C_mH_n}, Q_{H_2S}$ – mos gazlarning past yonish issiqliklari, MJ/m^3; CN_4, SO, ON, C_mH_n, N_2S – quruq gazsimon yoqilg‘idagi mos gazlarning foiz ulushlari, %. $Q^{Ñ}_{Â}$ ni hisoblash ifodasi ham shunday tarkibiga ega bo‘ladi.

Ikki qattiq yoqilg‘i yoki qattiq (suyuq) yoqilg‘ilarning shartli aralashmasining yonish issiqligi, aralashmalar tarkibidagi ularning massali foizli ulushlarini hisobga olgan holda yonish issiqliklarining yig‘indisi tarzida hisoblanadi, MJ/kg,

$$Q_{PAp}^I = m_1 Q_{P1}^I + \left(1 - m_2\right) Q_{P2}^I, \qquad (12.18)$$

bu yerda m_1 – birinchi yoqilg‘ining aralashma massasidagi ulushi; Q^I_{P1} va Q^I_{P2}–birinchi va ikkinchi yoqilg‘ilarning yonish issiqligi, MJ/kg.

Agar yoqilg‘i aralashmasidagi har bir tashkil etuvchisi issiqlik ajralishi bo‘yicha q_1 va q_2=I-q_1 ulushlarda berilgan bo‘lsa (yoqilg‘i aralashmasining birinchi va ikkinchi tashkil etuvchilarining yig‘indi issiqlik ajralashmasidagi ulushi), u holda massali ulushga o‘tkazishda quyidagi ifodadan foydalaniladi

$$m_1 = \frac{q_1 Q_{P2}^I}{q_1 Q_{P2}^I + \left(1 - q_1\right) Q_{P1}^I}\ , \qquad (12.19)$$

(12.19) ifoda quyidagilar asosida hosil qilingan. Aralashma yig‘indi issiqlik ajralishidagi birinchi yoqilg‘ining ulushi quyidagicha ifodalanadi:

$$q_1 = {m_1 Q_{P1}^I}/{Q_{PAr}^I}$$

bu yerda Q_{PAr}^I–aralashmaning yonish issiqligi, MJ/kg. (12.18) ni hisobga oladigan bo‘lsak

$$q_1 = \frac{m_1 Q_{P1}^I}{m_1 Q_{P1}^I + (1 - m_1) Q_{P2}^I},$$

u holda tenglamani m_1 ga nisbatan echganimizda (12.19) ifodani hosil qilamiz.

Agar ikki tashkil etuvchidan iborat bo‘lgan gazsimon yoqilg‘i tarkibining umumiy issiqlik ajralishidagi bir gazning issiqlik ajralishi bo‘yicha ulushi berilgan bo‘lsa, u holda xuddi shunday ifodalar yordamida ularning hajmiy ulushlari orasidagi bog‘lanishlari aniqlanadi. qattiy (suyuq) yoqilg‘ining gazsimon yoqilg‘i bilan birga yoqilishini hisoblashda, 1 kg qattiq (suyuq) yoqilg‘iga to‘g‘ri keladigan gazsimon yoqilg‘ining solishtirma hajmi (m^3/kg) hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Bunda aralashmaning shartli yonish issiqligi hisoblanadi, MJ/kg

$$Q_{PAr}^V = Q_P^I + x Q_P^K, \qquad (12.20)$$

bu yerda Q^I_P va Q^I_P –mos ravishda qattiq (suyuq) yoqilg‘ining yonish issiqligi, MJ/kg, va gazsimon yoqilg‘ining yonish issiqligi MJ/m^3; *x* – 1 kg qattiq (suyuq) yoqilg‘iga to‘g‘ri keladigan gazsimon yoqilg‘ining miqdori, m^3.

Turli yoqilg‘ilarning yonish issiqliklari turlicha qiymatlarga ega bo‘ladi. Yoqilg‘ilarni o‘zaro solishtirishda va zarur bo‘lgan issiqlik miqdorini hisoblashda shartli yoqilg‘i tushunchasidan foydalaniladi.

Shartli yoqilg‘ining yonish issiqligi deb Q_{ShRT}=29,33 MJ/kg qiymat qabul qilingan. Real yoqilg‘i sarfini shartli yoqilg‘i sarfiga quyidagi ifoda bilan keltiriladi

$$B_{ShRT} = {B Q_P^R}/{Q_{ShRT}}, \qquad (12.21)$$

bu yerda V – yonish issiqligi Q^I_P bo‘lgan real yoqilg‘i sarfi.

Q^I_P/Q_{ShRT} nisbat yoqilg‘ining E issiqlik ekvivalenti deb ataladi, ya'ni B_{ShRT}=V·E.

Yoqilg‘ining yonish issiqligiga uning namligi va kulligining ta'siri katta ekanligini hisobga olgan holda, turli ko‘rinishdagi organik yoqilg‘ilarning yonish issiqliklarini nisbiy baholashda namlik va kulliklarining keltirilgan tavsiflari W^{II} va A_1^{II} dan ham foydalaniladi va

bu tavsiflar quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$W^{II} = W /Q^{I}_{P};\ A^{II} = A^{I}/Q^{I}_{II}\ , (\%, kg)\ MJ. \qquad (12.22)$$

Keltirilgan A^{II} va W^{II} tavsiflar turli yoqilg‘ilarni taqqoslanuvchi birliklarda solishtirish imkonini beradi. $W^{II}<0{,}7$ (%·kg)/MJ bo‘lgan yoqilg‘i kam namlikdagi yoqilg‘i, $0{,}7<W^{II}<1{,}89$ bo‘lgan yoqilg‘i o‘rta namlikdagi yoqilg‘i va $W^{II}>1{,}89$ bo‘lgan yoqilg‘i esa yuqori namlikdagi yoqilg‘i deb ataladi. $A^{II}\leq1{,}0$ bo‘lgan yoqilg‘i kam kulli yoqilg‘i (antratsitlar va toshko‘mirlarning asosiy qismi) hisoblanadi. qo‘ng‘ir ko‘mirlar uchun keltirilgan kullik A^{II}=1,9-2,4 ga teng bo‘lsa, yonuvchi slanetslar uchun esa bu ko‘rsatkich A^{II}=5-10 (%·kg)/MJ gateng bo‘ladi.

W^{II} va A^{II} qiymatlarining yuqori bo‘lishi, yoqilg‘i ballastida yonmaydigan tashkil etuvchilarning salmog‘i ko‘p ekanligini bildiradi va bu esa yoqilg‘i energetik ko‘rsatkichining past ekanligini anglatadi. Bunday yoqilg‘ilarni uzoq masofalarga transportirovka qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Bu yoqilg‘ilar qazib olingan konlariga yoki chiqarib olinadigan joylariga yaqin sanoat korxonalarida ishlatilishi maqsadga muvofiq va shuning uchun ham bu yoqilg‘ilar ko‘pincha mahalliy yoqilg‘ilar deb ham ataladi.

Masalalar

66. Yoqilg'i xossalari jadvallarida quyidagi tarkib ko'rsatilgan bo'lsa, ish holatidagi yoqilg'ining tarkibini aniqlang: S_1^r=38,6%; N_1^r=2,6%; S_1^r=3,8%; N_1^r=0,8%; O_1^r=3,1%; W_1^r=11+№/2 %; A_1^r– qolganlari. Texnik tahlil shuni ko'rsatdiki, yoqilg'ining haqiqiy namligi W_2^r=16+№/2 %. Haqiqiy namlikdagi yoqilg'ining tarkibini va uning yonish issiqligini aniqlang.

67. Yoqilg'i tarkibi quyidagicha berilgan: S^s=50+№/2 %; N^s=№/5 %; S^s=1+№/20 %; N^s=1%; O^s=5+№/20 %; qolganlari - A^s; W^r=№ %. Ish sharoitida quyi yonish issiqligi qiymatini aniqlang.

68. Gazli yoqilg'ining tarkibi quyidagicha berilgan: SN_4=50-№ %; SO=10+№/2 %; N_2=10+№/2 %; qolganlari - N_2. Yonish issiqligini aniqlang.

69. Gaz holatidagi yoqilg‘ining tarkibi quyidagicha berilgan: SN_4=50+№ %; N_2=25-№ /2 %; SO=25-№/2 %. Yoqilg‘i sarfi V=3000+№·10 m^3/soat bo‘lsa, issiqlik quvvatini aniqlang.

Nazorat savollari

1. Yoqilg‘i deb nimaga aytiladi?
2. Yoqilg‘i ishchi massasining elementar tarkibi qanday yoziladi?
3. Yoqilg‘i analitik massasining elementar tarkibi qanday yoziladi?
4. Yoqilg‘i quruq massasining elementar tarkibi qanday yoziladi?
5. Yoqilg‘i yonuvchi massasining elementar tarkibi qanday yoziladi?
6. Yoqilg‘ining qanday xossalarini bilasiz?
7. Yoqilg‘ining kulligi va namligini tushuntirib bering.
8. Yoqilg‘i qanday yonishi issiqligiga ega?

12. Bug‘-kuch va sovutish qurilmalarining sikllari

12.1. Bug‘-kuch qurilmasi. Renkin sikli

Bug‘-kuch qurilmalarida ishchi jism sifatida turli suyuqliklarning (suv, simob va boshqalar) bug‘laridan foydalaniladi, biroq ko‘pincha suv bug‘idan foydalaniladi.

Bug‘-kuch qurilmasi (12.1-rasm) quyidagicha ishlaydi: 1 bug‘ qozonida o‘choqda yoqilg‘ini yoqish hisobiga olinadigan Q_1 issiqlikni olib kelish hisobiga p_1 o‘zgarmas bosimli bug‘ hosil bo‘ladi. 2 bug‘ni o‘ta qizdirgichda u qo‘shimcha ravishda qizdiriladi va o‘ta qizigan bug‘ holatiga o‘tadi. Bug‘ bug‘ni o‘ta qizdirgichdan 3 bug‘ dvigateliga (masalan, bug‘ turbinasiga) kirib keladi, bu yerda to‘liq yoki qisman p_1 bosimgacha kengayadi va L_1 foydali ish olinadi. Ishlab bo‘lgan bug‘ 4 sovutgich-kondensatorga yo‘naltiriladi, bu yerda u p_1 o‘zgarmas bosimda qisman yoki to‘liq kondensatsiyalanadi. Bug‘ning kondensatsiyalanishi ishlab bo‘lgan bug‘ bilan 4 sovutgich-kondensator orqali oqib o‘tadigan sovituvchi suyuqlik o‘rtasida issiqlik almashinishi natijasida sodir bo‘ladi.



13.1-rasm. Eng oddiy bug‘-kuch qurilmasining chizmasi

Sovutgichdan keyin, kondensatsiyalangan bug‘ 5 nasosning kirishiga kirib keladi, bu yerda suyuqlikning bosimi p_2 kattalikdan p_1 boshlang‘ich qiymatgacha ortadi, shundan keyin suyuqlik 1 bug‘ qozoniga

kelib tushadi. Qurilmaning sikli yopiladi. Agar 4 sovutgichda ishlab bo‘lgan bug‘ning qisman kondensatsiyalanishi sodir bo‘lsa, u holda bug‘-kuch qurilmasida 5 nasosning o‘rniga kompressordan foydalaniladi, bu yerda bug‘-suv aralashmasining bosimi ham p_2 dan p_1 gacha oshiriladi. Biroq siqishga ketadigan ishni kamaytirish uchun bug‘ning kondensatorda to‘liq kondensatsiyalanishi va so‘ngra nasos-kompressorda bug‘-suv aralashmasini emas, kondensatordan chiqayotgan suvni siqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday sikl Renkin sikli deb ataladi.

Renkin sikli (12.2-rasm) isitgichga issiqlik olib kelinadigan 4–1 izobara, bug‘ning bug‘ turbinasida 1–2 kengayish adibatasi, sovutgich-kondensatorda issiqlikni olib ketish 2–3 izobarasi va nasosda suvning bosimining 3–4 ortish izoxorasidan tashkil topadi. Izobarada 4–5 chiziq nasosdan keyin suyuqlikning harorati r_1 bosimda qaynash haroratigacha ortishi jarayoniga mos keladi. 5–1′ uchastka qaynayotgan suyuqlikning quruq to‘yingan bug‘ga aylanishiga, 1′–1 uchastka esa – quruq to‘yingan bug‘ni o‘ta qizigan bug‘ga aylantirish uchun bug‘ni o‘ta qizdirgichga issiqlikni olib kelish jarayoniga mos keladi.



12.2-rasm. *p-v* (a) va *T-s* (b) koordinatalarda Renkin sikli.

Turbinada bug‘ tomonidan amalga oshiriladigan ish bug‘ning turbinadan oldingi va keyingi entalpiyalarining farqiga teng

$$w_T = h_1 - h_2. \qquad (12.1)$$

Nasosda suvni siqishga sarflangan ish xuddi shunday – ishchi jismning 4 va 3 nuqtalardagi entalpiyalarining farqi sifatida aniqlanadi.

P–v koordinatalarda bu ish a34b maydon bilan aniqlanadi (13.2,a-rasmga qaralsin). Bu ish turbinaning ishiga qaraganda juda kichik.

Siklning foydali ishi turbinaning ishidan nasosni yuritishga sarflangan w_H ishni ayirishga teng

$$w = w_T - w_H \approx w_T = h_1 - h_2. \qquad (13.2)$$

$$w_H = h_4 - h_3. \qquad (12.3)$$

Qozonda va suvni o‘ta qizdirgichda olib kelingan q_1 solishtirma issiqlik miqdori termodinamikaning birinchi asosidan (bunda ish sodir bo‘lmaydi) issiqlikni olib kelish jarayonida ishchi jismning entalpiyalarining farqi sifatida aniqlanadi

$$q_1 = h_1 - h_4 = h_1 - h_K, \qquad (12.4)$$

bu yerda h_K – p_2 bosimda issiq suvning (kondensatning) entalpiyasi, amalda suvning 3 va 4 nuqtalardagi entalpiyalariga teng, ya’ni $h_4 = h_3 = h_2$.

Ushbu nisbatlarni taqqoslash bilan Renkin siklining termik FIK ni siklda olingan foydali ishning olib kelingan issiqlik miqdoriga nisbati sifatida aniqlash mumkin

$$\eta_t = \frac{w}{q_1} = \frac{h_1 - h_2}{h_1 - h_K}. \qquad (12.5)$$

Bug‘-kuch qurilmasining boshqa bir muhim tavsifi – *d solishtirma bug‘ sarfi* bo‘lib hisoblanadi, u 1 kVt·soat (3600 J) energiyani ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan bug‘ miqdorini tavsiflaydi.

Ideal Renkin siklida solishtirma bug‘ sarfi

$$d = \frac{3600}{w} = \frac{3600}{h_1 - h_2} \text{кг}/(\text{кВт} \cdot \text{ч}). \qquad (12.6)$$

Solishtirma bug‘ sarfi agregatlarning o‘lchamini belgilaydi: u qanchalik katta bo‘lsa, xuddi o‘sha quvvatni olish uchun shunchalik ko‘p bug‘ ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladi.

12.2. Bug‘-kuch qurilmalarining tejamkorligini oshirish yo‘llari

Renkin siklining FIK hatto yuqori parametrlarga ega bo‘lgan qurilmalarda ham 50% dan oshmaydi. Real qurilmalarda dvigatelda

ichki yo‘qolishlarning borligi tufayli foydali ish koeffitsiyentining qiymati yanayam kichik bo‘ladi.

Bug‘-kuch qurilmalarining tejamkorligini oshirishning ikkita yo‘li: bug‘ning turbinaning oldidagi parametrlarini oshirish, ya’ni uning boshlang‘ich harorati va bosimini oshirish, va bug‘-kuch qurilmalarining chizmalarini murakkablashtirish mavjud.

Birinchi yo‘nalish turbina bo‘ylab kengayish jarayonida h_1-h_2 issiqlik tushishining ortishiga, va buning oqibati sifatida, siklning solishtirma ishi va foydali ish koeffitsiyentining ortishiga olib keladi. Bunda qurilmaning kondensatorida qarama-qarshi bosimni kamaytirish bilan, ya’ni p_2 bosimni kamaytirish bilan turbina bo‘ylab h_1-h_2 issiqlik tushishini qo‘shimcha ravishda oshirish mumkin. Bug‘-kuch qurilmalarining tejamkorligini bu yo‘l bilan oshirish bir qator qiyin texnik masalalarni hal qilish, xususan, turbinani tayyorlash uchun yuqori legirlangan, issiqlikka bardoshli materiallardan foydalanish bilan bog‘lanadi.



12.3-rasm. Mehanik energiya va issiqlikni birgalikda ishlab chiqariladugan qurilmaning sxemasi: 1-bug‘ generatori; 2-bug‘ni ortiqcha qizdirgich; 3,5 – bug‘g turbinasi; 4-kondensator; 6-issiqlikni iste’mol qiluvchi



12.4-rasm. Oziqlantiruvchi suvni regenerativ tarzda isitadigan bug‘-kuch qurilmasining sxemasi

Bug‘-kuch qurilmasidan foydalanishning samaradorligini ishlab bo‘lgan bug‘ning issiqligidan keyinchalik isitish, issiq suv ta’minoti, materiallarni quritish va hokazolarda foydalanish hisobiga anchagina oshirish mumkin. Ushbu maqsad uchun 4 kondensatorda qizigan sovutuvchi suv havzaga tashlab yuborilmaydi (12.3-rasm), aksincha, bu suv 6 issiqlikni iste’mol qiluvchining isitish qurilmalari orqali haydaladi. Stansiya bunday qurilmalarda 3 mashinaning valida L_1 foydali ish ko‘rinishida mexanik energiya va isitish uchun $Q_{isitish}$ issiqlik ishlab chiqaradi. Bunday stansiyalar issiqlik-elektr markazlari (IEM) deb ataladi. Issiqlik energiyasi va elektr energiyasini kombinat-siyalangan ishlab chiqarish – issiqlik qurilmalarining samaradorligini oshirishning asosiy uslublaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko‘lamlari bo‘yicha Rossiya dunyoda etakchi o‘rinlardan birida turadi.

Bug‘-kuch qurilmasining foydali ish koeffitsiyentini Renkin sikliga qaraganda oshirish regenerativ sikl deb ataluvchi siklni qo‘llash hisobiga mumkin bo‘ladi (12.4-rasm). Bu chizmada 1 qozonga kirib keladigan oziqlantiruvchi suv kengayish paytida 3 turbinadan qisman olinadigan bug‘ bilan isitiladi. Bu chizma bo‘yicha, 1 qozonda olingan va 2 bug‘ni o‘ta qizdirgichda o‘ta qizdirilgan bug‘ 3 turbinaga yo‘nalti-riladi, bu yerda uning 4 kondensatordagi bosimgacha kengayishi sodir bo‘ladi. Biroq hamma bug‘ ham kondensatorga etib bormaydi, uning qandaydir bir g miqdori u qisman ish bajargandan keyin turbinadan chiqarib olinadi va 6 regenerativ isitgichga yo‘naltiriladi, (12.4-rasmga qaralsin), bu yerda u kondensatsiyalanish natijasida oziqlantiruvchi suvni isitadi, bu suv 5 nasos bilan 1 qozonga haydaladi.

Kondensatning o‘zi regenerativ isitgichdan keyin 5 nasosning kirishiga yoki 4 kondensatorga kirib keladi, bu yerda u turbina orqali o‘tgan bug‘ning kondensati bilan aralashadi. SHunday qilib, qozonga undan bug‘ ko‘rinishida chiqib ketgan miqdordagi oziqlantiruvchi suv kirib keladi. 12.5-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, turbinaga kiradigan har bir kilogramm bug‘ $l_1=h_1-h_2$ ish bajarish bilan p_1 bosimdan p_2 bosimgacha kengayadi. Kilogrammning ($1 - g$) ulushi miqdoridagi bug‘ $l_2=h_2-h_3$ ish bajarish bilan p_3 oxirgi bosimgacha kengayadi. Regenerativ siklda 1 kg bug‘ning yig‘indi ishi quyidagiga teng bo‘ladi:



a) b)

12.5-rasm. Bug‘ni oraliq chiqarib olish (a) va bug‘ miqdorini o‘zgartirishga (b) ega bo‘lgan turbinada bug‘ning adiabatik kengayish grafigi.

$$l = l_1 + l_2 = h_1 - h_2 = (h_2 - h_3)(1-g) = h_1 - h_3 - (h_2 - h_3)g. \qquad (12.7)$$

Tenglama shuni ko‘rsatadiki, regenerativ issiqlikdan foydalanish bug‘ning xuddi o‘sha parametrlariga ega bo‘lgan Renkin sikliga qaraganda solishtirma kengayish ishining kamayishiga olib keladi. Biroq hisoblashlar shuni ko‘rsatadiki, regenerativ siklda ish regeneratsiyalash bo‘lganda bug‘ni olishga ketadigan issiqlik sarfiga qaraganda sekinroq kamayadi. SHu sababli regenerativ isitishga ega bo‘lgan bug‘-kuch qurilmasining foydali ish koeffitsiyenti yakunda odatdagi siklning foydali ish koeffitsiyentiga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Qurilmalarning foydali ish koeffitsiyentini oshirish maqsadida yuqori va o‘ta yuqori bosimli bug‘ni qo‘llash jiddiy qiyinchiliklarga to‘qnash keladi: turbinaning oxirgi bosqichlarida uning namligi shunchalik yuqori bo‘ladiki, bu turbinaning foydali ish koeffitsiyentini anchagina pasaytiradi, kuraklarning eroziyalanishini chaqiradi, ishdan chiqishga sabab bo‘lishi mumkin. SHu sababli bug‘ning yuqori parametrlariga ega bo‘lgan qurilmalarda bug‘ni oraliq qizdirishni qo‘llashga to‘g‘ri keladi, bu ham qurilmaning foydali ish koeffitsiyentining ortishiga olib keladi. Qurilmaning tejamkorligini oshirishning bu usulining mohayati quyidagidan iborat (12.6-rasm).

3 yuqori bosimli turbinada kengaygandan keyin bug‘ 7 maxsus bug‘ni o‘ta qizdirgichga olib ketiladi, bu yerda u r_2 bosimda 4 haroratgacha ikkinchi marta qizdiriladi, bu harorat odatda t_1 haroratga

qaraganda biroz pastroq bo‘ladi. O‘ta qizigan bug‘ 4 past bosimli turbinaga kirib keladi, unda r_3 oxirgi bosimgacha kengayadi va 5 kondensatorga ketadi. 13.6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, bug‘ni o‘ta qizdirish bo‘lganda bug‘ning turbinadan keyingi namligi o‘ta qizdirish bo‘lmagandagiga qaraganda anchagina kichik ($x_1>x_2$). Real sharoitlarda oraliq qizdirishni qo‘llash foydali ish koeffitsiyentini 4% atrofida oshiradi. Bu yutuq faqatgina past bosimli turbinaning nisbiy foydali ish koeffitsiyentining ortishi hisobiga emas, balki past va yuqori bosimli turbina bo‘ylab bug‘ning kengayishining yig‘indi ishining ortishi hisobiga ham olinadi. Gap shundaki, mos ravishda yuqori va past bosimli turbinalarning ishini tasiflaydigan *a –e* va *s – d* kesmalarning yig‘indisi *a – b* kesmadan katta bo‘ladi (13.6-rasmga qaralsin), chunki *s* – d kesma *e – b* kesmadan katta, shu sababli h – s koordinatalarda izobaralar chapdan o‘ngga qarab biroz siljiydi.



12.6-rasm. Bug‘ni oraliq qizdirishga ega bo‘lgan bug‘-kuch qurilmasining chizmasi:
1-bug‘ generatori; 2-bug‘ni o‘ta qizdirgich; 3-yuqori bosimli turbina (YUBT); 4-past bosimli turbina (PBT); 5-kondensator; 6-oziqlantiruvchi nasos; 7-oraliq bug‘ni o‘ta qizdirgich.



a) b)

12.7-rasm. Oraliq o‘ta qizdirgichga ega bo‘lgan qurilmada bug‘ning kengayish jarayonining T-s (a) va h-s (b) diagrammalarda ko‘rinishi

12.3. Sovutish qurilmasining sikllari

Sovutish qurilmasida jismlar atrof muhitning haroratidan past haroratgacha sovutiladi. Buni amalga oshirish uchun jismdan issiqlikni olish va tashqaridan olib kelinadigan ish hisobiga uni atrof muhitga uzatish zarur bo‘ladi.



a) b)

12.8-rasm. Bug‘li kompression sovutish qurilmasining chizmasi (a) *T-s* koordinatalarda sovutish qurilmasining sikli (b)

Sovutish qurilmalari sanoat, maishiy turmushda keng tarqalgan, ulardan erosti inshootlarini qurishda gruntni muzlatish va hokazolarda

keng foydalaniladi. Nazariy jihatdan sovutish qurilmasining ko‘proq foydali sikli – qaytar Karno sikli bo‘lib hisoblanadi. Biroq konstruktiv qiyinchiliklar tufayli sovutish qurilmalarida Karno siklidan foydala-nilmaydi, bu qiyinchiliklar mazkur siklni amalga oshirishda vujudga keladi, bundan tashqari, ishqalanish tufayli yo‘qolishlarning ta’siri shunchalik katta bo‘ladiki, bu Karno siklining afzalliklarini yo‘qqa chiqaradi.

12.4. Bug‘li kompression sovutish qurilmasi

Unchalik chuqur bo‘lmagan sovuqlikni olish uchun bug‘li kompression qurilmalar eng keng tarqalishga ega bo‘lgan (12.8a-rasm). Bunday qurilmalarda ishchi jism sifatida past haroratda qaynaydigan suyuqliklardan (ammiak, freon va boshqalar) foydalaniladi. Sovutish qurilmasi 5 sovutish kamerasi – bu yerda harorat Atrof muhitning haroratidan past bo‘lishi lozim – 1 kompressor, 4 bug‘latgich, 2 kondensator va 3 rostlovchi (drossellaydigan) ventildan tashkil topadi. Qurilma quyidagicha ishlaydi. 1 kompressor 4 bug‘latgichdan $p_1=const$ o‘zgarmas bosimda nam yoki quruq bug‘ ko‘rinishidagi atmosfera bosimidan yuqori bosimli va manfiy haroratli sovuqlik tashuvchi agentni so‘rib oladi (1 nuqta) va uni 1-2 adiabata bo‘yicha r_2 yuqoriroq bosimgacha siqadi. Bunda agentning harorati diagrammadagi 2 nuqtada musbat bo‘lib qoladi va sovutuvchi suvning haroratidan yuqori bo‘ladi, bu suv berilgan qurilmada Atrof muhit rolini o‘ynaydi. Ana shu parametrlarda kompressor odatda o‘ta qizigan bug‘ni 2 kondensatorga siqib chiqaradi, bu yerda sovutuvchi suv undan o‘ta qizish va bug‘ hosil bo‘lish issiqligini oladi (13.8,b rasmda 2–3–4 jarayon). Buning oqibatida bug‘ $p_2=const$ bosimda to‘liq kondensatsiyalanadi (4 nuqta). Kondensat ventil orqali o‘tadi (12.8,a rasmga qaralsin), bu yerda u p_1 bosimgacha drossellanadi ($h=const$ da 4-5 chiziq) va 4 bug‘latgichga kirib keladi, bu yerda sovutiladigan jismlardan issiqlikni olish bilan bug‘lanadi (diagrammada 5–1 jarayon) va yana 1 kompressor bilan so‘rib olinadi. Sikl takrorlanadi. Katta quvvatli qurilmalarda 5 sovutish kamerasi bilan 4 bug‘latgich o‘rtasida eritma sirkulyasiyalanadi, u 5 kamerada sovutiladigan jismlardan q_2 issiqlikni oladi. Bu issiqlikdan 4 bug‘latgichda sovuqlik tashuvchi agentni bug‘latish uchun foydalaniladi. Kichik quvvatli sovutgichlarda, masalan, maishiy uy sovutgichlarida bug‘latgich sovutish kamerasining

o‘zida joylashadi va eritmaga ehtiyoj bo‘lmaydi. *T–s* diagrammada sovutish kamerasida jismlardan olinadigan q_2 issiqlikka s51a maydon, kompressorda bug‘ni siqishda sarflanadigan 1_s ishga 12345 maydon mos keladi. $q_1 = q_2 + l_s$ issiqlik, unga sa12345s maydon mos keladi, sovutuvchi suvga, yoki, masalan, maishiy uy sovutgichlaridagi kabi havoga beriladi.

Sovutish qurilmalarining termodinamik samaradorligi issiqlik-kuch qurilmalaridagi kabi termik foydali ish koeffitsiyenti bilan emas, balki *χ sovutish koeffitsiyenti* bilan baholanadi. Sovutish koeffitsiyenti deganda q_2 olingan issiqlik miqdorining l_s siklda sarflangan ishga nisbati tushuniladi:

$$\chi = q_2 / l_ц \,. \qquad (12.8)$$

Sovutish qurilmasining sovutish kamerasidagi harorat 3 rostlovchi ventilning holatiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bu haroratni kamaytirish zarur bo‘lganda ventil qo‘shimcha ravishda yopiladi, buning natijasida chuqurroq drossellanish sodir bo‘ladi (12.8,b-rasmga qaralsin, 4–5’ chiziq).

Bunda issiqlikni olish jarayoni endilikda 5'–1' chiziq bo‘yicha boradi. χ qurilmaning tejamkorligi q_2 kattalikning kamayishi va kompressorni yuritishga sarflanadigan ishning ortishi tufayli kamayadi.

12.5. Havo bilan sovutish qurilmasi

Ko‘proq chuqur sovuqlikni olish uchun havo bilan sovutish qurilmasidan foydalaniladi (12.9-rasm).

Havo bilan sovutish qurilmasining harakat tamoyili oldindan siqilgan va sovutilgan havoning kengayishiga asoslanadi. Havo 4 sovuqlik kamerasidan p_1 bosim ostida 1 kompressorga kirib keladi, bu yerda ish sarflash bilan p_2 bosim va T_2 haroratgacha siqiladi (1-2 adiabata). Siqilgan havo 2 issiqlik almashinish qurilmasiga beriladi, bu yerda oqar suv bilan T_3 haroratgacha sovutiladi (2–3 jarayon) va 3 dvigatelga beriladi, bu yerda T_4 harorat va p_1 bosimgacha adiabatik tarzda kengayadi (3-4 jarayon). Sovutilgan havo sovuqlik kamerasiga kelib tushadi va bu yerda T_1 haroratgacha isiydi (4–-1 jarayon).



a) b) d)

12.9-rasm. Havo bilan sovutish qurilmasining chizmasi (a) va qurilmaning *p-v* (b) va *T-s* (d) diagrammalarda ko‘rinishi

Sovutuvchi suvga berilgan solishtirma issiqlik miqdori $q_1 = c_p(T_2 - T_3)$, sovuqlik kamerasida havoga olib kelingan solishtirma issiqlik miqdori esa $q_2 = c_p(T_1 - T_4)$ bo‘ladi. Doimiy issiqlik sig‘imida siklning solishtirma ishi

$$l_ц = l_{1,2} - l_{3,4} = q_1 - q_2 = c_p(T_2 - T_3 - T_1 + T_4), \qquad (12.9)$$

yoki 1–2 va 3–4 adiabatik jarayonlar uchun quyidagi haroratlar nisbati adolatli bo‘ladi:

$$T_1/T_2 = T_4/T_3\,;\, T_1/T_4 = T_2/T_3\,, \qquad (12.10)$$

$$l_ц = c_p(T_2 - T_1)(1 - T_3/T_2). \qquad (12.11)$$

Havo bilan sovutish qurilmasining sovutish koeffitsiyenti

$$\chi = q_2/l_ц . = (T_1 - T_4)/(T_2 - T_1)\left(1 - {}^{T_3}\!/_{T_2}\right) = T_1/(T_2 - T_1) \qquad (12.12)$$

Havoning issiqlik sig‘imining qiymati kichik bo‘lishi oqibatida havo bilan sovutish qurilmalarining solishtirma sovuqlik ishlab chiqarish unumdorligi past bo‘ladi.

12.6. Absorbsion sovutish qurilmasi

Ba’zan sovutish siklini amalga oshirish uchun oldingi holatlardagi kabi mexanik energiyani emas, balki ishlab bo‘lgan ishchi jismdan (masalan, bug‘ yoki gaz-turbinali qurilmaning ishchi jismidan) olina-

digan issiqlikni sarflash ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘ladi. Absorbsion sovutish qurilmasi ana shu tamoyil bo‘yicha ishlaydi.

Absorbsion sovutish qurilmasi ishchi jism sifatida absorberdagi sovuqlik tashuvchi agentdan (xuddi o‘sha bitta bosimda turlicha qaynash haroratlariga ega bo‘lgan moddalar) foydalanadi. Absorberdagi sovuqlik tashuvchi agent sifatida ammiakdan, absorber sifatida esa – suvdan foydalanish mumkin.



a) b)

12.10-rasm. Absorbsion sovutish qurilmasining chizmasi (a) va qurilmaning T-s diagrammada ko‘rinishi

Ideal absorbsion qurilmaning chizmasi 12.10-rasmda ko‘rsatilgan. 1 generatorning zmeevigi orqali qurilmaning boshqa elementlaridagiga qaraganda yuqoriroq haroratli va yuqoriroq bosimli issiq bug‘ o‘tadi. Eritma tomonidan bug‘dan qabul qilib olinadigan q_1 solishtirma issiqlik bug‘lanishga sarflanadi. Hosil bo‘lgan bug‘ kichik konsentratsiyali eritmaning qaynashi oqibatida sovuqlik tashuvchi agentning yuqoriroq konsentratsiyasiga ega bo‘ladi. Bug‘ 1 generatordan 2 kondensatorga kirib keladi, q_k solishtirma issiqlik miqdorini T_5 haroratda zmeevik orqali o‘tadigan suvga berish bilan yuzalarga kondensatsiyalanadi.

Kondensat drossellaydigan ventil orqali o‘tadi, undan chiqishda p_2 bosimga va sovuqlik kamerasidagi haroratga qaraganda past bo‘lgan T_6 haroratga ega bo‘ladi. 4 bug‘latgichda eritma sovutiladigan hajmdan q_x issiqlikni olib kelish hisobiga bug‘lanadi. Bug‘ 4 bug‘latgichdan 6

absorberga kelib tushadi, bu yerda 8 ventil orqali 1 generatordan kirib keladigan absorber bilan T_0 haroratda absorbsiyalanadi, q_a absorbsiya issiqligini T_4 haroratda zmeevik orqali o‘tadigan sovutuvchi suvga beradi. Konsentratsiyalangan bug‘ni yutish oqibatida absorberda joylashgan eritmada sovuqlik tashuvchi agentning konsentratsiyasi ortadi. Eritma 7 nasos bilan 6 absorberdan 1 generatorga uzatiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan qurilmaning ishi ideallashtirilsa (jarayonlarning to‘liq qaytarligi, sovuqlik tashuvchi agentning absorberdan to‘liq bug‘lanishi), uni to‘g‘ri (1234) va teskari (5678) Karno sikllari jamlanmasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin. Absorbsion mashinaning issiqlik tejamkorligini issiqlik koeffitsiyenti bilan baholash mumkin.

$$\xi_T = |q_x| - |q_1| \qquad (12.13)$$

Shundan kelib chiqqan holda berilgan issiqlik sarfida sovutiladigan hajmdan qanchalik ko‘p solishtirma issiqlik olinsa, sovutish qurilmasining tejamkorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Absorbsion sovutish qurilmasining haqiqiy sikli jarayonlarning qaytmasligi bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi ξ_T ning qiymatining bir qadar kamayishiga olib keladi.

Masalalar

70. Turbinadan avvalgi parametrlari P_1=90 at, kondensatordagi bosim P_2=0,04 at. Agar nisbiy ichki FIK. η_{oi}=0,84 bo‘lsa, turbinada kengaygandan keyingi bug‘ning holatini aniqlang.

Yechish:

Mumkin bo‘lgan issiqlik tushishini aniqlaymiz.

$H_0=h_1-h_2$=329,7 kkal/kg.

Haqiqiy issiqlik tushishi:

$H_i=h_0\ \eta_{oi}$=329,7·0,84=276,9 kkal/kg=1160,2 kJ/kg.

Turbinadan avvalgi entalpiya:

$H_{2x}=h_1-H_i$=808,2 – 276,9=531,3 kkal/kg=1426 kJ/kg.

71. Regeneratsiyasiz ishlaydigan quvvati N_0=250 mVt, bosimi P_1=235 ata, t=556^{0}C, P_2 =0,35 ata bo‘lgan o‘ta qizigan bug‘ning kondensatsion turbinadagi soatlik sarfi va solishtirma sarfini aniqlang. Turbinaning FIK n_{oi}=0,85, mexanik FIK n_m =0,98, elektr generatorning FIK n_1=0,37.

Javob: D=17,2 kg/soat; d=1,3 kg/kVt·soat.

72. Boshlang‘ich parametrlari P_1=90, t=480^{0}C va oxirgi bosimi P_2=0,04 at bo‘yicha ishlaydigan bug‘ turbinasining mutlaq ichki FIK ni aniqlang, agar nisbiy ichki FIK η_{oi}=0,82 bo‘lsa.

Javob: n_o=0,344.

73. Bug‘ urbine qurilmasi Renkin sikli bo‘yicha quyidagi parametrlar bilan ishlaydi: P_1= 9 Mpa, t_1 =535^{0}C, kondensator-dagi bosim P_2= 40 kPa. Turbina va ta’minlovchi nasosning ishini, ta’minlovchi nasos ishlaganda va ishlamagandagi termik FIKlarini hamda ularning farqlarini aniqlang.

Javob: l_t=1435 kJ/kg, l_{nas}=9,2 kJ/kg, η_t =0,426,
nasossiz ishlaganda η_t =0,428, $\Delta\eta_t$ /η_t =0,4 %.

74. Boshlang‘ich parametrlari P_1= 20 bar, t_1 =400^{0}C, kondensator-dagi bosim P_2= 0,04 bar bo‘lgan suv bug‘I Renkin sikli bo‘yicha ishlaydi. Shu siklning bajargan ishini toping.

Javob: l_0=1161 kJ/kg.

Nazorat savollari

1. Bug‘-kuch qurilmalarida ishchi jism sifatida nimalardan foydalaniladi?
2. Renkin siklini tushuntirib bering.
3. Bug‘-kuch qurilmalarining tejamkorligini oshirish yo‘llari nimadan iborat?
4. Sovutish qurilmalari kanday siklda ishlydi va ular kaerlarda ishlatiladi?
5. Bug‘li kompression sovutish qurilmasining vazifasiga nimalar kiradi?
6. Havo bilan sovutish qurilmasi kanday ishlaydi?
7. Aborbsion sovutish qurilmasini ishlash uslubi nimadan iborat?

13. Ichki yonuv dvigatellarining sikllari

Issiqlik mashinalarining termodinamik sikllari quyidagicha ideallashtiriladi:

- barcha jarayonlar qaytar bo‘lib hisoblanadi va ishchi jismning xuddi ishga bitta miqdori bilan kechadi;
- ishchi jismning kimyoviy tarkibi o‘zgarmaydi;
- ishchi jismning siqilish va kengayish jarayonlari adiabatik jarayonlar bo‘lib hisoblanadi;
- ishchi jismga issiqlikni olib kelish issiq manbadan amalga oshiriladi;
- issiqlik ishchi jismdan sovuq manbaga uzatiladi;
- ishchi jismning issiqlik sig‘imi haroratga bog‘liq bo‘lmaydi;
- ishchi jism – ideal gaz bo‘lib hisoblanadi.

Issiqlik dvigatellarining termodinamik sikllarini tavsiflaydigan parametrlar quyidagilar bo‘lib hisoblanadi:

- siqish darajasi
- bosimni oshirish darajasi
- dastlabki kengayish darajasi
- siqish bosimlarining nisbati
- siklning chegara haroratlarining nisbati

13.1. Porshenli ichki yonuv dvigatellarining sikllari

